Til – dil tarjimoni
O'zbek xalq maqoli

1991-yildan chiqa boshlagan

2020-yil. 1-son

ISSN 2010-5584

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

til_adabiyiot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyiot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyiot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyiot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz

2020-YIL – ILM-MA'RIFAT VA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH YILI



Alisher Navoiy tavalludiga 579 yil

Ushbu sonda:

Dars – muqaddas

8-bet

Ilm istang, izingizdan ibrat yog'sin

Metodik tavsiya

15-bet

Dars jarayonida matn tuzish

Tadqiqotlar

35-bet

Modal so'zlar orqali pragmatik baholoning ifodalanishi

Обсуждаем, спорим

80-bet

Нужен ли кружок русского языка в школе?

“ENG FAOL FILOLOG-MUALLIM” TANLOVI DAVOM ETADI

TIL VA ADABIYOT TA’LIMI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK JURNALI
1991-yildan chiqa boshlagan
2020-yil
ISSN 2010-8584
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
ПРЕПОДАВАНИЕ ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ
LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

“Til va adabiyot ta’limi” – “Преподавание языка и литературы” – “Language and literature teaching” ilmiy-metodik jurnalining

“ENG FAOL FILOLOG-MUALLIM – 2”

(o‘zbek, rus, xorijiy tillarda)

TANLOVI SHARTLARI

O‘zbekiston Respublikasi “Davlat tili haqida”gi Qonun ijrosini ta’minlash, yosh avlod qalbida ona tiliga hurmat, g‘urur hissini o‘stirish, ularning xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini rag‘batlantirish va ilg‘or metodikalarni ommalashtirish maqsadida Xalq ta’limi vazirligi hamda “Til va adabiyot ta’limi” – “Преподавание языка и литературы” – “Language and literature teaching” ilmiy-metodik jurnali tahririyati hamkorlikda navbatdagi “Eng faol filolog-muallim – 2” (o‘zbek, rus, xorijiy tillarda) maqolalar tanlovini e’lon qiladi.

Tanlovning maqsad va vazifalari:

– ona tili va adabiyot, davlat tili, rus tili va xorijiy tillar hamda jahon adabiyotini o‘qitish samaradorligini oshirish, ilg‘or tajribalar, faol, izlanuvchan muallimlarni rag‘batlantirish, yosh ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlash;

– ona tili va adabiyot, davlat tili, rus tili hamda xorijiy til o‘qituvchilari kasbiy malakasini oshirishga ko‘maklashish;

– original pedagogik metodikalarni aniqlashdan iborat.

Tanlov O‘zbekiston Respublikasi umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilar hamda alohida ravishda oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari olim va pedagoglari o‘rtasida o‘tkaziladi.

Qatnashchilar o‘z pedagogik tajribalari yoki dars ishlanmalari, metodik tavsiya hamda ilmiy-pedagogik tadqiqotlarini maqola sifatida quyidagi: 100083, Toshkent shahri Matbuotchilar ko‘chasi 32-uy. “Til va adabiyot ta’limi” – “Преподавание языка и литературы” – “Language and literature teaching” ilmiy-metodik jurnali tahririyati manziliga, yoki jurnalining **til_adabiyot@umail.uz** elektron pochtasiga hamda telegram kanalidagi **t.me/TAT_jurnal** manzillariga jo‘natishlari lozim.

Tanlovga jo‘natilgan har bir maqola mavzusi tegishli fan bo‘yicha Davlat ta’lim standarti, O‘quv dasturi mavzulariga mos bo‘lishi va quyidagi talablarga javob berishi kerak:

– matn hajmi 8–10 bet;

– .doc formatidagi fayl;

– sahifaning yuqori, quyi va o‘ng qismi 1,5 hamda chap tomonida 2,5 sm joy qoldirilishi;

– Times New Roman shriftida, 14 pt keglda;

– rostlanish – kenglik bo‘yicha, xatboshi – 1,25, qatorlararo masofa – 1,5 sm.

Matn oldidan muallifning familiyasi, ismi, otasining ismi, ilmiy darajasi (agar bo‘lsa), telefon va elektron manzili aniq ko‘rsatilishi (imkon bo‘lsa 3–4 sm o‘lchamdagi surati) shart.

Tanlovga jo‘natilgan maqolalar o‘zbek, rus, shuningdek, xorijiy tillarda qabul qilinadi, plagiat (ko‘chirmachilik)ga tekshiriladi.

Tanlovda qatnashish uchun “Til va adabiyot ta’limi” – “Преподавание языка и литературы” – “Language and literature teaching” ilmiy-metodik jurnaliga **1 yilga obuna bo‘lganligini tasdiqlovchi pochta kvitansiyasi nusxasi bo‘lishi talab etiladi.**

Tanlovga tavsiya etilgan maqolalar 31-avgustga qadar qabul qilinadi.

Tanlov g‘oliblariga 1-oktabr – “O‘qituvchi va murabbiylar kuni” umumxalq bayrami arafasida Xalq ta’limi vazirligi hamda “Til va adabiyot ta’limi” – “Преподавание языка и литературы” – “Language and literature teaching” ilmiy-metodik jurnalining diplom va qimmatbaho esdalik sovg‘alari tantanali ravishda topshiriladi.

1991-yildan chiqa boshlagan

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ПРЕПОДАВАНИЕ ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

2020-yil. 1-son.

Bosh muharrir
Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:
Sherzod SHERMATOV
Dilshod KENJAYEV
Maqsudxon YO'LDOSHEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Nargiza RAHMONQULOVA
Yorqinjon ODILOV
Mamatqul JO'RAYEV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinbosari)
Nilufar Namozova

Jamoatchilik kengashi:
Muhammadjon ALIYEV
Ergesh ABDUVALITOV
Manzura DADAXO'JAYEVA
Ehson TURDIQULOV

Sahifalovchilar:
Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ul:
Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Emma TOROSYAN

Tahririyat manzili:
100038, Toshkent shahri Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10,
(71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar «Til va adabiyot ta'limi»dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga 10.02.2020-yilda topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84 1/8. Shartli bosma tabog'i 6,0. «Times» garniturasi. 10, 11 kegl. «EKO TEXTILE PRODUKT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent sh. Mirobod tum., Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Buyurtma ___ Adadi 4200 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston MK

MUNDARIJA

SUHBAT
Shavkat NISHANOV. Adabiy ta'lim: lug'at va matnshunoslik 3

NAVOIYDAN NAVOLAR KELUR
Asror MO'MIN. Qush tili 5

DARS – MUQADDAS
Gulnoza QO'LDOSHEVA. Ilm istang, izingizdan ibrat yog'sin 8
Umid HAMROYEV. To'liq va to'liqsiz gaplar 10
Nargiza URAZOVA. Prozada yaratilgan poeziya 13

METODIK TAVSIYA
Shahnoza ZIYAMUXAMEDOVA. Dars jarayonida matn tuzish 15
Aziza SAYDULLAYEVA. Ona tili darslarida bayon yozdirish va uni tahlil qilish metodikasi 16
Xolida TOJIYEVA. Matnni sharhlab o'rganish 20
Norqul BEKMIRZAYEV. Boburning badiiy nutq mahorati 21
Adiba BOTIROVA. Adabiyot fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalar va o'yin-topshiriqlardan foydalanish 23

TAHLIL
Durdona RASULMUHAMEDOVA. Amir Temur obrazini yaratishda tarixiy rivoyatlarning ahamiyati 24
Dilfuza ZARIPOVA. "Har so'zni andisha bila boshlag'il..." 26
Qo'chqor SIDDIQOV. Mumtoz adabiyot xazinasining tilla kaliti 28
Ra'no YAXYOYEVA. Mutolaa kundaligi qanday tutiladi? 29
Usmonjon QOSIMOV. Tarixiy haqiqat va badiiy talqin 30
Umida RASULOVA. Qissalarda badiiy obraz mohiyati 31

TADQIQOTLAR
Sherzod NORMO'MINOV. So'z turkumlaridagi yadro va periferial qismlar va ularni shakllantiruvchi asoslar 33
Gulchehra G'ANIYEVA. Modal so'zlar orqali pragmatik bahoning ifodalanishi 35

KICHIK TADQIQOT
Feruza ATABEKOVA. Til realiyalarining ijtimoiy-madaniy xususiyatlari 37
Umida NOSIROVA. So'z poetikasi pragmatikaning tadqiqot obyekti sifatida 38
Gulnoza AHMEDOVA. Nutqiy muloqot madaniyatini o'rgatishning lingvodidaktik asoslari 40
Feruzaxon KARIMOVA. Dialogik nutqning o'ziga xos xususiyatlari 41
Intizor ABDIRIMOVA. Ta'lim tizimida klasterning o'rni 43
Siroj FAZILOV. Xalq og'zaki ijodi va zamonaviy dostonchilik 44
Ravshan NIYAZOV. Amerika nasrida yuridik detektiv romanchilikning rivojlanish bosqichlari 46
Muxlisa HAFIZOVA. Adabiyotni o'qitishda adabiy kompetentlilikni shakllantirishning ahamiyati 48

МЕТОДИКА. ОПЫТ
Снежана Кутлуева. Вопросительные местоимения 49
Малика Кутлуюлова. Т.Гаипов. Сказка «Обиженные двойки» 50
Мадинабону Ахмедова. Творчество Захара Прилепина 52

ИСПОЛЬЗУЙТЕ ЭТИ МАТЕРИАЛЫ
Анна Шереметьева. Интерактивные лекции по словообразованию русского языка 53
Равшана Исакова. Владение речевым этикетом – приобретение авторитета, порождающего доверие и уважение 55
Манзура Имамалиева. Применение метода «Деловая игра» на занятиях в неязыковом вузе 57
Юлия ЗЕМЛИНА. Развитие коммуникативных компетенций руководителя общеобразовательного учреждения через проектную деятельность 58
Фатима Хакимова. Приемы развития устной речи и самостоятельного мышления учащихся при обучении русскому языку на основе сказок 60

ИЗ ОПЫТА ПРЕПОДАВАТЕЛЯ
Саодат Магдиева. Реализация принципа образовательной рефлексии в практике преподавания литературы в вузе 62
Наргис Саримсакова. Структура и содержание методики формирования орфоэпической компетенции курсантов 63
Раъно Турдиева. Развитие у школьников пунктуационной зоркости 65
Дилором Шодиева. Языковой портфель – инструмент самореализации профессионально-языковых компетенций студента 67

ЯЗЫКОЗНАНИЕ
Махлиё Зайнутдинова. Морфонологические явления в русском отъадективном словообразовании 70

ИЗУЧАЕМ ИНОСТРАННЫЕ ЯЗЫКИ
Беккенбауэр Реймов, Айшолпан Ниязова. Новогодние компоненты при изучении английских фразеологизмов 72
Малика Солиева. О фонологической структуре заимствованных слов английского языка 74
Анвар Юсупов. Особенности изучения иностранного языка в условиях двуязычия (произношение) 76

НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Эльвина Алиева, Зарина Ахунова. Аллюзивная игра в произведении Ф.Кривина «Сказка про козлика» 77

ОБСУЖДАЕМ, СПОРИМ
Ферузахон Якубова. Значение духовно-нравственного воспитания в системе формирования личности будущего специалиста 79

Махфуза Ахмедова. Нужен ли кружок русского языка в школе? 80

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI jurnali

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining Filologiya va Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashr.



♦Prezident Sh.Mirziyoyev 11-yanvar kuni Adiblar xiyobonida bo'ldi.

Xiyobon Alisher Navoiy haykali bilan uyg'unlashtirilib, yaxlit adabiy-me'moriy shajara hamda bir butun ansambl hosil qilishi uchun shu kuni yangi loyiha ishlab chiqildi. Unga ko'ra bu yerga yana 11 nafar shoir yozuvchiga haykal o'rnatiladi.

♦O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati raisi Tanzila Norboyeva Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabining "faxriy mehmon"i bo'ldi.

U ijod maktabi o'quvchilarining qiziqishlari, kelajakdagi orzulari haqida suhbatlashib, tahsil olayotgan o'quv xonalari, turar joylari va yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishdi.

♦"Umumta'lim maktablarida 5 tashabbus" festivalining Sirdaryo, Toshkent viloyati va Toshkent shahridagi g'olib maktablarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.



♦Joriy yilning 19–24-yanvar kunlari Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi "Innovatsiya, texnologiya va strategiya" DUK direktori R.Karimjonov boshchiligidagi delegatsiya Buyuk Britaniyada bo'ldi.

An'anaviy Xalqaro ta'lim forumida O'zbekiston delegatsiyasi yig'ilganlarni mamlakatimizda xalq ta'limi tizimida olib borilayotgan islohotlar bilan tanishtirib, "Zamonaviy maktab" talablari va baholash metodlarini tatbiq etishga oid tajribalarni o'rganish, xalqaro universitetlar rahbariyati bilan muzokaralar, ESN loyihasi bo'yicha o'zbekistonlik o'qituvchilarning bilimini baholash yuzasidan kelishuv o'tkazish va shu kabi manfaatli hamkorlik masalalari yuzasidan uchrashuvlar o'tkazdi.

♦O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi bilan hamkorlikda o'tkazilgan "Marvarid o'lkam" adabiy tanlovida 42 nafar turli yoshdagi ijodkorlar o'zbek, rus va qoraqalpoq tillarida nasr va nazm yo'nalishlari orqali O'zbekistonning go'zal maskanlarini ifoda etish, bolalik, yoshlik yoki bugungi kundagi shirin xotiralarni aks ettirish bo'yicha o'z ijodiy ishlari bilan qatnashdilar. Eng yaxshi ishlar tashkilotchilarning qimmatbaho sovg'alari bilan taqdirlandi.

Muxlisa DO'STMUHAMEDOVA

ADABIY TA'LIM: LUG'AT VA MATNSHUNOSLIK

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida mumtoz adabiyot namunalarini o'qitishda bir qancha muammoli vaziyatlar yuzaga keladi. Shulardan biri mumtoz adabiyot matnlarida uchraydigan qadimiy umumturkiy, arab va forsiy so'zlarning bugungi o'quvchilar uchun izoh va lug'ati mavhumligi masalasi bo'lsa, ikkinchisi, mumtoz adabiyot nashrlaridagi mavhum yoki qusurli holatlar: so'zlarni noto'g'ri yoki teskari ma'noda o'qish hodisalari. Vaholanki, matn sahih bo'lmasa, tahlil ham ko'ngildagidek chiqmaydi.

Ana shu ikki ta'limiy muammo yuzasidan O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan ma'daniyat xodimi, Xalqaro Bobur mukofoti sovrindori, O'zbekiston yozuvchilar uyushmasining a'zosi, taniqli matnshunos olim Vahob Rahmonov bilan suhbatlashdik.

– Ustoz, biz Sizni deyarli yarim asrdan buyon O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi adabiy ta'limga daxldor mutaxassis sifatida taniymiz. Siz ilk bora o'rta maktablar uchun mo'ljallangan "O'zbek klassik adabiyoti uchun qisqacha lug'at" ("O'qituvchi", 1983) tuzgansiz. O'tgan asrning 80-yillaridan beri o'zbek adabiyoti darsligi va xrestomatiyalariga mas'ul muharrirlik qilib kelasiz. Hozirgi 7-, 8-, 9-, 11-sinf "Adabiyot" darsligi va majmualari uchun ham mas'ul muharrirsiz.

Shuningdek, istiqlol davrida professor Akram Kattabekov bilan hamkorlikda 8-sinf "O'zbek adabiyoti" darslik-majmuasini yaratgansiz (1993–2001).

Bugungi kunda o'qituvchilar mumtoz adabiyotni o'qitishda matn murakkabligi, lug'at va izohtalab so'zlarning ko'pligidan qiynalayotganliklari sir emas. Bunda, maktab o'quvchi va o'qituvchisi uchun "Mumtoz adabiyot asarlari uchun lug'at"ning yo'qligi, qolaversa, maxsus bo'lmasa-da, Navoiy asarlariga tuzilgan lug'atlardan o'qituvchining metodik jihatdan to'g'ri foydalana bilmasligi ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ustoz, shu ikki masalaga o'z munosabatingiz va mulohazalaringizni bildirsangiz.

– Darhaqiqat, Siz Xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirish muassasasi vakili sifatida juda yaxshi masalalarni ko'tardingiz.

Gapni asosdan boshlasak: oliy ta'lim bakalavrlari to'rt yillik ta'lim davomida mumtoz adabiyotdan xabardor bo'lib chiqayotganliklari rost. Ayniqsa, "Navoiyshunoslik" darsligining birinchi qismi nashr etilgani navoiyshunoslik ilmi hamda adabiy ta'limimiz rivojiga katta hissa bo'lib qo'shilganligini alohida qayd etishni istardim.

Biroq oliy ta'lim nazariyasi qoniqarli, mumtoz so'z xazinasi (xuddi sho'rolar davridagidek) ochilmagan qo'riq bo'lib qolib ketmoqda. Mutaxassislikka daxlsiz ayrim fanlarning o'rniga "Navoiy asarlari matni" ustida ishlashga yuz soat ajratish kerak, deb o'ylayman.

O'rta maktablar uchun lug'at yo'qligini aytdingiz. Yaqinda "Akademnashr" nashriyoti tomonidan "Mumtoz asarlar lug'ati" chop etildi. Ushbu kitobga so'zlik o'rta maktab darslik va majmualari asosida tuzilgan. 542 sahifalik ushbu lug'at nafaqat umumiy o'rta ta'lim maktablari, balki akademik litsey va kollejlar, gimnaziya va xususiy maktablarning til va adabiyot o'qituvchilari va o'quvchilari talablariga ham javob bera oladi.

Hozirda lug'atdan o'qituvchilar va qisman o'quvchilargina foydalana oladilar, chunki kitob kirill yozuvida nashr etilgan. Keng o'quvchilar ommasi uchun ushbu kitobni lotin yozuvida nashr etish masalasi bilan Xalq ta'limi vazirligi va uning tasarrufidagi Respublika ta'lim markazi shug'ullansa, va bu kitob Respublikamizning barcha maktablariga tarqatilsa, yaxshi bo'lardi.

Siz sinchkov mutaxassis sifatida mumtoz adabiyot lug'atlaridan foydalanish metodikasini ham alohida qayd etdingiz. Bu juda nozik masala. Hanuzgacha, menimcha, lug'atlardan foydalanish usullari tegishlicha ishlab chiqilmagan.

Men lug'at kitoblarini xuddi ilmiy kitob singari boshidan oxirigacha o'qib chiqishga odatlanganman. Shuning uchun oliygohdagi mashg'ulotlarimda talabalar matndan tushunmagan so'zlarini bemalol so'rab bilib oladilar, 90 foiz lug'atni yod bilaman.

Shaxsiy tajribamdan aytishim mumkin-ki, "Mumtoz asarlar lug'ati" yoki "Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati"ni qo'lga olgan o'quvchi xuddi yangi ilmiy asar kabi boshidan oxirigacha o'qib chiqsa, 5–6 mingta so'zni yod olishi oson bo'ladi.

– Hozirgacha ham o'qituvchining shaxsiy kutubxonasida lug'ati, undan foydalanish tajribasi bo'lgan...

– Albatta, o'qituvchi o'qiyotgan kitobidagi biror so'z ma'nosini bilmasa, lug'atni ochib, o'sha so'z ma'nosini o'qib, kitobni joyiga qo'yadi. Ya'ni o'qituvchi, boringki, bir o'quv yilida yuzta "qiyin" so'zni izlab, yigirma marotaba kitobni olib, yana joyiga qo'yadi. Bu jarayonda uning lug'at xazinasi to'lmaydi. Aksincha, lug'at kitobini bir o'qishda tugatsa, o'sha xazinaning kamida 70 foiziga ega bo'ladi.

Bu usul, ayniqsa, talaba uchun rosa asqatadi.

– Ustoz, o'qituvchi so'z-lug'atni o'qiyverib, undan bezib qolmaydimi?

– Uzr, men oddiy lug'atmi yoki izohli (misolli, gap yoki bayt keltirilgan) lug'atmi, farqlamay gapiribman. So'zimga aniqlik kiritay: men "razm – jang", "subh –

tong", "jola – do'l, shudring" kabi so'z va lug'at berilgan kitoblarni (chunonchi, 1993-yilgi "Navoiy asarlari uchun qisqacha lug'at") emas, balki har bir so'zning ham lug'ati, ham o'sha so'z qatnashgan gap yoki bayt keltirilgan izohli lug'atlarni nazarda tutdim.

O'qituvchi yaxshi biladiki, so'z – fikr birligi. U lug'at kitobidan olti mingta so'z va uning misollardagi izohi va lug'atini o'qib, shuncha yangi fikrga ega bo'ladi. "Mumtoz asarlar lug'ati" kitobida barcha so'zlar emas, aynan o'qituvchi va o'quvchi uchun qiyin bo'lgan qadimgi umumturkiy, forsiy va arabiy so'zlar lug'ati va izohi berilgan. Demak, uni o'qigan kitobxon lug'at boyligini oshirish qatorida qimmatli izohlarga oshno bo'ladi.

– Deylik, misoldagi qiyin so'z bir nechta bo'lsachi?

– Undan shu so'z izohi, lug'ati o'qilgach, navbatdagi qiyin so'zlar ham shu lug'atdan topib o'qiladi-da, so'ngra avvalgi joyidan mutolaa davom ettiriladi. Bu jarayonda o'qituvchi zerikmaydi, aksincha misoldagi gap va bayt mazmunini tushunib olishga qiziqib, kirishib ketadi.

– Ustoz, lug'atni bir asardek o'qib chiqish kerak, degan metodik kashfiyotingiz meni qiziqtirib qo'ydi. Biz buni rus tili va adabiyoti ta'limi amaliyotida ham o'rganishga harakat qilamiz.

Endi ikkinchi masala – adabiy ta'limga matnshunoslik haqida gaplashsak. Men 2014-yilda nashr etilgan 9-sinf adabiyot darsligining Navoiy va Bobur ijodiga oid matnlarini Navoiy ko'p jildli asarlari bilan solishtirganimda, o'nlab o'rinlarda matnning soxtalashtirilishi, buzilishini kuzatdim.

Chunonchi nashrdagi:
Mashaqqatdin yigitni el qari der, –
misrasi darslikda:
Mamlakatdin yigitni el qari der, –
tarzida yozilgan.
Yoki Boburning mashhur g'azalining bir misrasi nashrda:
Sendek menga bir yori jafokor topilmas, –
bo'lsa, darslikda mazmunan ters talqin etilgan:
Sendek menga bir yori vafodor topilmas.

Ustoz, Navoiy va Bobur ko'p jildli asarlarida ham bu kabi xatoliklar borligidan xabaringiz bor. Buyuk tarjimon M.A.Sale qalamiga mansub "Baburname" asarida ham yuzlab matnshunoslik va tarjimon nuqsonlari aniqlangan...

– Mumtoz shoirlarimiz asarlaridan darslik-majmualarga matn olishda imloviy xatolarga yo'l qo'yish matn tayyorlovchi olimlar gunohidan ham og'irroqdir. Chunki mumtoz shoir asarlarini juda oz kitobxonlar o'qiydi. Darslikni esa millionlab o'quvchilar mutolaa qiladi. Endi nashrlarda tuzatilmagan ayrim matn islohlariga to'xtalib o'tsam. Oltmish yildan ortiqroq muddatda o'n marotaba Bobur she'rlari chop etilgan bo'lsa, quyidagicha ruboiy bosildi:

Hijronda, sabo, etdi falakka ohim,
Gar ul sori borsang bu durur dilxohim.
Kim arzi duo niyoz ila qilg'aysen,
Gar so'rsa men xastani gulrux mohim.

Ko'plab nashrlarni amalga oshirgan olimlar ushbu ruboiyning so'nggi ikki so'zini arab yozuvidan kirill va lotin yozuviga o'girishda "oqsash"gan. Buni uch xil talqinda tasavvur etish mumkin:

1. Gar so'rsa men xastani Gulrux mohim.
2. Gar so'rsa men xastani gulrux Mohim.
3. Gar so'rsa men xastani Gulrux, Mohim.

Achinarlisi, Boburning ikki serfarzand zavjalarining ismi muhtaram olimlar eslariga kelmagan.

Shuni alohida ta'kidlashni istardimki, yaqinda Bobur nomli xalqaro jamoat fondi raisi muhtaram Zokirjon Mashrabov sa'y-harakati bilan AQSHning Baltimor shtatidagi Volter muzeyida saqlanayotgan "Boburnoma"ning qo'lyozma nusxasi Andijondagi "Bobur va dunyo madaniyati" muzeyiga keltirildi. Men bu qo'lyozmani Hindistonning Haydarobod shahar Salarjang muzeyida saqlanayotgan, 1905-yilda Londonda Anneta Suzanna Beverij xonim nashr ettirgan ksilografik nusxa bilan qiyoslab, so'zma-so'z o'rganib chiqdim. Bunda soha uchun qimmatli yangiliklar topildi, bularni matnshunosligimizdagi yutuqlar deyishimiz mumkin.

"Boburnoma"ning dunyoda saqlanayotgan noyob o'n ikki turkiy tildagi nusxasi va barcha dunyo tillariga tarjimasida Bobur tushida Xoja Ubaydulloh Ahrorni ko'rgani va Boburni qo'lidan ko'tarib, turkiy tilda "Shayx maslahat berdi" degan gapi bor.

Baltimor nusxasida esa "Shayx Muslihiddin berdi" deb yozilgan.

Barcha asl va tarjima nusxalardagi yuqoridagi gap, Samarqandning ikkinchi marta olinishi Xoja Ubaydulloh Ahror ruhiyati homiyligida bo'lgan, degan fikr ifodalangan.

Baltimor nusxasidagi matnga ishonsak, bu g'alaba xo'jandlik avliyo Shayx Muslihiddinning ruhan qo'llab-quvvatlashlari natijasi ekani ma'lum bo'ladi. Nashrlardagi "Shayx maslahat berdi" degan gapda mavhumlik bor. Chunki bu gap "Qaysi shayx berdi?" degan savolga o'rin qoldiradi. Darhaqiqat, Bobur bu gal Samarqandni olish uchun Xo'janddan harbiy safarga otlangan edi.

Boburning tarjima qilingan asarlarida ham matn nuqsonlari oz emas. "Boburnoma"ning ruscha tarjimasi 1948–1993-yillarda to'rt marta bosilgan. Kamina bu tarjimani asl nusxa bilan qiyoslab, yuzlab ilmiy, faktik, xronologik va tarjimaga oid nuqsonlarini tuzatib, 2008-yilda "Sharq" nashriyotida e'lon qildim.

Masalan, ma'lumki, kecha-kunduz 1440 minutdan iborat. Oldingi nashrlarda bir sutka 440 minut deb ko'rsatilgan va hokazo. Qayd etilgan misollar qay darajada muhimligini ko'rib turibsiz. Kitoblarni bu kabi xatolarsiz chop etish galdagi vazifalarimizdandir.

– Qiziqarli suhbatingiz uchun minnatdorchilik bildiramiz.

Shavkat NISHANOV suhbatlashdi.

Asror MO'MIN,
shoir va tarjimon,
Yozuvchilar uyushmasi azosi

QUSH TILI

(Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostoni asosida)

Drama

Ona tilim, o'zbegim desak, ko'z oldimizga hazrat Navoiy keladi. Jahon adabiyoti durdona asarlari haqida fikr yuritsak, yana ko'z oldimizga hazrat Navoiyning "Xamsa"si, "Lison ut-tayr" dostoni, dilbar g'azallari, benazir asarlari keladi. Ezgulik, Vatanga xizmat qilish, dunyo tamadduniga hissa qo'shish haqida o'ylasak, yana ko'z oldimizga hazrat Navoiy keladi. Shunday ekan, Alisher Navoiy hayoti va ijodini o'rganish, undan ibrat olish turmush tarzimizning uzviy bir qismiga aylanishi kerak.

Biz ulug' shoirimiz hayoti va ijodini yanada teran targ'ib etish maqsadida shu yildan jurnalimizda "Navoiydan navolar kelur" ruknini tashkil etyapmiz. Bu ruknda Hazrat asarlaridan namunalar, ijodiga oid ilmiy tadqiqotlar va mavzuga oid boshqa sara asarlarni berib boramiz. Ushbu sonda Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostoni asosida yozilgan Asror Mo'minning "Qush tili" dramasini e'tiboringizga havola qilyapmiz. Ishonchimiz komil, bu drama dostonni chuqur o'rganishda, o'quv dargohlarida sahna ko'rinishlarini tayyorlashda foydali bo'lish barobarida bobokalon shoirimizning boshqa ijod namunalarini ham yanada kengroq targ'ib qilishga yordam beradi.

TAHRIRIYAT

Muqaddima

Mumtoz navo taraladi. Parda ochiladi. Sahnaning o'ng va chap tomonlarida o'rmon. O'rtada yo'l. Olisda oppoq cho'qqili tog'lar. Oftob nurlaridan atrof charog'on. O'ng tomondagi o'rmonda daraxtlarning uzun novdalari ko'zga tashlanadi. Yo'l oxiri nurdan munavvar bo'ladi. Oq salla-chopon, oq etik kiygan, oppoq soqol-mo'ylovli hazrat Alisher Navoiy vazmin qadam tashlab kelmoqda. O'ng qo'lida patqalam, chap qo'lida oppoq qog'oz. Sahna o'rtasida to'xtaydi, o'yga cho'madi, mumtoz navo tinadi va Hazrat "Lison ut-tayr" dostonidan parcha o'qiydi.

Alisher Navoiy:

Xotiramdan o'tar hayot yo'llarim,
Entikib eslayman maktab yillarim.
Barcha bola saboq olmog'liq uchun,
Yerga muk tushgancha chekar edi un.
Istabon tashxisi xotir ustod,
Nazm o'quturkim ravon bo'lsun savod.
Nasrdin ba'zi o'qur ham doston,
Bu "Guliston" yanglig'-u ul "Bo'ston".
Manga ul holatda tab'i bul havas,
"Mantiq ut-tayr" aylab erdi multamas.
Tab' ul so'zlarga bo'lg'och oshno,
Qilmadi mayl o'zga so'zlarga yano.
Odat ettim ul hikoyatlar bila,
Qush maqolidin kinoyatlar bila,
Zavq ko'p xushhol etar erdi meni,
Sharhi oning lol etar erdi meni.
Chun bu ahvolimg'a bo'ldi imtidod,
Bo'ldi ul daftarg'a g'olib e'tiqod.
O'ylakim eldin uzuldi ulfatim,
Ul kitob erdi anisi xilvatim.
Uni o'qirdum boqmay hech odamga,
Oxir holim yetdi ota-onamga.
Yoshurub daftarni ma'dum ettilar,
Shug'lidin ko'nglumni mahrum ettilar.
Biroz tin oladi va davom etadi.
Lek chun yodimda erdi ul kalom,
Yoshurun takror etar erdim mudom.
Ondin o'zga so'zga maylim oz edi,
Qush tili birla ko'ngul hamroz edi.
Turk nazmida chu men tortib alam,
Ayladim ul mamlakatni yakqalam.
To'rt devon birla nazmi panj ganj,
Dast berdi chekmayin anduh-u ranj.
Nazm-u nasrim kotibi taxminshunos,
Yozsa, yuz ming bayt etar erdi qiyos.
Munchakim nazm ichra qildim ishtig'ol,
Xotirimdin chiqmas erdi bu xayol.

Kim bu daftarg'a berib tavfiq haq,
Tarjuma rasmi bila yozsam varaq.
Lek so'z dushvor edi, men notavon,
Bormas erdi xomag'a ilkim ravon,
Oqibat ko'rdumki umr aylar shitob,
O'lsam-u qolsa deyilmay bu kitob.
Ul jahon sori bu armon eltkum,
Bo'yla o'tdin dog'i hirmon eltkum.
Necha bu ishga ko'ngul mash'uf edi,
Go'iyokim vaqtig'a mavquf edi.
Oltmishqa umr qo'yg'onda qadam,
Qush tilin sharh etgali yo'ndum qalam.
Shayxning ruhidin istimdod etib,
Ko'rgach istimdod, ul imdod etib.
Erdi yarim kecha ashg'olim chog'i,
Tab' bu ma'nig'a mashg'ul o'lmog'i.
Xoma raftorin necha sursam necha,
Qirq-ellik bayt har yarim kecha.
Shayx ruhidin etib ko'p ehtimom,
Qildim oz fursatda arqomin tamom.
Budur ummidimki, har kim solsa ko'z,
Kim harorat solsa ko'nglig'a bu so'z,
Ustoz Shayx Attordin bo'lsun minnatdor,
Shayxga rahmat aytsun takror-u takror.

Mumtoz navo avj pardada yangraydi. Alisher Navoiy sahnaning o'ng tomoniga yuradi. Hazrat sahnani tark etgach, navo tinadi va qushlar chug'uri boshlanadi.

Birinchi parda

Birinchi sahna

Dastlabki sahna ko'rinishi. Chap tomondan qushlar chug'uri eshitiladi. Qushlar birin-ketin sahnaga qo'nadi va daraxt novdalaridan joy egallaydi. Ular biroz joy talashishadi. Olaqarg'a To'tidan yuqoriroqqa o'tadi. Qarg'a Bulbuldan balandroqqa chiqadi. O'laksaxo'r Tovusni nazar-pisand qilmay namoyishkorona yurib, to'rga o'tib ketadi. Sahnaning chap tomoni qushlarga to'ladi. Boshqa qushlar ham yuqoriroqdan joy egallash uchun janjallashishadi.

Hudhud (norozi ohangda):
Bu qanday bedodlik, bu qanday savdo,
Kalxat shoxda, pastda Tovus va Humo?
Qarg'a to'rda, Bulbul qolgan poygakda,
Qushlarga ham biroz insof kerakda.
Chun hunarvar uzra chiqdi behunar,
Tozdin qoldi quyiroq tojvar.
Agar bo'lsa edi adolatli shoh,
Hech bitta qush bunday qilmasdi gunoh.

Poygakdagi qushlar "To'g'ri, to'g'ri" deya Hudhudning gapini ma'qullashadi.

Bir qush:
To'g'ri! To'g'ri! Odil shoh bo'lsa shu tob,
Chala so'yilganday chekmasdik azob.

Hudhud:
Dunyo bexabarlar, bordur shunday shoh!
Bizning holimizdan u doim ogoh.
U shoh adolatda yakka-yagona,
Huzurida tengdur boy va devona.
U shoh – Simurg'! Yashar olis Qof tog'da,
Necha zamon o'tsun doim ardog'da.
Qushlar chug'urlashadi.

Bir qush:
Hudhud, aytgin, shuni sendan so'rarmiz,
Qanday qilsak Simurg' shohni qo'rarmiz?

Hudhud:
Oldindan sizlarga aytayin shuni,
Tirik bo'la turib ko'rmasak uni,
Bunday tiriklikdin o'lgan yaxshiroq!
Va lekin shoh Simurg' makoni yiroq.
Qushlar chug'urlashib, maslahatlashadi.

To'ti:
Hudhud, ko'p narsadin erursen ogoh,
Hatto Sulaymonga bo'lgansen hamroh.
Voqif etsang bizni shoh asroridin,
Bahramand etsang bu sir izhoridin.

Hudhud:
Men shoh ta'rifida boshlasam kalom,
Ming yil aytsam hamki bo'lmaydi tamom.
Men dog'i mingdin birin aylay bayon,
Sizga birdin minggacha aylay ayon.
Bizga shohedurki shahlar shohidur,
Kim bori ahvolimiz ogohidur.
Aytsam, uning mingdin ko'p fazilati,
Qancha aytgan bilan bitmas sifati.
Tan ichinda sizga ul jondin yaqin,
Harne yo'q ondin yaqin, ondin yaqin.
Lek siz ming yilchiliq ondin yiroq,
Qaysi ming yilliqki, imkondin yiroq.
Biroz tin oladi.
Lek mundoq shahg'a vasl oson emas,
Istamay ko'p sa'y ila imkon emas.
Umrlar urmoq kerak tinmay qanot,
Necha karkas umricha bo'lsa hayot.
Tog'lardur tortqon gardung'a tig',
Tig'i barcha qon to'karga bedarig'.
O't tutashqon dashtlar har sori fosh,
Tortibon yolinlari gardung'a bosh.

Ham havosinda bulutlar charx urub,
Boshqa yomg'ur o'rnida tosh yog'durub.
Onda bir tun qo'ng'oli koshona yo'q,
Jismi qut olmoqqa suv-u dona yo'q.
Bo'yla yo'l qat' etmagi ma'lum emas,
Maqsadig'a yetmagi ma'lum emas.
Lek ulkim bu talabda bersa jon,
Yaxshiroqkim yuz hayoti jovidon.
Navhayi bog'i fano tuzmak kerak,
Ul taraf parvoz ko'rguzmak kerak.

Qushlar yana chug'urlashadi, maslahatlashadi va qarorni aytishni To'tiga topshirishadi.

To'ti:
Bizga notanish sen ta'riflagan yo'l,
Shuning uchun Hudhud bizga peshvo bo'l.
Sen aromizda chu kelding rahshunos,
Borchamizdin budur emdi iltimos.
Kim borig'a muqtadoliq qilg'osen,
Bu safarda peshvoliq qilg'osen.
Kirgobiz ul shah yo'lig'a jon bila,
Jon ovuchlab didayi giryon bila.
Kim visoli komig'a yo etkobiz,
Yo tamannosida jon tark etkobiz.

Hudhud (Biroz o'yga toladi va To'tiga yuzlanadi):
Ey shirinso'z To'ti, qanotingni yoz,
Birga olis yo'lda etaylik parvoz.
Avval o'z manzilgahingni yod qil,
Ko'nglung ul ummid birla shod qil.
Kim vatan zotingg'a Hindiston edi,
Shah harimida saro bo'ston edi.
Kel bu g'urbatdin rahil og'oz qil,
Ul chaman sori yana parvoz qil.

Hudhud (Tovusga yuzlanadi):
Ey Tovus, bo'lmag'il chiroyingg'a mast,
Shahimiz ko'rmakni aylagin havas.
Ham yaroshib xilqatingg'a xo'bliq,
Ham muvofiq zotingga mahbubliq.
Lek yodingdin chiqib o'z maskaning,
Shah qoshinda jilva aylar gulshaning.
Shoh bazmi shavqidin tortib navo,
Ul saro bo'ston sari qilg'il havo.

Hudhud (Bulbulga yuzlanadi):
Ey Bulbul, sen gulga tuzdung ko'p navo,
Endi shah ishqini dilga etgin jo.
Shah gulistonida gul husnig'a mast,
Tortib ul gul ishqidin jomi alast.
To tushub ul toza gulshandin yiroq,
Kul qilib jismingni niyroni firoq.
Qil havo ul gulshani miyno sari,
Mayl ko'rguz ul guli humro sari.

Hudhud (Qumriga yuzlanadi):
Ey Qumri, sayrab bizni lol aylagil,
Savt-u lahning birla behol aylagil.

Solg'oningdin bo'ynungga tasbehi yusr,
Tilga oning vasfida yuzlandi usr.
Buki har bo'ston aro sargashtasen,
Qon bila tufroqg'a ham og'ushtasen.
Kim qilursen nola mahzunlar kibi,
Ishq savdosida majnunlar kibi.
Mujdakim, ul g'amda qolmay benavo,
Ham o'shul gulshan sari qilg'il havo.

Hudhud (Lochinga yuzlanadi):
Ey Lochin, sen uchun ortiqchadur pand,
Qushlar ichra sening martabang baland.
Shoh ilki maskaning bo'lg'on mudom,
To'mang ul tortib edurg'on bardavom.
Muddatekim charx etib zohir nifoq,
Shoh ilkidin seni soldi yiroq.
Mubtalo bo'ldung chu hijron domig'a,
Tab'ing o'rgandi firoq ayyomig'a.
Bo'l yana shohg'a giriftor-u najand,
Ilkini o'pmak bila bo'l sarbaland.
Hudhud tin oladi. Qushlar bir-biriga gap uqtirishadi.

Bir qush:
Bildimki, yashabmen juda g'aflatda,
Shoh sari uchamen hozir, albatta.

Boshqa qush:
Shahimiz ko'rmasdan yashamoq uyat,
To'g'ri gap, bizda ham bordur hamiyat.

Yana bir qush:
Biz barchamiz, toki ekanmiz hayot,
Ey qushlar, shoh sari yozaylik qanot.

To'ti:
Ey Hudhud, sen o'zung bizga yo'l ko'rsat,
Shoh sari uchaylik o'tkazmay fursat.

Hudhud (Qushlarga murojaat qiladi):
Ey qushlar, qat'iymi sizdagi qaror?!
Har tomondan "Ha, ha" degan javob keladi.

Hudhud:
Qani uchdik, Alloh bizga bo'lsin yor!
Qushlar sahnaning o'ng tomoniga qarab uchadi.
Parda yopiladi.

(Davomi muqovaning 4-betida)

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI
LANGUAGE AND LITERATURE

Gulnoza QO'LDOSHEVA,
Buxoro viloyati Romitan tumanidagi 13-maktabning
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

ILM ISTANG, IZINGIZDAN IBRAT YOG'SIN

(6-sinf, III chorak)

Darsning mavzusi: Turdosh otlar.

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad: o'quvchilarga turdosh otlar hamda ularning turlari, imlosi, qo'llanilishi haqida ma'lumot berish;

b) tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarni ona tilimizga hurmat, ehtirom ruhida, ma'nan yetuk va barkamol shaxs sifatida tarbiyalash, estetik didi, axloqiy sifatlari, kasb-hunarga bo'lgan qiziqishlarini o'stirish;

d) rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarning o'g'zaki va yozma nutqiy savodxonligi, erkin va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, mustaqil ishlash va fikrlash orqali bilim olish, xotirani mustahkamlash, tez fikrlashga o'rgatish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar:

– **kommunikativ:** o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, jamoaviy hamkorlikda ishlash, muloqotda suhbatdoshi fikrini hurmat qilgan holda o'z pozitsiyasini himoya qila bilish;

– **umummadaniy:** muomala madaniyati va odob-axloq qoidalariga amal qilish, o'qib-o'rganib bilim olishga intilish;

– **o'z-o'zini rivojlantirish:** ma'naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiyalar:

– **nutqiy:** so'z va gaplarni bog'lagan holda fikrini aniq va ravon yozma bayon qila olish, mavzu doirasida ma'lum sohaga oid ilmiy-ommabop nutqni tushunish, axborotlarni ajrata olish;

– **lingvistik:** leksik, fonetik, grammatik, sintaktik vositalarni izohlay olish, farqlash va nutq ifodasida o'rinli foydalanish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, aralash.

Darsda foydalaniladigan usullar: "Aqliy hujum", "O'rningni top", "Blits so'rov", "Ko'rsatkichlar".

Darsda foydalaniladigan jihozlar: kompyuter, proyektor, ko'rsatkichlar, marker, stiker qog'oz.

Dars materiali: darslik, slayd material, izohli lug'at, badiiy va ilmiy asarlar.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.

O'quvchilar bilan salomlashilgach, navbatchi axboroti tinglanadi, o'quvchilarning darsga tayyorgarligi nazorat qilinadi. Dars musobaqa tarzida olib borilishi e'lon qilinib, sinf o'quvchilari uch guruhga ajratiladi. Berilgan javoblarga ko'ra berib boriladigan ***"Ofarin", "Barakalla", "Olg'a"*** rag'bat kartochkalari e'lon qilinadi:

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Uyga vazifa sifatida berilgan 299-mashqdagi savollarga javoblar guruhlar tomonidan galma-galdan o'qib beriladi.

1. Qaysi daryo o'tmishda Jayhun, O'kuz, Oks nomlari bilan atalgan?

2. Respublikamiz hududidagi dengiz nomi?

3. Toshkent shahri ichidan oqib o'tuvchi kanal nomi?

4. Qoradaryo va Norinning qo'shilishidan qaysi daryo hosil bo'ladi?

Javoblar: 1. Amudaryo. 2. Orol dengizi. 3. Pskom. 4. Sirdaryo.

O'tilgan mavzu yuzasidan guruhlarga suv havzalari va inshootlari nomini yozish quyidagicha topshiriladi:

1-guruh (ot+ot):	**2-guruh** (sifat+ot):	**3-guruh** (tub so'zlar):
Tuyabo'g'iz	Qoraqamish	Sangzor
Chortoqsoy	Oqdaryo	Zarafshon
Shahrixonsoy	Issiqko'l	So'x
Nuqrasoy	Qorasuv	Chorvoq
Amudaryo	Oqqo'rg'on	Chordara

So'ng **"Aqliy hujum"** usulidan foydalanib guruhlarga savollar beriladi.

1-guruh:

1. Tuyabo'g'iz qanday suv inshooti? *(Tuyabo'g'iz – kanal).*

2. Yaksart qaysi daryoning qadimgi nomi? *(Sirdaryoning)*

2-guruh:

1. Qoraqamish anhori qaysi vohadan oqib o'tadi? *(Toshkent vohasidan)*

2. Amudaryoning qadimgi nomlari? *(Oks, Araks, Jayhun)*

3-guruh:

1. Viloyatimizdan oqib o'tuvchi daryo nomini ayting. *(Zarafshon)*

2. Sirdaryoning chap irmog'i? *(Qoradaryo)*

III. Yangi mavzu bayoni.

1-topshiriq "O'rningni top" usulidan foydalanib

bajariladi. Topshiriq yuzasidan guruhlarga jadval taqdim etiladi. O'quvchilar stiker qog'ozlarga yozilgan so'zlarni jadvalga joylashtiradilar. Shart bajarilgach, jadval quyidagi ko'rinishga keladi:

Shaxs otlari	Narsa otlari	O'rin-joy otlari	Faoliyat-jarayon otlari
ota	o'roq	paxtazor	terim
uka	ketmon	olmazor	o'rim
kishi		choyxona	ko'rik
			tinchlik

2-topshiriq shartlarini guruhlar quyidagicha bajaradilar:

1-guruh: Berilgan so'zlarni atoqli va turdosh otlarga ajrating.

2-guruh: Ajratilgan otlar bajaradigan vazifani ayting.

3-guruh: Ushbu otlar yuzasidan umumiy xulosa chiqaring.

Javoblar quyidagicha bo'lishi mumkin:

1-guruh:

Atoqli otlar:	**Turdosh otlar:**
Jo'ravoy	tog'a
Salima	xola
Termiz	shahar
Zomin	tog'

2-guruh: Birinchi ustundagi otlar umumiy shaxs va o'rin-joy nomlaridan ajratib olingan bo'lib, nomlash vazifasini bajargan. Ikkinchi ustundagi otlar esa shaxs va o'rin-joy otlarini umumiy atab kelgan.

3-guruh: Demak, bir umumiy ma'nodagi shaxs, narsa va o'rin-joy nomlarini bildirib, kim?, nima?, qayer? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlar **turdosh otlar** sanaladi.

O'quvchilar tomonidan bildirilgan fikrlar o'qituvchi tomonidan umumlashtirilib, izohlanadi va mavzu quyidagi slayd orqali o'quvchilarga tushuntirib beriladi:

Bir turdagi shaxs, narsa, o'rin-joy, faoliyat-jarayon nomlarini bildiruvchi otlar **turdosh otlar** sanaladi.



300–301-mashqlarni guruhlar quyidagicha bajaradilar:

1-guruh: Matnlardagi turdosh otlarni aniqlab yozing.

2-guruh: Turdosh otlarni ma'no guruhlarga ajrating.

3-guruh: Ularni izohli lug'at asosida izohlang.

Javoblar quyidagicha bo'lishi mumkin:

1-guruh: Turdosh otlar: baxshi, to'y, etak, tizza, to'n, tumor, munchoq, do'mbira, chumchuq, chittak, to'rg'ay, qor, odam, hovli, eshik…

2-guruh:

Shaxs otlari: baxshi, odam, tog'liklar.

Narsa otlari: etak, salla, do'mbira, tumor, munchoq, chumchuq.

O'rin-joy otlari: hovli.

Faoliyat-jarayon otlari: baxshi, to'y, ma'raka, gap-gashtak, shamol, qor.

3-guruh:

Baxshi – xalq dostonlarini kuylovchi shoir, oqin.

Do'mbira – ikki torli, pardasiz, chertib chalinadigan cholg'u asbobi va h.k.

302-mashq.

1-guruh. Shaxs otlari: yozuvchi, shifokor, muhandis, yigit, soatsoz, adabiyotshunos, mantipaz, zargar, chitfurush, direktor.

2-guruh. Narsa otlari: shamdon, qalam, arra, mato, koptok, do'ppi, idish, belanchak, qozon, savat.

3-guruh. O'rin-joy otlari: toshloq, mevazor, guliston, oromgoh, mehmonxona, xonadon, sayilgoh, adir, chamanzor, so'ri.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Darsning ushbu bosqichida **"Blits so'rov"** usulidan foydalanib guruhlarga jadval taqdim etiladi. Jadvalning gorizontal yo'nalishida turdosh ot turlari, vertikal yo'nalishida esa o'zbek xalq maqollari va matallari keltirilgan. O'quvchilar maqollarda ishtirok etgan turdosh otlarni aniqlaydilar. "Ha" javobi uchun **"+"**, "yo'q" javobi uchun **"–"** ishorasini qo'yishlari kerak bo'ladi:

O'zbek xalq maqollari va matallari	Shaxs oti	Narsa oti	O'rin-joy oti	Faoliyat-jarayon oti
Ustoz otang-dek ulug'	+	–	–	–
Yozda ish-lamagan deh-qon qishda kesak yer	+	+	–	+
Shamol bo'lsa, tuyani osmon-da ko'r	–	+	+	+
Qush uyasida ko'rganin qilar	–	+	+	–
O'zga yurtda shoh bo'lgun-cha, o'z yurtingda gado bo'l	+	–	+	–

Bulbul chamanni sevar, Odam – Vatanni	+	+	+	–

So'ng **"Ko'rsatkichlar"** usulidan foydalanib dars davom ettiriladi. Bunda o'quvchilarning qo'llariga quyidagi ko'rinishdagi ko'rsatkichlar beriladi. O'qituvchi tomonidan o'qilgan gaplar tarkibidagi turdosh otlar qaysi turga mansub bo'lsa, o'quvchi shu ko'rsatkichni ko'tarishi kerak bo'ladi.

Bunda quyidagi gaplardan foydalanish mumkin:

1. Maktab – muqaddas dargoh.
2. Bu yil dehqonchilikdan mo'l hosil oldik.
3. Billur qandillar ko'zni qamashtirardi.
4. Katta yo'lga qamishzor orqali chiqdik.
5. Bahor oxirlab borayotgan kunlar edi.
6. Shifokor bemorning holidan tez-tez xabar olib turdi.
7. Keksalar – baxtimiz, davlatimiz.
8. Chumchuqlar don-dunlarni cho'qiy boshladi.
9. Bizning mahallamiz juda obod.

V. Baholash va rag'batlantirish.

Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilar individual, guruhlar umumiy tarzda baholanadilar, past o'zlashtirgan o'quvchilarga qo'shimcha topshiriq beriladi. G'olib guruh e'lon qilinadi.

VI. Uyga vazifa.

303-mashq. Gaplar tarkibidagi shaxs otlarini aniqlab, ma'nosini izohlang.

Umid HAMROYEV,
Buxoro viloyati Shofirkon tumanidagi
22-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

TO'LIQ VA TO'LIQSIZ GAPLAR

(8-sinf, III chorak)

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad: o'quvchilarga to'liq va to'liqsiz gaplar haqida nazariy ma'lumot berish, mavzu yuzasidan bilim va malaka hosil qilish;

b) tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarga Vatanni sevish va ona zaminga muhabbat tuyg'usi, erkin kasb tanlash malakasini singdirish;

d) rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarning yozma savodxonligini o'stirish, fikrlash orqali nozik ma'nolarni anglatish, dunyoqarashini boyitish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan kompetensiyalar:

– nutqiy (*tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish*): berilgan topshiriq, sodda matnlarni tinglab tushuna olish;

– axborotlar bilan ishlay olish: mavjud axborot manbalari (Internet, telefon, kompyuter, elektron pochta)dan foydalanib ma'lumotlar topish;

– o'zini o'zi rivojlantirish: shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish, o'z xatti-harakatini adekvat baholash, halollik, to'g'rilik kabi sifatlarga ega bo'lish;

– ijtimoiy faol fuqarolik: o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish;

– milliy va umummadaniy kompetensiya: milliy va umuminsoniy qadriyatlarni farqlay olish.

Dars turi: yangi materiallarni o'rganuvchi.

Darsda foydalaniladigan usullar: "Eng chiroyli nutq", "Uch bosqichli nazorat", "Yo'qolgan bo'lakni topamiz", "Bingo", "Ortiqchasini top", "To'g'ri va noto'g'ri".

Darsda foydalaniladigan jihozlar: darslik, tarqatmalar, vatman qog'ozi, flomasterlar, slaydlar, gul yaproqlari.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.

O'quvchilar bilan salomlashilgach, davomat aniqlanadi, sinf xonasining tozaligi va o'quvchilarning darsga tayyorgarligi ko'zdan kechiriladi. Dars musobaqa usulida olib borilishi e'lon qilinib, sinf o'quvchilari **"Ilmlilar", "Ziyolilar", "Zukkolar"** kabi guruhlarga bo'linadi.

O'quvchilar dars davomida har bir to'g'ri javob uchun 1 balldan to'plab borishlari eslatiladi.

II. O'tgan mavzuni mustahkamlash.

"Eng chiroyli nutq" usuli yordamida eng chiroyli nutq egasi aniqlanadi. Buning uchun har bir guruhdan bittadan o'quvchi tanlab olinadi va "Lison ut-tayr" dostonidan yod olingan parcha ifodali o'qitiladi. Bunda nutqiy kompetensiya shakllantiriladi.

Shundan so'ng o'quvchilarning o'tilgan mavzuni qay darajada o'zlashtirganliklarini bilish uchun **"Uch bosqichli nazorat"** usulidan foydalanish mumkin. Ushbu usul yordamida o'quvchilarga erkin kasb tanlash,

kasbini sevish va chuqur egallash zarurligi uqtiriladi. Bunda **"Ilmlilar"** guruhiga hikoyat matnidagi tushirib qoldirilgan so'zlar o'rniga quyida berilgan so'zlardan mosini tanlash; **"Ziyolilar"** guruhiga ushbu so'zlarning ma'nosini izohlash; **"Zukkolar"** guruhiga hikoyat asosida tuzilgan tezkor savollarga javob berish topshirig'i beriladi. Bu usuldan foydalanilganda o'quvchilarda matematik va lingvistik kompetensiya elementlari shakllanadi.

"Ilmlilar" guruhi:

Hikoyat

Bog'bone bor edi bas behunar,
Bog'bonliq san'atidin bexabar.
Ne ... payvand qilmoq shevasi,
Kim halovat hosil etkay mevasi.
Ne yog'och ...i birla parvarish –
Aylab olibkim, shajar qilg'ay ravish.
Vaqt ila ne dona sochmog'in bilib,
Kim ... qilg'ay guli hosil qilib.
Bog' aro ... birla xush,
Bog'bon yo'qkim, degil anborkash.
Chun ko'rub bu nav' ranj-u tob anga,
Pandlar deb ahli xush ... anga.
Kim bu behosil ishingni tark tut,
O'zni bir hosilliq ish birla ovut.
Johil ul mehnatdin o'lmay ...,
Erdi ul mehnat chekorga ... .
Toki bir jo'ya aro kesmakta tok,
Ayladi oni yilon sanchib halok.

(A.Navoiy, "Lison ut-tayr")

Foydalanish uchun so'zlar: *farah, murtakib, mujtanib, ahbob, anborkashlig', parkov, shajar.*

"Ziyolilar" guruhi:

T/r	Tushunish qiyin bo'lgan so'z (tushuncha)	Tahlili
1	farah	*saodat, shodlik*
2	parkov	*kesish, butalash*
3	shajar	*daraxt, meva*
4	anborkashlig'	*xas-xashak tashuvchilik*
5	murtakib	*egallangan, kirishgan*
6	ahbob	*do'st*
7	mujtanib	*hazar qiluvchi*

"Zukkolar" guruhi:

1. Hikoyat kim haqida?
2. Bog'bonning qanday salbiy xatti-harakatini sezdingiz?
3. Unga qanday maslahat berishdi?
4. Bog'bon qanday yo'l tutdi?
5. Hikoyat yuzasidan o'z fikringizni bayon eting.

Guruhlarning javoblari umumlashtirilib, o'qituvchi tomonidan qo'shimcha ma'lumotlar beriladi. Faol guruh rag'batlantiriladi.

III. Yangi mavzu bayoni.

54-mashq. Gap juftliklaridagi birinchi gaplarga asoslangan holda ikkinchi gapda tushirib qoldirilgan bo'laklarni tiklang.

Ushbu mashq **"Yo'qolgan bo'lakni topamiz"** usulidan foydalanib bajariladi.

1. Bir hakimdan:

– Qaysi taom eng xushbo'y va lazzatli? – deb so'rabdilar.

– Qorin och paytda yeyilgan taom, – debdi hakim.

2. Bir kishi tabibga mazasi qochayotganini aytibdi. Tabib:

– Bugun nima yeganding? – deb so'radi.

– Uch botmon yarmi kuyuk go'ja, – debdi bemor.

Tabib unga:

– Sen yanglishibsan, mol tabibining oldiga borgin, men odamlarning tabibiman, – debdi.

Bunda quyidagi jadvaldan foydalanish mumkin:

T/r	To'liq gap	To'liqsiz gap	Tushib qolgan bo'lak
1	– Qaysi taom eng xushbo'y va lazzatli? – deb so'rabdilar.	– Qorin och paytda yeyilgan taom, – debdi hakim.	*eng xushbo'y va lazzatli* (kesim) tushib qolgan
2	Tabib: – Bugun nima yeganding? – deb so'radi.	– Uch botmon yarmi kuyuk go'ja, – debdi bemor.	*Yegandim* so'zi (kesim) tushib qolgan

So'ng o'qituvchi mashqdan kelib chiqqan holda quyidagi slaydlardan foydalanib yangi mavzuni tushuntiradi:

TO'LIQ VA TO'LIQSIZ GAPLAR

Gaplar bo'laklari to'la ifodalanganligi yoki ifodalanmay qolgani (tushib qolgani)ga ko'ra ikkiga bo'linadi:

– barcha zarur gap bo'laklari mavjud gap to'liq gap deyiladi;

– suhbat nutqida, matn ichida qo'llanib, biror bo'lagi tushirib qoldirilgan va nutq sharoitidan anglashilib turadigan gaplar **to'liqsiz gaplar** deyiladi.

To'liqsiz gaplar uchun zaruriy umumiy qoida, qonuniyatlar xos emas. Qaysi bo'lakning qoldirilishi kerakligi va qaysi bo'lakni tushirish mumkinligini faqat nutq sharoiti belgilaydi.

To'liqsiz gaplarda quyidagi gap bo'laklari tushirilishi mumkin:

Kesim va unga oid so'zlar	– Seni qurol ushlashga qaysi nomard majbur qildi? – Vijdonim, xalqimning amri! *(Meni qurol ushlashga vijdonim, xalqimning amri majbur qildi)*
Ega	– Siz she'r ham yozyapsizmi, Oydin? – Yozyapman. *(to'liqsiz gap)* *(Men she'r yozyapman – to'liq gap)*
Ega va kesim	– Ishni men kimdan qabul qilib olyapman? – Kengash a'zosidan. *(to'liqsiz gap)* *(Ishni siz kengash a'zosidan qabul qilib olyapsiz – to'liq gap)*

To'liqsiz gaplar ikki xil bo'ladi:

1. Suhbat nutqida yuzaga kelgan to'liqsiz gaplar.
– Bu mas'uliyatli vazifani kim o'z zimmasiga oldi?
– Azamat. (Bu mas'uliyatli vazifani Azamat o'z zimmasiga oldi)

Suhbat nutqida so'roq gapda qo'llangan so'roq olmoshining ma'nosiga mos javob beriladi, qolgan bo'laklar tushirib qoldiriladi. Masalan:
– Kim keldi?
– Aziza.

2. Odat tusiga kirib qolgan to'liqsiz gaplar. Bayramingiz bilan (tabriklayman). Yangi hovli muborak (bo'lsin).

IV. Yangi mavzuni mustahkamkash.

Darslikda berilgan mashqlar bajariladi.

143-mashqni bajarishda **"Bingo"** usulidan foydalaniladi. Matn o'qilib, gaplardagi qaysi gap bo'laklari tushirib qoldirilganligi aniqlanadi.

Namuna: *Bir olimdan so'rabdilar:*
– Ukangni ko'proq yaxshi ko'rasanmi, do'stingni?
– Ukamni, – deb javob beribdi u, – agar do'st bo'lsa!

Ushbu gapda ***hol, kesim*** tushib qolgan: ***Ko'proq*** ukamni ***yaxshi ko'raman***.

155-mashq "Ortiqchasini top" usuli yordamida bajariladi.

Gap juftliklarini o'qing. Ikkinchi gaplardagi ortiqcha so'zlarni aniqlang. Ularni tushirib qoldirib, gaplarni ko'chiring. Tushirib qoldirish sabablarini tushuntiring.

1. Behuda urinsang, poyoni bo'lmas,
O'ylanib qilsang, ziyoni ***bo'lmas***.
2. Tuya mingan uzoqni ko'zlar,
Eshak mingan yaqinni ***ko'zlar***.
3. Qizni beshikka sol,
Sepini sandiqqa ***sol***.
4. Har ishning chamasi bor,
Har daryoning kemasi ***bor***.

So'ng **"To'g'ri va notog'ri"** usulidan foydalangan holda guruhlarga jadvallar tarqatiladi. Har bir guruh ajratilgan vaqt oralig'ida kerakli bandga **"+"** belgisini qo'yib, o'z javoblar varaqasini boshqa guruhlar bilan almashadi va shu tariqa javoblar baholanadi. O'qituvchi guruhlarning javoblarini umumlashtiradi, yakuniy baholaydi. Bu orqali o'quvchilarda o'z-o'zini baholash kompetensiyasi shakllantiriladi.

T/r	Savol	To'g'ri	Noto'g'ri
1	Barcha zarur bo'laklari mavjud gap to'liq gap deyiladi.	+	
2	Faqat ikkinchi darajali bo'laklar tushiriladi.		+
3	Gap bo'laklarining tushirilishi xususida qat'iy qoida mavjud.		+
4	Suhbat nutqida, matn ichida qo'llanib, biror bo'lagi tushirilib qoldirilgan va u nutq sharoitidan anglashilib turadigan gaplar to'liqsiz gaplar deyiladi.	+	
5	To'liqsiz gaplar uchun zaruriy umumiy qoida, qonuniyatlar xos emas. Qaysi bo'lakning qoldirilishi kerakligi va qaysi bo'lakni tushirish mumkinligini faqat nutq sharoiti belgilaydi.	+	
6	Suhbat nutqida so'roq gapda qo'llangan so'roq olmoshining ma'nosiga mos javob beriladi, qolgan bo'laklar tushirib qoldirilmaydi.		+
7	Suhbat nutqida so'roq gapda qo'llangan so'roq olmoshining ma'nosiga mos javob beriladi, qolgan bo'laklar tushirib qoldiriladi.	+	
8	*Bulbul chamanni sevar, odam – Vatanni.* Odat tusiga kirgan to'liqsiz gap turiga kiradi.	+	
9	*Tug'ilgan kuningiz bilan.* Odat tusiga kirgan to'liqsiz gap turiga kirmaydi.		+
10	Asosan, ega va kesim tushiriladi.		+

V. Baholash va rag'batlantirish.

Guruhlarning to'plagan ballari hisoblanib, g'olib guruh aniqlanadi. O'quvchilarning barchasi darsda ishtirokiga ko'ra baholanadi. G'olib guruh a'zolari va faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifa.

156-, 157-mashqlarni berilgan shartlari asosida bajarish.

Nargiza URAZOVA,
Toshkentdagi Xalqaro Vestminister universiteti
huzuridagi akademik litseyning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

PROZADA YARATILGAN POEZIYA

(Akademik litseylarning 2-bosqichi uchun, II semestr)

Darsning mavzusi: Sharof Rashidovning "Kashmir qo'shig'i" asari tahlili.

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad: o'quvchilarning Sharof Rashidov hayoti va ijodi haqidagi bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash;

b) tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarni vatanparvarlik, insonparvarlik ruhida tarbiyalash;

d) rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, ularning og'zaki nutqini oshirish.

Dars turi: aralash.

Darsda foydalaniladigan usullar: "Keys stadi", "Aqliy hujum", "Nima uchun?".

Darsda foydalaniladigan jihozlar:

a) texnik: slaydlar, ekran, kompyuter, disk, "Ikki dil" badiiy filmi, Sh.Rashidov haqidagi hujjatli film, olimlarning fikrlari;

b) ko'rgazmali o'quv qurollar: ma'ruza matni, kitoblar, shoir rasmi, albom;

d) tarqatma didaktik materiallar: test va nazorat savollari.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.

O'quvchilar bilan salomlashilgach, sinf xonasi va o'quvchilarning darsga tayyorgarligi ko'zdan kechiriladi, davomat aniqlanadi.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

O'tilgan mavzu – Abdulla Qahhorning "Dahshat", "Anor", "Bemor", "O'g'ri" hikoyalari, "Keys stadi" texnologiyasidan foydalaniladi. Bunda o'quvchilar kichik guruhlarga bo'linadi va har bir guruhga muammoli savollar beriladi.

1-guruh: "Dahshat" hikoyasidagi Unsin adibning boshqa hikoyalari qahramonlaridan nimasi bilan farq qiladi?

2-guruh: "Anor" hikoyasida qaysi davr fojiasi qanday detallar asosida talqin qilingan?

3-guruh: "Bemor" hikoyasida yozuvchi bemor deb kimlarni nazarda tutadi va nima uchun?

4-guruh: "O'g'ri" hikoyasida haqiqiy o'g'rilar kimlar va ularni adib qanday talqin qilgan?

O'quvchilar berilgan savollarga javob beradilar, qolgan guruhlarning kamchiliklarini ham to'ldiradilar.

III. Yangi mavzu bayoni.

O'quvchilarning Sharof Rashidov hayoti va faoliyati haqida qanday ma'lumotga ega ekanliklarini bilish uchun **"Aqliy hujum"** usulidan foydalaniladi va ularga quyidagi savollar beriladi:

1. Sharof Rashidov qachon va qayerda tug'ilgan?
2. Sharof Rashidov qayerlarda tahsil olgan?
3. Sharof Rashidovning qanday asarlarini bilasiz?
4. Sharof Rashidov qayerlarda ishlagan?
5. O'zbekiston tarixida Sharof Rashidovning o'rni qanday bo'lgan?
6. Sharof Rashidov Toshkentda qanday me'morchilik ishlarini amalga oshirgan?
7. Sharof Rashidov ijodini qaysi janrda ijod qilish bilan boshlagan?
8. Sharof Rashidov qanday romanlar yozgan?
9. Sharof Rashidovning o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga qo'shgan hissasini bilasizmi?
10. Sharof Rashidov qanday doston yaratgan?
11. Sharof Rashidovning qaysi asariga inson erki g'oyasi singdirilgan?

O'quvchilarning savollarga bergan javoblari o'qituvchi tomonidan umumlashtiriladi va qo'shimcha ma'lumotlar berib o'tiladi:

SHAROF RASHIDOV

– 1917-yil 6-noyabrda Jizzax shahrida tug'ilgan;
– 1935-yilda Jizzax pedagogika texnikumida tahsil olgan;
– 1941-yilda Samarqand davlat universitetining filologiya fakultetini tugatgan;
– 1941–1942-yillarda Ikkinchi jahon urushida ishtirok etgan;
– 1943-yilda Samarqand viloyati gazetasida muharrir;
– 1945-yilda "Qahrim" she'riy to'plami nashr etilgan;
– 1947–1949-yillarda "Qizil O'zbekiston" gazetasi muharriri;
– 1949–1950-yillarda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi boshqaruvi raisi;
– 1950–1959-yillarda O'zbekiston Oliy Soveti Prezidiumi Raisi;
– 1959–1983-yillarda O'zbekiston kommunistik partiyasi Markaziy komitetining birinchi kotibi;
– Ikki karra Mehnat Qahramoni.

SHAROF RASHIDOV ijodiy faoliyati

"Chegarachi" (1937)
"G'oliblar" qissasi (1951)
"Kashmir qo'shig'i" (1956)
"Ikki dil dostoni" (1957)
"Bo'rondan kuchli" (1958)
"Qudratli to'lqin" (1964)
"G'oliblar" romani (1972)
"Hayot va adabiyotda yangiliklar" (1953)
"Yengilmas birlik" (1954)
"Badiiy va g'oyaviy yuksaklik uchun" (1956)
"Do'stlik bayrami" (1954)
"Tinchlik va xalq baxt-saodati uchun" (1958)

O'qituvchi O'zbekiston metropolitenining Sharof Rashidov nomi bilan bog'liqligini aytib, 1977-yilda Toshkentdagi metropoliten ochilishiga bag'ishlangan videolavha, bevosita Sharof Rashidov sa'y-harakatlari bilan qurilgan inshootlarni slayd orqali namoyish etadi. Shundan so'ng darsning asosiy mavzusi – "Kashmir

qo'shig'i" asari **"Nima uchun?"** texnologiyasi asosida o'quvchilar bilan hamkorlikda tahlil qilinadi.



1-o'quvchi: Tarixdan ma'lumki, Kashmir xalqi ozodlik uchun kurash olib borgan. Shuning uchun ham yozuvchi Kashmirdagi ozodlik kurashini asariga asos qilib olgan.

2-o'quvchi: "Kashmir qo'shig'i" asarida ozodlik sevgi-muhabbat mavzusi orqali aks ettirilgan. Chin muhabbat yigitlarni mardlikka boshlasa, qizlarni vafoli bo'lishga chorlagan.

3-o'quvchi: Asarda insonlar o'rtasidagi ezgulik kuylangan. Adib ramziy obrazlar orqali insonlar o'rtasidagi eng ulug' ne'mat – ezgulikni yuqori pardalarda kuylagan.

4-o'quvchi: Nargis guli – bahor elchisi. Bahorning ilk kunlari ochilib, hammaning ko'nglini ravshan qiladi. Shuning uchun ham yozuvchi asariga shu gulni bosh qahramon qilib olgan va asarda ozodlik, erk uchun kurashgan insonlar timsoli sifatida tasvirlangan.

5-o'quvchi: Nargisning jamolini ko'rgan Bo'ron unga oshiq bo'lib qoladi, unga uylanmoqchi bo'ladi. Lekin Nargis unga qarshilik ko'rsatadi. Bunga chiday olmagan Bo'ron Gullar vodiysini vayronaga aylantirib, Nargis va uning dugonalarini yo'q qilmoqchi bo'ladi. Lekin nozik gullar unga taslim bo'lmaydilar.

6-o'quvchi: Nargis va uning dugonalariga kuchi yetmagan Bo'ron Xorundni yordamga chaqiradi. Ular birgalikda Gullar vodiysiga momaqaldiroq yog'dirib, hamma yoqni vayronaga aylantiradi. Bamburning kelish yo'llarini yopib, uni yo'ldan adashtiradi.

7-o'quvchi: Nozik gullar halokatga yuz tutadilar, lekin hayotga bo'lgan muhabbat ularni kurashga chorlaydi. Nargis va uning dugonalari birlashib, Bo'ron va Xorundga qarshi kurash olib boradilar. Quyosh atrofga nurlarini sochib, ularni hayotga qaytaradi. Nargis dugonalaridan hol-ahvol so'rab, yovuzlardan qo'rqmaslikka chaqiradi:

Dugonalar, omonmisiz, bormisiz,
Jam bo'lishib, ochilib, gulzormisiz?
Dushman o'lsin, bog'imiz obod bo'lsin,
Birlashlaylik, do'stlarimiz sog' bo'lsin.

Bo'ron gullarning mardona kurashiga qarshi bulut va shamolni yordamga chaqirib, vodiyni selga bostiradi.

8-o'quvchi: Bambur Nargisning xasta ovozini eshitib, vayron bo'lgan vodiydan uni izlaydi. Nargis katta bir xarsangning yonida chalajon bo'lib yotgan bo'ladi. Bamburning muhabbati uni hayotga qaytaradi.

9-o'quvchi: Yozuvchi dushmanlarga qarshi kurashda har doim birgalikda harakat qilish kerakligini uqtiradi, shuning uchun ham gullarni birdamlikka chaqiradi. Agar ular birlashsa, hech qanday yovuz kuch ularni yenga olmaydi.

10-o'quvchi: O'zbek adabiyoti tarixiga nazar tashlasak, juda ko'plab yozuvchi va shoirlarimiz o'z asarlarida Hindiston ozodligini aks ettiruvchi asarlar yaratganligining guvohi bo'lamiz. Bunday adiblar qatorida Abdurauf Fitrat, Erkin Vohidov, Sharof Rashidovni sanab o'tish mumkin.

O'quvchilarning javoblari o'qituvchi tomonidan umumlashtirilib, to'ldiriladi. Asarda keltirilgan qo'shiq videosi o'quvchilarga qo'yib beriladi.

O'qituvchi: Adibning ushbu asari dunyoning 56 tiliga tarjima qilingan. Asarga xorijlik mutaxassislar tomonidan yuqori baho berilgan. Jumladan, xitoylik Van Fen "O'rtoq Rashidovning yangi asari to'g'risida" maqolasida adibning "Kashmir qo'shig'i" asariga shunday baho beradi: *"Garchand prozada yozilgan bo'lsa ham, uslubining nafis va ko'rkamligi sababli o'quvchini she'riy proza deb his etishga majbur qiladi".*

Sharof Rashidovning o'zi ta'kidlaganidek, asarda "Hindiston va kashmirlik do'stlarimizga bo'lgan muhabbat va ehtirom ifodalangan, 1957-yil Xitoyda chiqqan "Jin min Ji bao" gazetasining bosh muharriri Den To Sharof Rashidovning "Kashmir qo'shig'i" haqida shunday yozgan edi: *"Ajoyib asaringiz – "Kashmir qo'shig'i" uchun chuqur minnatdorchilik izhor qilaman. Bu qadimiy Kashmir afsonasi kishini g'oyat hayajonlantiradi".*

Afg'onistonlik olim, yuridik fanlari doktori, professor Abdulhakim Shar'iy Juzjoniy Sharof Rashidovni shunday eslaydi: *"Sharof Rashidovning men o'qigan birinchi asari "Kashmir qo'shig'i"ning arabcha tarjimasi bo'ldi. Kashmir xalqining folkloridan ilhomlanib yozilgan bu doston ezgulik g'oyalarini targ'ib etuvchi bir nafis romantik asar sifatida muallifning sezgir va latif ruhidan dalolat beradi".*

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Darsning ushbu bosqichida raqamlar texnologiyasidan foydalanish mumkin. Ushbu texnologiya slayd orqali o'quvchilarga ko'rsatiladi. Bunda o'quvchilar berilgan raqamlardan birini ixtiyoriy ravishda tanlaydi va shu raqam ostida yashiringan savolga javob beradi. Savollar quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Sharof Rashidovning she'riy to'plami qanday nomlanadi? *("Qahrim")*
2. Sharof Rashidovning frontda va front ortida og'ir mehnat qilgan xalqimizga bag'ishlangan she'rlarini sanang. *("Shirin xayollar", "Qasos", "Do'stimga maktub", "Qahramon xotirasi")*
3. Sharof Rashidovning birinchi nasriy asari qanday nom bilan chop etilgan? *("G'oliblar")*
4. Sharof Rashidovning nasriy asarlarida, asosan, qanday mavzu yetakchilik qiladi? *(Mehnatsevarlik, insonparvarlik, Vatanga muhabbat)*
5. Sharof Rashidovning qaysi asari 1956-yilda yozilgan? *("Kashmir qo'shig'i" qissasi)*
6. "Kashmir qo'shig'i" qissasiga nima asos qilib olingan? *(Kashmir xalqining o'tmish tarixidagi kurashi va taqdiri)*
7. Qissada Nargis va uning do'stlari kimlarga qarshi kurash olib boradi? *(Bo'ron va Xorundga qarshi)*
8. Asarda qanday motivlar yetakchilik qilgan? *(Ezgulik, do'stlik, ishonch, sadoqat, umid)*
9. Sharof Rashidov haqida kimlar asar yaratgan? *(A.Rashidov, A.Oripov, M.Yusuf)*

V. Uyga vazifa. Sharof Rashidovning "Kashmir qo'shig'i" qissasini o'qib, obrazlar ustida ishlash.

Shahnoza ZIYAMUXAMEDOVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti
dotsent vazifasini bajaruvchisi

DARS JARAYONIDA MATN TUZISH

Matn to'g'ri va chiroyli tuzilishi uchun bir qahcha jihatlarga e'tibor qaratish talab etiladi. Birinchidan, so'z tanlash. Matnda so'z tanlash, zarur so'zni boshqa ma'nodagi so'zlar sirasidan ajratib olish muhim ahamiyat kasb etadi. So'zlar matn turi va maqsadiga ko'ra tanlanadi: publitsistik matn uchun siyosiy-falsafiy ruhdagi o'tkir, ta'sirchan so'zlar, ilmiy matn uchun termin xarakteridagi atama so'zlar, badiiy matn uchun esa badiiylik bo'yog'iga ega so'zlar olinadi. Badiiy matnning nasr va nazm ko'rinishlaridagi til xususiyatlari ham bir-biridan birmuncha farq qiladi. Tanlangan so'z adabiy tilga xos, nutq madaniyati me'yorlari doirasida bo'lishi lozim, chunki har qanday matn – tarbiyalovchi omil, u tinglovchi va o'quvchilarda to'g'ri so'zlash va to'g'ri yozish ko'nikmalari, savodxonlikni shakllantiradi.

Tilning eng katta boyliklaridan biri sinonimlar bo'lib, bunday so'zlar orasidan matn uchun eng maqbulini tanlash ham mas'uliyat talab etadi. Chunki har bir so'z o'zining ma'nodoshidan nozik ma'no qirralari, "stilistik bo'yog'i" bilan ajralib turadi. Bu farqlarni ilg'ash, sezish uchun ularning qo'llanishini bir-biriga qiyoslab ko'rish kerak bo'ladi. Masalan: "olam", "dunyo" va "jahon" so'zlarini olaylik. Ular ham sinonim so'zlar. Biroq qiyoslang: "Olamga sayohat" – "Jahonga yoki dunyoga sayohat" emas, "Dunyo voqealari" – "Olam voqealari" emas, "Jahonga tinchlik!"ni "Olamga tinchlik!" bilan almashtirib bo'lmaydi.

Matn tuzishda amal qilinishi kerak bo'lgan yana bir jihat – bu qo'shimchalar va yordamchi so'zlardan to'g'ri foydalanish. Bunda grammatik me'yorlar tilning grammatik qonun-qoidalariga asoslanadi. Tilning grammatik qonuniyatlari esa leksikaga nisbatan barqaror. So'zlar davr ruhini aks ettiradi, shuning uchun o'zgaruvchan hisoblanadi, grammatika esa yillar o'tgan sayin takomillashib, rivojlanib boradi, undagi o'zgarishlar sekin kechadi.

Lug'at boyligidagi o'zgarishlar ham, grammatik me'yorlardagi o'zgarishlar ham eng avval gazeta-jurnallar sahifalaridagi matnlarda ko'rinadi. Bir shakl o'rnini boshqasi egallashi, ikki qo'shimchaning birlashib, bittaga aylanishi (*-moqda, -uvchi, -vchi, -digan, -dagi, -gacha*) yoki, aksincha, bir qo'shimchaning fonetik variantlari ikki mustaqil qo'shimchaga aylanib ketishi (*-guncha* va *-gancha,-lik* va *-liq, -ur* va *-ar)* kabi hodisalar, avvalo, matbuot, radio matnlarida boshlanib, keyin ommalashadi va boshqa nutq turlarida ham qo'llana boshlaydi. Bugungi kunga kelib bu hodisalar grammatik me'yor bo'lib qoldi.

-cha qo'shimchasi kichraytirish, ba'zan erkalash ma'nosini beradi. Bu qo'shimchani faqat kichraytirib bo'ladigan jism, buyum nomiga qo'shish mumkin. Lekin mana bu misolda kichraytirish emas, ingichkalash ma'nosi ko'zda tutilishi kerak edi, shuning uchun *-cha* qo'shimchasining qo'shilishi erish eshitiladi: *suvlar trubachalardan ingichka bo'lib chiqadi-yu, borgan sari yoyilib ketadi.* (M.Hazratqulov)

-zor qo'shimchasi biror o'simlik, daraxt, buta ko'p o'sadigan joy ma'nosini ifodalaydi. Lekin uning "fontan" so'ziga qo'shilishi erish ko'rinadi: *"Sa'dulla fontanzor orasida to'xtab, bir zum miriqib dam oldi".* (M.Hazratqulov)

-xo'r qo'shimchasi asli "yeyuvchi, ichuvchi" ma'nosini bildiruvchi so'zlarni yasaydi: *oshxo'r, araqxo'r, hasharotxo'r, haromxo'r, odamxo'r* kabi. Bu qo'shimcha bilan yasalgan *g'amxo'r, sudxo'r* so'zlari ham bor. Yaqinda esa "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida *-xo'r* qo'shimchasi bilan yasalgan yangi – *"tayyorxo'rlik"* so'zini uchratdik.

"Yo'l harakati xavfsizligi" va "Yong'in xavfsizligi" turg'un birikmalarini solishtiraylik. Birinchisida xavfsizlik choralari yo'l harakatiga qaratilishi tushunarli. Ikkinchisida esa xavfsizlik choralari yong'inga emas, aksincha, undan atrofdagilarga qaratilishi ayon. Shunday ekan, bu birikma "Yong'indan xavfsizlik" shaklida qo'llansa, to'g'ri bo'ladi.

Grammatik me'yorlarga uquvsizlik bilan, bilib-bilmay yondashish yoki e'tiborsizlikka yo'l qo'yish matnning ta'sirchanligini kamaytiradi, g'aliz, mujmal, chaynalgan jumlalarni keltirib chiqaradi.

So'z va qo'shimchalarni to'g'ri tanlash bilan adabiy til me'yorlariga asoslangan nutqning hosil bo'lishi ta'minlanadi. Lekin mukammal ishlangan matn to'g'ri bo'lishi bilan birga ta'sirchan, jozibali bo'lishi ham kerak. Chunki uning yetakchi maqsadi ommaga ta'sir qilish, tashviqot va targ'ibot yurgizish, ma'naviy go'zallikka, jasoratli va dadil harakatlarga undashdir. Matnni ta'sirchan va boy qiluvchi turli omillar (so'zning ko'chma ma'nolari, frazeologik iboralar, maqol va matallar) tilda mavjud. Quyida nutqning ta'sirchanligiga, teran his-tuyg'ular ifodalashiga xizmat qiladigan omillardan ikkitasi ustida to'xtalib o'tamiz.

Inversiya. Gapda gap bo'laklarining tartibini aniq bir (stilistik) maqsad bilan o'zgartirish, o'rinlarini almashtirish **inversiya** hodisasini tashkil qiladi. Masalan, "Vatan suyanadi mard o'g'lonlarga" yoki "Qudratlidur farzandlari sog'lom yurt" ("Vatanparvar" gazetasi, 2008-yil 2-may).

Inversiya, asosan, she'riyatda uchraydi. Masalan, A.Oripovning quyidagi:

Ayb emas, to'planib do'st-u yor bilan
Kechgan kunlaringni aylab qo'ysang yod.
Nazar sol yurtingga iftixor bilan,
Ona O'zbekiston shunchalar obod, –

to'rtligidagi har bir gap va uning bo'laklarini tartibi bilan joylashtirsak, mazmun oydinlashgandek bo'ladi, lekin uni she'r deb bo'lmay qoladi: she'riyatga xos sehr yo'qoladi: *Kechgan kunlaringni do'st-u yor bilan to'planib, yod aylab qo'ysang, ayb emas. Yurtingga iftixor bilan nazar sol, ona O'zbekiston shunchalar obod.*

Gap bo'laklarining takrori. Tilda takrorning bir necha xil ko'rinishi bor. *Gul-gul, qator-qator, qop-qop, yo'l-yo'l* kabi takrorlar bitta so'zning takroriy shaklidir. Bunda so'zning ma'nosi biroz o'zgarishi ham, jiddiy o'zgarishi ham mumkin. Biz boshqa takrorni – nutq emotsionalligini oshirish, harakat, voqea davomiyligini ta'kidlash yo'li bilan o'quvchining diqqatini tortish maqsadida gap bo'laklarini takrorlashni (sintaktik takror) nazarda tutyapmiz. Masalan, Abdulla Qahhor o'z asarlarida sintaktik takrordan unumli foydalangan va ta'kidlamoqchi bo'lgan ma'noni shu tariqa ajratib ko'rsatgan. Uning "Sinchalak" qissasida bunga quyidagicha misollar bor:

"Hozirgi Qalandarov Zulfiqorovga biron so'zi bilan emas, hatto anchayin harakati bilan xayrixohlik bildirsa ham *ish chatoq, juda chatoq bo'lar edi*".

"Hozir buning katta gunoh ekanligi *bilindi, juda ham bilindi*".

"Uncha-muncha odamni yerga *chalpak qilaman. Chalpak*".

G'.G'ulom, H.Olimjon, Uyg'un kabi yirik so'z san'atkorlari ham bunday takrorni o'z o'rnida qo'llab, she'rning ta'sirchanligini oshirishga erishganlar:

Tong yaqin,
Tong yaqin,
Oppoq tong yaqin.
Bir nafas orom ol,
Uxla, jigarim.

(G'.G'ulom)

Fursating yetmaydi doim,
Hech qachon yetgan emas.
Mehnating bitmaydi doim,
Hech qachon bitgan emas.

(E.Vohidov)

Misollardan ko'rinadiki, gapning takrorlanayotgan bo'laklari yonma-yon ham, oralarida boshqa so'zlar bilan ham kelishi va shunga qarab takrorning ma'nosi ham tovlanib turishi mumkin ekan.

Xullas, so'z tanlashda, ularning grammatik munosabatlarini ifodalovchi yordamchi so'z va qo'shimchalarni tanlashda, gap va matn tuzishda me'yor, marom, mas'uliyat hissi, did bilan yondashish ona tilimizni e'zozlash, adabiy-madaniy nutq egasi bo'lishning asosiy belgisi sanaladi.

Aziza SAYDULLAYEVA,
Samarqand shahridagi 24-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

ONA TILI DARSLARIDA BAYON YOZDIRISH VA UNI TAHLIL QILISH METODIKASI

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining ona tili Davlat ta'lim standarti talabiga ko'ra o'quvchilar egallagan bilim, ko'nikma va malakalar uch parametrli standart ko'rsatkichlar asosida tekshiriladi va aniqlanadi:

1. O'qish texnikasi. Bu parametr orqali o'quvchilarning notanish matnni ifodali o'qiy olish ko'nikmasi aniqlanadi.

2. O'zgalar fikri va matn mazmunini anglash malakasi. Bu parametr o'zgalar fikri va matn mazmunini anglash hamda uni og'zaki bayon qila olish darajasini aniqlaydi.

3. Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi. Bu parametr bo'yicha ta'lim sifatining natijasini baholashda o'qituvchi tomonidan o'quvchi egallagan quyidagi ko'nikmalarning darajasi aniqlanadi:

a) fikrning mantiqiy izchillikda ifodalanganligi;

b) fikrlash, mavzuning murakkablik darajasi;

d) tavsifning mavzuga muvofiqligi va tavsifning qiymati;

e) tavsifda tilning ifoda vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanish darajasi;

f) imloviy savodxonlik sifati.

Ko'rinadiki, DTS talablariga ko'ra o'quvchilarda fikrni yozma shaklda bayon etish malakasini hosil qilish ona tili ta'limining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Ma'lumki, bayon yozish malakasi boshlang'ich sinfdan shakllantirib boriladi. Yuqori sinflarda bu ko'nikma va malaka takomillashtiriladi.

Bayon yozma ishlarning asosiy turlaridan biri bo'lib, o'quvchining matn mazmunini o'z so'zi bilan yozma ravishda qayta bayon etishidan iborat ijodiy ishidir.

Bayon ikki turga bo'linadi: *tekshiruv bayoni* va *ijodiy bayon*.

Tekshiruv bayoni ona tili izchil kurslarining ma'lum bo'limlari o'tib bo'lingandan keyin o'quvchilarning o'zlashtirgan lisoniy bilim, malaka va ko'nikmalarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Bunday bayonda o'quvchi matn mazmunini yozma ravishda qayta bayon

etadi. Bayonning bu turida o'quvchining ona tili darsida o'rgangan bilimlarini amalda qo'llay olish malakasi tekshiriladi.

Ijodiy bayon tanlangan matn mazmuniga o'quvchining ijodiy yondashishi jihatidan tekshiruv bayonidan farq qiladi. Bunda o'quvchi matnga tasvir unsurlarini qo'shib, o'qituvchi boshlab bergan hikoyani davom ettirgan holda bayon yozadi.

Ijodiy bayonning quyidagi turlari bor:

1) shaxsini o'zgartirib yozish;

2) tasvir unsurlarini kiritib yozish;

3) boshlab berish yo'li bilan yozish;

Bunday ish turi o'quvchilarni insho yozishga tayyorlaydi, matnlarga ijodiy munosabatni rivojlantiradi.

Bayon yozish jarayonida o'quvchilar asarning mavzusi, mazmuni hamda asosiy g'oyasini chuqur tushunib oladilar. Bu esa nutqiy malakani takomillashtirishga yordam beradi. Ular grammatika va imlo yuzasidan olgan bilimlarini amaliyotga tatbiq etadilar, ularning nutqida yangi-yangi so'z va iboralar paydo bo'ladi, materialni mustaqil va izchil bayon etish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Shu jihatdan bayon o'quvchilarda yozma nutq malakasini hosil qilishda muhim o'rin tutadi.[1]

Yuqorida qayd etilganidek, amaldagi DTSning bosh maqsadiga ko'ra o'quvchilarni ijodiylik, mustaqil fikrlashga o'rgatishda bayonning o'rni beqiyos. O'quvchi bayoni mazmun izchilligi va lisoniy qurilishi jihatidan talab darajasida bo'lishi bilan birga savodli yozilishi kerak. Bayon, albatta, reja bilan yozilishi zarur. Aniq tuzilgan reja bayonning izchil, mantiqiy bo'lishini ta'minlaydi. Bayon rejasi 3 va undan ortiq qismdan iborat bo'lishi maqsadga muvofiq. Rejani ko'paytirishdan ba'zan o'quvchilar cho'chiydilar. Aslida, bayon rejasi qancha ko'p tuzilsa, o'quvchi mavzuni shuncha kengroq ochib berish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bayon yozish uchun 3 dars soati ajratiladi. **1-darsda** bayon mavzusi va matni tanishtiriladi. Bayon matni yuzasidan bahs-munozara tashkil qilinib, o'quvchilarning fikr va mulohazalari tahlil qilinadi. Bayon rejasi tuziladi. 5- va 6-sinflarda o'quvchilarning bayon uchun reja tuzish malakasi yetarli darajada bo'lmaganligi sababli (7- va 8-sinf o'quvchilarining ham ba'zilarida bu holat kuzatiladi) reja tuzishda o'qituvchi ko'maklashadi. O'quvchilarga reja tuzishda nimalarga e'tibor berish kerakligi tushuntiriladi. Bunda o'quvchi quyidagi shartlarga e'tibor qaratishi lozim:

a) avvalo, e'tibor matn mazmuni va uning yetakchi g'oyasiga qaratilishi;

b) matn ichidagi har bir yangi mazmundagi fikrga shu fikrni aniq va to'liq ifodalab beruvchi jumlalar orqali yondashish;

d) reja qisqa va lo'nda, ammo keng ma'noni ifodalovchi jumlalardan iborat bo'lishi (ba'zan so'z birikmasi shaklida bo'lishi mumkin);

e) matn mavzusining (sarlavhasi) rejada aks etmasligi;

f) rejaning so'nggi qismi bayon mazmunini xulosalovchi fikrdan iborat jumla shaklida bo'lishi.

2-darsda o'quvchilar reja asosida bayonni yozib, tugatib beradilar.

3-darsda yozma ishlarning natijasi, ya'ni o'quvchilarning yozma ish bo'yicha olgan baholari e'lon qilinadi. Har bir o'quvchining yozma ishda yo'l qo'ygan xatolari birma-bir aytib o'tiladi. Shu tariqa yozma ish tahlili o'tkaziladi.

Bayonni tekshirishda xatolar quyidagicha chiqariladi:

1) uslubiy xatolarga daftar hoshiyasiga "w" belgisi qo'yiladi;

2) imloviy xatolarga daftar hoshiyasiga "I" belgisi qo'yiladi;

3) ishoraviy xatolarga daftar hoshiyasiga "v" belgisi qo'yiladi.

1. Quyidagi xatolar uslubiy xatolar hisoblanadi:

a) jumla noto'g'ri tuzilsa, masalan: *Navoiy she'rlari biz uchun tarbiyalidir. (Navoiy she'rlari biz uchun katta tarbiyaviy ahamiyatga ega);*

b) tarixiy voqealar haqida noto'g'ri ma'lumotlar berilsa. Ba'zan o'quvchilarda shunday holatlar kuzatiladi, masalan: *Mustaqillik davridan oldin o'zbek xalqi o'z tiliga ega emas edi.* Holbuki, xalqimiz o'z tilining sofligi, uning taraqqiyoti uchun azal-azaldan kurashib kelgan. (Davlat tili maqomi berilmasdan oldin ona tilimizga e'tibor kam bo'lgan);

d) ega va kesim shaxs-sonda moslashmasa: *Men do'stim bilan birga sayr qildik. (Men do'stim bilan birga sayr qildim);*

e) kelishik qo'shimchalari noto'g'ri qo'llansa: *Vatanim – **meni** faxrim. (Vatanim – mening faxrim). Biz bayramni shahar**ga** o'tkazdik. (Biz bayramni shaharda o'tkazdik);*

f) so'z ma'nosi yaxshi anglanmay ishlatilsa. *Ko'pincha o'quvchilar tomonidan ijodiy matn tuzilganda "bejiz aytilmagan" birikmasi "bejizga aytilgan" tarzida noto'g'ri qo'llash holatlari kuzatiladi;*

g) gap ichida so'zlardan birontasi tushirib qoldirilsa: *Terimchilar chanog'ida qoldirmasdan terib olishdi.* Bu gapda "paxtalarni" so'zi tushirib qoldirilgan va uslubiy xatoga yo'l qo'yilgan. *(Terimchilar chanog'ida qoldirmasdan paxtalarni terib olishdi);*

h) so'zlarning ma'nodoshlarini o'rnida qo'llay olmaslik: *birgina "Vatan" so'zini olaylik. Uning bir nechta ma'nodoshlari bor. Ona vatan, ona yurt, ona diyor, ona yer va hokazo. Ammo bu so'zlarning har birining gaplarda o'z o'rni bor. Masalan: "Serquyosh vatan" emas, "serquyosh o'lka" deyiladi. "Ona yer tarixi" emas, "Vatanim tarixi" deyiladi. Shuningdek, ko'pincha o'quvchilar vatan so'zi o'rniga xalq so'zini qo'llagan holatlarni uchratamiz: "Vatan ozodligi", "xalqimiz obodligi". Aslida esa "Vatan obodligi", "xalqimiz ozodligi" tarzida qo'llanilishi lozim.* Ba'zan esa shunday noto'g'ri jumlalarni uchratamiz: ***"Avlodlar** merosini o'rganaylik".* Aslida esa ***"Ajdodlar** merosini o'rganaylik"* tarzida aytilishi va yozilishi lozim. Shuningdek, o'quvchilarimiz paronim so'zlarni qo'llashda ham ba'zan yanglishadilar. Shuning uchun ham yozma ishlardan so'ng, albatta, bir soat dars yozma ish tahliliga ajratilishi maqsadga muvofiq.

2. Quyidagi holatlar imloviy xatolar hisoblanadi:

a) so'zlar imlo qoidasiga binoan yozilmasa: **x** va **h** undoshli so'zlar, **u** va **o'** unlilar ishtirok etgan so'zlarni bir-biri bilan almashtirib yuborish yoki so'zlarda jarangli va jarangsiz undoshlarni almashtirib yozish qo'pol imloviy xato hisoblanadi;

b) juft so'zlarni yozishda chiziqcha (-) qo'ymaslik;

d) chiziqcha bilan ajratib yoziladigan yuklamalar so'zlardan ajratilmay yozilishi: *bo'lsada – bo'lsa-da; keldiyu – keldi-yu; borginchi – borgin-chi; aytdimku – aytdim-ku; oldimu – oldim-u* va hokazo;

e) qo'shma so'zlar imlosiga amal qilmaslik: *uch tepa – so'z birikmasi; Uchtepa – joy nomi, qo'shma so'z; oq qush – oppoq qush, so'z birikmasi; oqqush – qush nomi, qo'shma so'z;*

f) bosh harf bilan yoziladigan so'zlar imlosiga amal qilmaslik: *ism, familiya, taxallus, joy nomlari, suv havzalari nomlari bosh harf bilan yozilmasa: rustam – Rustam, cho'lpon – Cho'lpon, samarqand – Samarqand, sirdaryo – Sirdaryo;*

g) qo'shtirnoq bilan yoziladigan so'zlarda qo'shtirnoq tushirib qoldirilsa: *O'tkan kunlar romani – "O'tkan kunlar" romani, Umid firmasi – "Umid" firmasi, Gulxan jurnali – "Gulxan" jurnali, Anata konfeti – "Anata" konfeti* va hokazo;

h) so'zlarda tutuq belgisi tushirib qoldirilsa: *davo – shifo; da'vo – arz; qala – o'tni (olovni) qala (kovla); qal'a – baland, mustahkam qurilgan inshoot;*

i) *ng, sh, ch* harf birikmalari satrdan satrga ajratib ko'chirilsa: *jaran-gdor – jarang-dor; pes-hayvon – pesh-ayvon; soc-hildi – so-childi.*

3. Quyidagilar ishoraviy xatolar hisoblanadi:

a) gap tugagandan so'ng gap mazmuniga asosan ishora belgisi (nuqta, so'roq, undov) qo'yilmasa;

b) qo'shma gap tarkibida kelgan sodda gaplar orasiga vergul qo'yilmasa *(ko'pincha 1-sodda gap kesimi -sa shart mayli bilan yoki ravishdosh -b, -ib, -gach, -kach, -qach shakllari bilan ifodalanganda yoki zamon va shaxs-son qo'shimchalarini olib ketma-ket ro'y bergan voqea-hodisani ifodalaganda shunday holatlar kuzatiladi)*;

d) uyushiq bo'laklar orasiga vergul qo'yilmasa;

e) ko'chirma gaplar qo'shtirnoqqa olinmasa;

f) ko'chirma gaplardan keyin, muallif gaplardan oldin vergul, tire qo'yilmasa;

g) undalma gap boshida kelganda undan keyin, gap o'rtasida kelganda har ikki tarafidan, gap oxirida kelganda undalmadan oldin vergul qo'yilmasa: *O'g'lim, darsingni qildingmi? Bugun, dadajon, teatrga boramizmi? Darsingni qildingmi, o'g'lim?*

h) kirish so'zlar gap boshida kelganda undan keyin, gap o'rtasida kelganda har ikki tarafidan, gap oxirida kelganda kirish so'zdan oldin vergul qo'yilmasa: *Albatta, do'stim bilan boraman. Ertaga, ehtimol, yomg'ir yog'ar. Bugun darsga boraman, albatta;*

i) dialog shaklidagi gaplar oldidan tire qo'yilmasa yoki muallif gapidan so'ng ikki nuqta qo'yilmasa:

Ota dedi:

– O'g'lim, darsingni qildingmi?

O'g'il javob berdi:

– Albatta, dadajon;

j) bayon yozishda reja so'zidan keyin ikki nuqta qo'yilmasa;

k) bayon yoki matn sarlavhasidan so'ng nuqta qo'yilsa;

l) juft yoki takroriy so'zlar orasiga chiziqcha (-) o'rniga tire (–) qo'yilsa.

Eslatma. Muayyan grammatik hodisa, shuningdek, imloviy, ishoraviy, uslubiy qoida bilan bog'liq nuqsonlar bir xil tipdagi xatolar hisoblanadi. Bir xil tipdagi xatolarning hammasi bitta xato sanaladi va baholash uchun mezon bo'ladi. Masalan:

– o'quvchi bayonda qaratqich kelishigi qo'shimchasini uch o'rinda noto'g'ri qo'llagan bo'lsa, bitta uslub xatosi sanaladi;

– agar o'quvchi uchta o'rinda ko'chirma gap boshidagi so'zni kichik harfda yozsa, bir xil grammatik hodisa bo'lgani uchun hammasi bitta imloviy xato hisoblanadi;

– agar o'quvchi kirish so'zlarning yozilishi bilan bog'liq bir xil oltita ishoraviy xatoga yo'l qo'ysa, hammasi bitta ishoraviy xato hisoblanadi (ayni qoida undalmalarga ham tegishli);

– agar o'quvchi bitta so'zning yozilishi bilan bog'liq besh o'rinda **h** o'rnida **x** yozgan bo'lsa, hammasi bitta imloviy xato hisoblanadi.

Bayon hajmi sinflar kesimida quyidagicha belgilanadi:

Matndagi so'zlar miqdori:

5-sinf uchun – 100–150; 6-sinf uchun – 150–200;
7-sinf uchun – 250–300; 8-sinf uchun – 300–350;
9-sinf uchun – 350–400 ta bo'lishi mumkin.

Quyida bayonni yozdirish uchun uch soatlik dars tartibini keltirib o'tamiz.

Darsning mavzusi: 1-nazorat ishi. Bayon.

Darsning maqsadi:

a) o'quvchiga ijodiy fikr mahsulini nutq vaziyatiga mos ravishda yozma shaklda to'g'ri bayon qilishni o'rgatish, o'rgangan grammatik bilimlarini amalda qo'llay olish malakasini sinash;

b) o'quvchilar ongiga vatanparvarlik, mehnatsevarlik, halol yashash, vijdonli bo'lish kabi fazilatlar, milliy qadriyatlarimizni singdirish, har bir inson maqsadiga o'z kuchi bilan erishishi kerakligini uqtirish;

d) og'zaki va yozma nutqni yanada chuqurroq shakllantirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish.

Shakllantiriladigan kompetensiyalar:

I. Xususiy kompetensiyalar:

– nutqiy (tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish): tinglangan matn, ko'rilgan lavhadagi asosiy axborot, voqea-hodisalarni tushuna oladi, so'z, atama, iboralarning ma'nosini tushunib, to'g'ri o'qiy oladi, so'z va gaplarni bog'lagan holda fikrini aniq va ravon yozma bayon qila oladi;

– lingvistik (fonetika, leksika, grammatika): talaffuz va imloda tovush o'zgarishlarini orfoepik qoidalar

nuqtayi nazaridan tahlil qila oladi, so'zlarning ko'chma ma'nosi, uslubiy xususiyatlari, atamalar va so'z turkumlarini farqlay oladi, ulardan nutqda to'g'ri foydana oladi.

II. Tayanch kompetensiyalar:

– kommunikativ: muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, ijtimoiy moslashuvchanlikni shakllantirish, jamoada samarali ishlay olish, o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda mustaqil ifodalay olish qobiliyatlarini shakllantirish;

– axborot bilan ishlash: mediamanbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olish va ulardan samarali foydalana olish, media madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirish;

– o'zini o'zi rivojlantirish: doimiy ravishda o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, o'z xatti-harakatini muqobil baholash ko'nikmasini shakllantirish;

– ijtimoiy faol fuqarolik: jamiyatda bo'layotgan voqea-hodisalarga daxldorlikni his etish, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish va ularga amal qilish layoqatlarini shakllantirish;

– milliy va umummadaniy: vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqati, halollik, mehnatsevarlik kabi fazilatlarni shakllantirish;

– matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish: aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, unumdorlikni oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan va texnika yangiliklaridan foydalana olish layoqatlarini shakllantirish;

Dars turi: yozma nazorat.

Darsda foydalaniladigan jihozlar: bayon matni, matn mavzusiga doir rasmlar, shiorlar, maqollar, hikmatli so'zlar yozilgan plakatlar, AKT vositalari.

1-dars.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.

Salomlashish, sinf xonasining tozaligi, o'quvchilarning tashqi ko'rinishiga e'tibor berish, ob-havo va kundalik yangiliklar haqida qisqa suhbat o'tkazib, o'quvchilarni darsga tayyorlash, sinf xonasida ijobiy muhit yaratish, davomatni aniqlash, yangi mavzuni e'lon qilish va yozuv taxtasiga yozib qo'yish – 10 daqiqa.

II. Yangi mavzu bayoni.

1. Bayon mavzusi va matni bilan tanishtirish. Bayon matni ikki marta ifodali qilib o'qib beriladi – 10 daqiqa.

2. Bayon matni yuzasidan savol-javob tarzida bahs-munozara tashkil etish – 10 daqiqa.

3. Bayon rejasini tuzish va har bir rejaga tushuncha berish – 12 daqiqa.

4. Darsni yakunlash va uyga vazifa berish – 3 daqiqa.

Uyga vazifa: bayon mavzusi yuzasidan ijodiy ish tayyorlash.

2-dars. Bayonni yozdirish.

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism.

O'quvchilar bilan salomlashish va sinf xonasining tozaligi, o'quvchilarning darsga tayyorligini nazorat qilish, kundalik yangiliklar yuzasidan qisqa suhbat, davomatni aniqlash, o'quvchilarning yozma ish daftarlarini tarqatish, dars shiori bilan tanishtirish – 6 daqiqa.

2. Sana, bayon mavzusi va rejasini yozuv taxtasiga yozib qo'yish va bayon matni yuzasidan qisqa suhbat o'tkazish – 5 daqiqa.

3. Bayonni yozish – 30 daqiqa.

4. Darsni yakunlash va uyga vazifa berish – 4 daqiqa.

3-dars. Bayon tahlili.

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism.

O'quvchilar bilan salomlashish va sinf xonasining tozaligi, o'quvchilarning darsga tayyorligini nazorat qilish, kundalik yangiliklar yuzasidan qisqa suhbat, davomatni aniqlash, dars shiori bilan tanishtirish – 6 daqiqa.

2. O'quvchilarning yozma ish baholarini e'lon qilish va uni jurnalga ko'chirish – 5 daqiqa.

3. Har bir o'quvchining bayonni yozishda yo'l qo'ygan xatolarini aytib o'tish, yozuv taxtasida o'quvchilar bilan ishlash; o'quvchilarga xato yozgan so'zlarini yozuv taxtasida yozdirish va so'zlarning xatolarini kuzatib turgan o'quvchilarga tuzattirish, shu so'zlar asosida o'quvchilarga mustaqil bajarish uchun turli topshiriqlar (gap tuzish, ularni morfologik va sintaktik tahlil qilish, so'zlarning ma'nodoshi, shakldoshi yoki zid ma'nosini topish kabi topshiriqlar bo'lishi mumkin) berish – 30 daqiqa.

4. Darsni yakunlash va uyga vazifa berish – 4 daqiqa.

Uyga vazifa: o'tilgan mavzularni takrorlash va mustahkamlash.

Umuman, maktab ona tili ta'limining bosh maqsadiga ko'ra dars mashg'ulotlari ta'lim oluvchida ijodiylik, mustaqil fikrlash malakalarini chuqurlashtirib, ijodiy fikr mahsulini nutq vaziyatiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda, to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilmog'i kerak. Bu muhim vazifani amalga oshirishda ona tili ta'limi jarayonida tashkil etiladigan turli yozma ishlarning, xususan, bayonning o'ziga xos o'rni bor.

[1]M.Abduraimova, G.Ziyodullayeva. Bayonlar to'plami. – Toshkent: Tafakkur, 2012.

Xolida TOJIYEVA,
Samarqand davlat universiteti o'qituvchisi

MATNNI SHARHLAB O'RGANISH

Odatda, kam qo'llaniluvchi so'zlar va atamalarning ma'no doiralari ancha tor bo'ladi. Shu ma'noda aynan mumtoz adabiyot namunalarida uchraydigan so'z va atamalarning iste'molda kam qo'llanilishi boy o'zbek adabiyoti tarixini o'rganishda ayrim muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda.

Tilshunos olimlar tomonidan berilgan ma'lumotlarga ko'ra eng boy, rivojlangan tillardan biri bo'lgan o'zbek tili zaxirasi yuz mingdan ortiq bo'lgani holda kundalik hayotda nutqda uch ming atrofida so'z ishlatilib, nutqimizda qo'llaniladigan so'zlar miqdori tilimizda mavjud so'zlarning bir qisminigina tashkil etar ekan.

Jahon tillarida 400 ga yaqin yozuv mavjud bo'lib, shulardan biri Sharqda keng tarqalgan arab yozuvidir. Bu yozuv o'z xazinasida arab, fors-tojik, qadimgi turkiy tillarda yaratilgan asarlar bilan bir qatorda o'zbek adabiyoti tarixi namunalarining ham salmoqli qismini saqlab kelmoqda. Tabiiyki, arab yozuvi tufayli Sharq xalqlari tillaridagi ayrim arabiy, fors-tojikcha so'zlar o'zlashib, o'zbek mumtoz adabiyoti tilining boyib borishiga hissa qo'shdi. Natijada bugungi yoshlar, o'quvchilar uchun tushunilishi qiyin bo'lgan murakkab matndagi asarni o'rganishda qiyinchiliklarga duch kelinmoqda. Shu o'rinda, bu murakkab matnlardagi manbalarni o'quvchilarga talab darajasida yetkazish uchun muqobil usullarga egamizmi, degan haqli savol tug'iladi.

Bilamizki, mumtoz adabiyot namunalari asrlar davomida ajdodlarimiz tomonidan mehr-muhabbat bilan o'rganib kelingan va o'quv maskanlarining dasturlariga kiritilgan. Adabiyotimiz qanchalik ko'hna tarixga ega bo'lsa, ularni o'rganishning usullari ham shunchalik qadimiy. Xo'sh, ajdodlarimiz tomonidan kashf qilingan usullar qanday nomlangan? Asrlar davomida yaratilgan o'qitishning sharqona usullari matndagi murakkabliklarni ochib berishga xizmat qilganmi? Shu masalani o'rganish asnosida manbalarga murojaat qilganimizda, turli-tuman o'qitish usullari mavjudligiga guvoh bo'lamiz.

Ma'lumki, Sharq adabiyoti namunalarining har satridan chuqur falsafiy, irfoniy, tarixiy, mantiqiy tushunchalar o'rin olgan. Asarlardagi bu ilmiy ishtibohlarning mazmunini sharh va izohsiz anglab olishning iloji bo'lmagan. Shu bois murakkab matnlarni, ehtiyojdan kelib chiqib, sharhlab o'qish usuli kashf etilgan. "Sharh" – asli arabcha so'z bo'lib, *ochish, bayon qilish, oshkor qilish, cheksiz* kabi ma'nolarni bildiradi. Sharhlab o'qish usuli tarixiy an'anaga ega bo'lib, uning ilk namunalaridan Qur'ondagi oyat va suralarni o'rganishda foydalanilgan. Keyinchalik tasavvufiy ma'nolar bilan boyitilgan badiiy adabiyot, xususan, she'riyatga xos diniy va dunyoviy qarashlarning o'zaro bir-biri bilan uzviy bog'liqligi an'anaviy sharhlash usuli orqali tushuntirib berilgan. Alisher Navoiy asarlariga oid lug'atlarda "sharh" so'zining ma'nosi "kengroq tushuntirish", "sharh aylamak", "sharh etmak" tarzida bayon etilgan. Ba'zi manbalarda sharh usuli "tadris" shaklida qo'llangan.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, sharhlash usuli faqat matnni o'rganishdangina iborat bo'lmay, balki asar mualliflarining o'zlari ham o'z o'quvchilariga asarlarini sharhlab berishga harakat qilishgan. Bu usulning Alisher Navoiy asarlarida qo'llanilganligi yuqorida aytilgan fikrni tasdiqlaydi. Adib "Lison ut-tayr" asarida yetti vodiy ta'rifini berar ekan, shunday yozadi:

Kim necha vodiy-u manzildir bu yo'l,
Emdi men sharh aylay-u sen voqif o'l.

Yoki shoir Farididdun Attorning "Mantiq ut-tayr" asarini o'qib, muallifning maqsadini anglagach, undan zavqlanganligini quyidagicha izohlaydi:

Zavqi ko'p xushhol etar erdi meni,
Sharhi oning lol etar erdi meni.

Demak, barcha o'qitish usullari qatorida sharhlash usuli ham ko'p yillik amaliy tajribalar asosida maydonga kelganligining guvohi bo'lamiz. O'zbek adabiyoti tarixi namunalari qadimgi arab, turk va fors-tojik she'riyatida erishilgan yutuqlar zaminida rivojlangan. Ular tomonidan yaratilgan har bir bayt ma'lum bir maqsadni yoritib berishni nazarda tutgan. Bu o'rinda, har bir so'zni o'z o'rnida qo'llash, unga badiiy san'at namunalari oqrali sayqal berish, uni ibora-yu ishoralar bilan bezash orqali tuyg'ular bayon qilinadi. Shunday ekan, mumtoz adabiyot namunalarida uchraydigan tushunilmagan so'zlarni sharhlash, urg'uli so'z, gap, ibora, ishora, tarixiy ma'lumotlarni manbalar asosida izohlash lozim bo'ladi. Masalan, iste'dodli hajvchi shoir Turdi Farog'iy hayoti va ijodi maktab dasturlariga kiritilgan. U o'zbek adabiyoti tarixida to'g'riso'zligi, tanqidiy qarashlari bilan eng jasoratli shoir nomini olgan. Shoir o'z hajviy she'rlarida tanqidiy fikrlarini, qarashlarini dadil, qo'rqmay ifodalaydi. Uning tesha tegmagan iboralari, hech kim ishlatmagan ta'sir vositalari, jonli xalq tilidan foydalanganligi yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi. Uning:

Tor ko'ngullik beklar, manman demang,
kenglik qiling,
To'qson ikki bori o'zbek yurtidir, tenglik qiling, –

kabi satrlari muhim ijtimoiy-siyosiy masalani ochiq-oshkor ifodalaydi, ya'ni o'z davrining amaldorlarini yakdillikka undab, o'zbek xalqini tashkil etgan urug' va qabilalarni "bir yoqadan bosh chiqarib" murosa qilishga chaqiradi.

O'qituvchi Turdi Farog'iy ijodini o'quvchilarga tahlil qilib berishi uchun, birinchidan, shoir yashagan davrning ijtimoiy-siyosiy hayotini yaxshi bilishi, xalqning etnografik manbalaridan xabardor bo'lishi talab etiladi. Shuningdek, raqamlar, turkiy urug'lar soni (to'qson ikki o'zbek yurtidur, birni qirq-u yuz, ming son bo'lib), shoir yashagan davr urf-odatlari, sinfiy tabaqalarning yashash tarzi, narsa-buyum, kiyim-kechak (bir ungurlik, bir terizlik, bir yaqo-yenglik qiling), geografik joy nomlarining izohi, turli sohaga, fanlarga oid atamalar sharhini berish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchi e'tibor berishi lozim bo'lgan yana bir jihat bu *bir* so'zining turli ma'nolarda ishlatilishi, iste'moldan chiqib ketgan yoki kam qo'llanilgan so'zlar, badiiy san'at turlarining izohlanishi. Bir qaraganda yuqorida keltirilgan izohtalab masalalarning yechimi osondek tuyuladi. Ammo buning uchun o'qituvchi kerakli manbalardan, etimologik, qomusiy lug'atlardan xabardor bo'lmog'i lozim. Bu manbalar o'qituvchining bilim doirasini oshirish barobarida mantiqiy fikr doirasini ham kengaytiradi.

Tabiiyki, sharhsiz, izohlarsiz o'qilgan matn o'z o'quvchisiga sir-asrorlarini ochmaydi. Faqat qayta-qayta o'qish va har bir so'z, ibora ma'nosini chuqur o'rganish asnosida maqsadga erishish mumkin. Chunki inson nutqiga fayz beruvchi so'z badiiy adabiyotda yanada ta'sirchan, go'zal tusda namoyon bo'ladi.

Bu usul o'quvchilarning matn bilan ishlash tajribasini oshiradi, matndan zavqlanish tuyg'usini shakllantiradi. Shuningdek, matndagi so'zlarni to'g'ri eshitib talaffuz qilish, yod olish xotirani mustahkamlaydi. O'quv dasturida o'rganilayotgan u yoki bu shoir ijodining farqli jihatlarini o'zaro qiyoslash ko'nikmasini hosil qiladi.

Nazarimizda, sharh asar matnini o'rganishga oid bo'lib, tom ma'noda adabiy tanqid yoki tadqiqot bo'lmay, balki matnni o'rganishning qadimiy sharqona usulidir. Taniqli metodist olim Ulug'bek Dolimov o'zining "Milliy uyg'onish pedagogikasi" nomli asarida sharh usuliga quyidagicha ta'rif beradi: *"...sharh beruvchilarni shorih deb ataganlar. Shorihlar mudarris-pedagog bo'lishi bilan birga o'z davrining bilim doirasi ancha keng olimlari ham bo'lganlar"*[1]. Ulug'bek Dolimovning bu e'tirofi va ta'rifi bugun o'quvchilarga adabiyot tarixi ilmidan saboq berayotgan o'qituvchilarga ham tegishlidir. Demak, asrlar davomida mudarris-o'qituvchiga qo'yilgan talab bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmasligi uchun shorihlarga xos, bilim doirasi keng olim bo'lmoqlik talab etiladi.

[1]U.Dolimov. Milliy uyg'onish pedagogikasi. – Toshkent: Nashr, 2012. 52-bet.

Norqul BEKMIRZAYEV,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
a'zosi, filologiya fanlari nomzodi,dotsent

BOBURNING BADIIY NUTQ MAHORATI



Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari badiiy nutqning go'zal namunasidir. Bobur o'zi hammabop yozishi bilan birga boshqalarga ham shunday ish tutishni maslahat beradi. Jumladan, o'g'li Humoyunga yozgan bir xatida birovga yuboriladigan maktubni muallifning o'zi bir necha bor o'qib ko'rishi lozimligi, uning ravonligiga, so'zlarning ko'zda tutilgan ma'noni to'g'ri aks ettirganligiga ishonch hosil qilishi, shundan so'nggina uni jo'natishi mumkinligini ta'kidlaydi. Uning yozishicha, so'zlarning xato yozilishi aytilmoqchi bo'lgan fikrni xiralashtiradi, o'quvchini qiynaydi: "...Yana men degandek, bu xatlaringni bitibsen va o'qimaysen, ne uchunkim, agar o'qur xayol qilsang edi, o'qiyolmas eding. O'qiyolmagandan so'ng, albatta, tig'yir bo'lur eding. Xatingni xud tashvish bila o'qisa bo'ladur vale asr-u mug'laqdur. Nasri muammoni hech kishi ko'rgan emas. Imlong yomon emas. Agarchi xili rost emas, iltifotni to bila bitibsen. Qulunjni yo bilan bitibsen. Xatoingni hud har tavr qilib o'qisa bo'lar-u, vale bu mutloq alfozingdin maqsud tamon mafhum bo'lmaydur. Takalluf qilmay deysan, u jihattin mutloq bo'ladur. Bundan nari betakalluf va ravshan va pok alfoz bila bit: ham senga tashvish ozroq bo'lur va ham o'qig'uvchiga".[1]

Bobur hayoti va sulolasini chuqur o'rgangan taniqli yozuvchi Pirimqul Qodirovning yozishicha: "Bobur Mirzo so'z bilan jonli tasvir yaratish mahoratini mukammal egallagan adib edi. Buni o'zi ham sezardi. Shuning uchun umrining oxirida o'g'li Humoyunga "Boburnoma"ni

tugallab taqdim etganda, unga bir ruboiy ilova qiladi:

Bu olam aro ajib alamlar ko'rdim,
Olam elidin turfa sitamlar ko'rdim.
Har kim bu vaqoe'ni o'qir, bilgaykim,
Ne ranj-u, ne mashaqqat-u, ne g'amlar ko'rdim"[2].

"Vaqoe'" – "Boburnoma"ning dastlabki nomi edi. Bobur o'z zamonida boshdan kechirgan barcha ko'rgiliklarni haqqoniy tasvirlashga intilganining sababi bu ruboiyda aniq ko'rsatilgan. Uning eng zo'r istagi – "Vaqoe'"ni o'qiganlar haqiqatni bilsinlar, u qilgan xatolarni takrorlamasinlar.

"Boburnoma" ham "Temur tuzuklari" kabi avlodlarga ulkan hayotiy tajriba, saboq va qisman vasiyat tarzida yozilgan edi.

Adibning Hindistonda tartib bergan so'nggi devonida uning dastxati saqlanib qolgan. Bu dastxat bilan ikki satr she'r yozilgan:

Har vaqtki ko'rgaysen mening so'zimni,
So'zimni o'qib sog'ingaysen o'zumni.

Ushbu satrlar bitilgan sahifa chetiga Boburning chevarasi Shohjahon tomonidan shunday sharh bitilgan: "Ushbu turkiy bayt jannatmakon hazrat Bobur podshohning o'z qo'llari bilan bitilgan dastxatidir.

Shohjahon binni Jahongir, binni Akbar, binni Humoyun, binni Bobur podshoh"[3]. Bu noyob sahifada biz ham Bobur mirzoning, ham Shohjahonning dastxatlarini ko'ramiz. Eng muhimi, buning mavzuga bevosita aloqador tomoni shundaki, Bobur so'z orqali odamning o'zini ko'rish mumkin, deb hisoblagan.

Albatta, so'zning shakli faqat qog'ozda ko'rinadi. Ammo so'z – tasvir vositasi ham. Bu tasvirda Boburning hayoti, boshidan kechirganlari, uning didi, fe'l-atvori, ichki kechinmalari – hammasi mavjud. Bobur shuni hisobga olib, "So'zimni o'qiganda o'zimni ko'rganday bo'lasan", deydi.

"Boburnoma"da 1506–1507-yillar voqealari orasida qish kunida Hirotdan Kobulga qorli dovondan oshib o'tib borish mashaqqati tasvirlanadi. Bir hafta davomida qor tepib yo'l ochib boradilar. Qor ko'krakka uradi. Otlar yurolmaydi. Dovon tepasida qor bo'roni kuchayib ketadi. Sovuq behad qattiq. Ba'zi bek va navkarlarning qo'l-oyog'ini sovuq uradi. Boburni tor bir tog' kamarida panalashga undaydilar. "Ko'ngulda kechdi kim, barcha el qorda va chopqunda, men issiq uyda istirohat bila... muruvvatin yiroq va hamjihatlikdan qiroq ishdur. Men ham har tashvish va mashaqqat bo'lsa ko'rayin, har nechuk el toqat qilib tursa turayin... Xuftongacha qor ancha chopqilab yog'diki, boshimga va quloqlarimning ustiga to'rt enlik qor bor edi... O'shal kecha qulog'imga sovuq ta'sir qildi... Andoqkim, barchaga o'lum xavfi bo'ldi", (256–258-betlar) – deydi Bobur dovon ustidagi xatarli ahvoli haqida. Yana shu og'ir vaziyatda u she'riyatdan madad oladi. Eng yetuk g'azallaridan birining matla'i o'sha mashaqqatli damlarda yoziladi. Bu haqida muallif o'zi shunday guvohlik beradi: "Muddatul umr (butun umr davomida) muncha mashaqqat kamroq tortilib edi". Bu matla' o'sha fursatda aytildi:

Charxning men ko'rmagan jabr-u jafosi qoldimu?
Xasta ko'nglim chekmagan dard-u balosi qoldimu?

Bu bayt – o'lim bilan yuzma-yuz turgan odam tomonidan yozilgan nazm durdonasi. Bobur qalbining o'sha paytdagi nidosi kishini larzaga soladi. G'azalning oxirgi bayti – maqtasi yanada kuchli taassurot uyg'otadi:

Ey ko'ngil, gar Bobur ul olamni istar qilma ayb,
Tangri uchun de, bu olamning safosi qoldimu?

"Boburnoma"da tasvirlangan voqealar tufayli Vatanidan judo bo'lgan, ulug' bir iste'dod egasini ham jonidan to'ydirgan paytlar bo'lganligi so'nggi baytda yaqqol sezilib turadi.

Ko'pgina adabiyotshunoslar Bobur ruboiylariga yuksak baho berishadi. Oybek domla Boburni turkiy ruboiyning Umar Xayyomi deb atagani ko'pchilikka ma'lum.

Chindan ham Bobur ruboiylaridagi mazmun va shakl mukammalligi, falsafiy fikr teranligi va badiiy til go'zalligi Umar Xayyom ruboiylari bilan bemalol musobaqalasha oladi.

Ko'ngli tilagan murodig'a yetsa kishi,
Yo barcha murodlarni tark etsa kishi.
Gar bu ikkisi muyassar o'lmasa olamda,
Boshin olib bir sorig'a ketsa kishi.

Bu ruboiyda birorta ortiqcha so'z yo'q. Nafaqat so'z va iboralar, balki alohida harflar va tovushlar she'riy vazn, turoq va qofiyalarga shunday mahorat bilan joylashtirilganki, birortasining o'rnini almashtirib bo'lmaydi. Masalan, "Boburnoma"ning ko'p joylarida "bo'ldi" yoki "bo'lmadi" so'zlari uchraydi. Ammo yuqoridagi to'rtlikda "muyassar o'lmasa" iborasidagi so'z "bo'lmasa" shaklida emas, "b" tushirib qoldirilib, "o'lmasa" shaklida ishlatiladi. Chunki "b" qo'shilsa, aruzning nozik ohangi xiyol buzilishi mumkin edi.

"Boburnoma"ni ingliz tiliga tarjima qilgan V.Erskin yozadi: "Bobur siymosining mislsiz belgisi – uning tabiiyligi, hayotiy va samimiyligidir. Osiyo tojdorlari orasida Bobur singari daho darajasidagi iste'dodli kishilar kamdan kam uchraydi".

Ko'rinadiki, nafaqat Boburning badiiy ijodi, hatto hayotining o'ziyoq ulkan saboq. Boshqacha aytganda, Boburda shoh va shoir sifati qanday uyg'unlashgan bo'lsa, uning ijod sarchashmasi bilan tashvishlarga to'la hayoti ham bir-biriga monand, chirmashib ketgan. Ularni ayricha tasavvur etish aslo mumkin emas. Boburning badiiy notiqlik mahorati uning asarlarida shundaygina "mana men" deb ko'rinib turadi. Uni faqat o'qib his etish mumkin.

---

[1] Boburnoma. – Toshkent: Fan, 1960. 421-bet.
[2] P.Qodirov. "Til" va "el". – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2005.
[3] S.Azimjonova. Boburning hind devoni. – Toshkent, 1966. 38-bet.

Adiba BOTIROVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ADABIYOT FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA O'YIN-TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH

Ta'limning bugungi vazifasi o'quvchilarni kun sayin oshib borayotgan axborot-ta'lim muhiti sharoitida mustaqil faoliyat ko'rsata olish, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iborat. Buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur. Shu sababli ta'lim jarayonini texnologiyalashtirishga aniq vazifalarni qo'ygan holda dars mashg'ulotlarining usul va vositalarini to'g'ri tanlash orqali shaxsning intellektual salohiyati va ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, tezkor ta'lim uchun shart-sharoit yaratish mumkin.

Shu bois o'qituvchilardan dars samaradorligini oshiradigan, o'quvchilar faolligini kuchaytiradigan texnologiyalarni qo'llash talab etilmoqda. Bunda, asosan, o'quvchilarda o'zaro raqobatni o'rnatish uchun adabiyot darslarida o'yin mashg'ulotlaridan foydalanish asosiy omil hisoblanadi. Chunki o'yin texnologiyasi o'quvchilar orasida faollikni yanada kuchaytiradi va mavzuga oid bo'lgan qiziqishni yanada oshiradi. Adabiy ta'limda asosiy faollik o'qituvchining o'zida mujassam bo'lishi kerak, shundagina o'quvchilar orasidagi faollikni ta'minlay oladi.

Bugungi kunda adabiy ta'lim jarayonida qo'llash nihoyatda qulay bo'lgan bir qator o'yinli texnologiyalar yaratilmoqda. O'yinli texnologiyalar nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlab, ularning amaliy malaka va ko'nikmalarga aylanishini ta'minlaydi, balki ta'lim oluvchilarda muayyan axloqiy-irodaviy sifatlarni ham tarbiyalashga yordam beradi.

D.B.Elkoninning fikriga ko'ra "xuddi shu oddiygina o'yin orqali o'sib kelayotgan bolaning tasavvuri ilk marotaba qaror topa boshlaydi". Izlanishlar o'yin – bu taraqqiyot kaliti, iroda hamda matonat maktabidir, degan fikrga olib keladi. Masalan, adabiyot darslarida quyidagi oyinlarni qo'llash mumkin.

"6X6X6" o'yinidan adabiy asar ustida ishlashda foydalanganda o'qituvchidan pedagogik mahorat va ziyraklik, guruhlarni oqilona shakllantira bilish talab qilinadi. Bu o'yinda talabalar olti nafardan guruhlarga bo'linadi. Guruhlarga muayyan nomlar beriladi. Dars mavzusi e'lon qilinadi, o'qituvchi guruh a'zolarini almashtiradi. Yangi guruhda avvalgi guruhdan bitta vakil qoladi va o'z guruhining mavzu yuzasidan chiqargan xulosalarini yangi guruhga bayon etadi. Yangi guruh a'zolari avvalgi guruhning fikr va xulosalarini o'rganadilar, ularga o'z munosabatini bildiradilar. Shu tariqa qisqa vaqt ichida o'quvchilar tomonidan mavzu yuzasidan fikr bildiriladi, bu fikrlar ularning o'zlari tomonidan tahlil qilinib, baholanadi.

"To'g'ri top" o'yini uchun ikkita plakat kerak bo'ladi. O'qituvchi birinchi plakatda biror maqol, tez aytish, alla, rivoyatning boshlanishini yozib qo'yadi, ikkinchisida esa ularning tartibini o'zgartirgan holda davom ettiradi. O'yinni "Xalq og'zaki ijodi janrlari" mavzusini o'tish jarayonida qo'llash samaralidir. O'yinni o'tkazishda dastlab auditoriyani o'yinga moslashtirish lozim. O'yin ishtirokchilari test yordamida saralab olinadi. Yuqori ball olgan o'quvchilar o'yinda ishtirok etish huquqiga ega bo'ladi. O'yin qatnashchilari 6–8 kishidan iborat bo'ladi. Qolgan talabalar esa o'yinni tomoshabin sifatida kuzatib turishadi. O'yin uchun mo'ljallangan savollar konvertga joylashtirib qo'yiladi. Guruh sardori savolni olib o'qituvchiga beradi. O'qituvchi savolni o'qib eshittiradi. Javobni aniqlash uchun bir daqiqa vaqt ajratiladi. Bu vaqt orasida o'yin ishtirokchilari javobni maslahatlashib topishga harakat qilishadi.

"Kim biladi?" o'yinida o'quvchilar ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruh a'zolari biror she'rdan parcha o'qiydi. Ikkinchi guruh a'zolari esa she'rning muallifini aniqlaydi. So'ng ikkinchi guruh a'zolari she'r o'qiydi. Birinchi guruhdagilar esa she'r muallifini topadi. Har bir to'g'ri javob uchun yutuqli kartochkalarga ega bo'lishadi. Bu o'yindan biror shoir lirikasini o'rganishda yoki dars jarayonida talabalarni zeriktirmaslik maqsadida foydalanish ham mumkin.

Adabiyot darslarida bunday o'yin texnologiyalarini qo'llash, ulardan foydalanish yaxshi samara beradi. Ular orqali o'quvchilarning dunyoqarashi kengayadi, faolligi kuchayadi, bilim va ko'nikmalari mustahkamlanadi, eng muhimi, adabiyot darsiga, badiiy adabiyotlarni o'qishga qiziqishi kuchayadi. O'yinli darslar mustaqil fikrlash, ijodkorlik, faollikka undaydi.

Xulosa qilib aytganda, ta'limning sifati uni berishda ishtirok etuvchilar salohiyati va o'quv jarayonining darajasiga bog'liq.

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI
LANGUAGE AND LITERATURE

Durdona RASULMUHAMEDOVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti

AMIR TEMUR OBRAZINI YARATISHDA TARIXIY RIVOYATLARNING AHAMIYATI

Serqirra faoliyat sohibi, jahon xalqlari tarixida katta rol o'ynagan Amir Temur haqida turli talqin-u tavsiflar va ko'p hollarda bir-biriga zid qarashlar-u konsepsiyalar vujudga kelgan. XX asrning 90-yillariga qadar bu buyuk zot haqida yozilgan badiiy asarlarga nigoh tashlansa, aksariyat hollarda Amir Temur obrazi faqat salbiy jihatdan tasvirlanganligini ko'rish mumkin. Faqat tariximizning o'rta asrlariga oid nuqtalarini yaxshi bilgan A.Qodiriy, A.Fitrat, S.Ayniy, Oybek, M.Shayxzoda, M.Osim, O.Yoqubov, P.Qodirov kabi ijodkorlargina Amir Temur siymosini imkoni boricha, ya'ni hukmron sho'rolar mafkurasi ko'targanicha, ijobiy jihatdan aks ettirishga harakat qildilar.

Istiqlol tufayli o'zbek adabiyotida Amir Temur obrazini yaratishga bir qancha shoir, adib va dramanavislar o'zlarining ulushlarini qo'shdilar. Biz o'zbek temurnomasining istiqlol davri dramaturgiyasidagi badiiy qamrov darajasini ikkita dramatik asar tahlili misolida tadqiq etishga jazm qildik. Bular O'zbekiston xalq shoiri, O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripovning besh pardali "Sohibqiron" va O'zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubovning ikki parda, to'rt ko'rinishli "Fotihi muzaffar yoxud bir parivash asiri" dramalaridir.

Endi savol tug'iladi: Abdulla Oripov iste'dodli shoir, Odil Yoqubov esa benazir nosir bo'lsa, nega ular Amir Temur haqida doston yoki roman yozmay, aynan drama janriga murojaat etdilar? Bizningcha, Amir Temur hayoti va faoliyatining jahonshumul ahamiyati haqidagi tarixiy, ilmiy va badiiy ma'lumotlarni sinchiklab o'rganish, muayyan badiiy-konseptual to'xtamga kelish, sof liro-epik yoxud epik planda yirik tarixiy va badiiy haqiqatni to'la uyg'unlikda umumlashtiruvchi asar yaratish uzoq muddatni qamrab oluvchi ijodiy jarayonni talab etar edi. Drama esa o'zining qator xususiyatlari bilan butun hayoti dramatizmga to'la Amir Temurdek jahongir shaxs hayotini sahnada jonlantirish orqali uning dunyo xalqlari taqdirida tutgan o'rni va rolini nisbatan to'laroq aks ettirishga qodir janr ekanligini har ikki adib ham nozik ilg'adilar.

Shoir Abdulla Oripov dramadagi badiiy tasvirni yanada kuchaytirish maqsadida asarga tarixiy rivoyatlardan birini tuzatishlar bilan kiritadi. Ma'lumki, rivoyatlardan birida aytilishicha, Amir Temur mashhur fors-tojik shoiri Hofiz Sheroziyninig:

Agar ko'nglumni shod etsa o'shal Sheroz jononi,
Qora holiga baxsh etgum Samarqand-u Buxoroni, –

baytini eshitib, men bu ikki shaharni obod etish uchun dunyoni bosib oldim, u bo'lsa ularni sherozlik bir go'zalning qora xoliga hadya etibdi, deb g'azablangan ekan. A.Oripov ana shu tarixiy rivoyatni drama ruhiga mos holda qayta ishlab, o'z asariga kiritadi. Ijodkorga xos mahorat shunda ko'zga tashlanadiki, rivoyatdagi Hofiz hadyasidan g'azablangan Amir Temur dramada shoirlardagi xayol kuchidan, badiiy fantaziyadan miriqib kuladi:

Temur:
Shirin xayol bandasisiz,
Ey siz shoirlar.
Men rostini aytsam, agar yor xoli uchun
Shahar emas, jonni nisor aylamoq darkor.
Gapning asl indallosin eshiting endi:
Bizning ulug' shaharlarni baholash uchun
Bundan ortiq tashbeh bo'lmas, tasanno Sizga,
Endi bir bayt hadya qilsin sizga Temur ham:
O'z lafzidan tinglash uchun Hofiz she'rini,
Qayta boshdan zabt etardim Sheroz yerini.[1]

Rivoyatda aytilgan Amir Temur bilan Hofiz Sheroziy uchrashuvi tarixan bo'lmagan hodisa. Dramadagi ushbu fakt adabiyot va folklor munosabatlaridagi sintez hodisasining eng yorqin namunasidir.[2] Bu quyidagilar bilan tasdiqlanadi: birinchidan, real tarixda yuz bermagan voqea dramada aniq yuz bergan voqea sifatida ishonchli tasvirlangan. Ikkinchidan, rivoyat yechimi va g'oyaviy yo'nalishi dramada butunlay qayta ishlab berilgan. Mana shu ikki holat tarixiy dramaga kiritilgan rivoyat sujetining tabiiy uyg'unlikda drama sujetiga singib ketishiga imkon bergan. Bu singish sof badiiy hodisa darajasiga ko'tarilganligi sababli tomoshabin va o'quvchi aslida shunday tarixiy voqea yuz bermaganligiga ishonqiramay qoladi.

Tarixiy drama sujeti tarkibida sof tarixiy material bilan badiiy to'qima shu darajada sintezlashar ekan, bu ijodkorning mahorati yuksakligi, o'zi tanlagan mavzu bo'yicha ulkan material to'plaganligi va ulardan o'rinli foydalana olganligidan dalolat beradi.

Yozuvchi Odil Yoqubov o'z dramasida o'zgacha yo'ldan boradi. Dramaturg asardagi yetakchi konflikt uchun xalq orasida keng tarqalgan Bibixonim (Saroymulkxonim) haqidagi rivoyatni tanlagan.

Rivoyatlarga ko'ra Saroymulkxonim o'z jamg'armasidan bir madrasa qurish uchun Amir Temurdan ruxsat oladi. Ijozat berilgach, otasi Qozonxondan sovg'a tarzida olgan bir juft olmos baldog'ini sotib, uning puliga

madrasa qurishni boshlaydi. Qurilish ketayotgan paytda u tez-tez kelib, ustaboshilarga ko'rsatmalar berib turadi. Madrasa bitay deb qolganda ustaboshi Bibixonimning aql-zakovati, husn-u kamoliga ofarin aytadi. Bu narsa tez orada mish-mishlarga aylanib ketadi.

Kunlarning birida Saroymulkxonim o'zining xos kanizlaridan biri orqali ustaboshiga yetti xil rangga bo'yalgan tuxumlarni berib yuboradi. Kaniz ustaboshiga shu tuxumlarni yeb, har birining mazasini ayirib berishi lozimligini aytadi.

Ustaboshi tuxumlarni ko'rib, malika nimaga sha'ma qilayotganligini tushunib yetadi. Shu kunlarda Amir Temur Samarqandga yetib kelarmish, degan xabar tarqaladi. O'zi haqidagi mish-mishlardan qo'rqqan ustaboshi ikki qanot yasab, ularni o'ziga bog'lab, pastga qarab uchadi va boshi bilan yerga qadalib vafot etadi.

Ushbu rivoyat xalq o'rtasida bir nechta variantlarda tarqalgan. Ulardan birida bosh me'mor Bibixonimning husni, aql-zakovatiga bosh egib, unga oshiqi beqaror bo'lganligini izhor etadi. Bundan g'azablangan Saroymulkxonim uni o'limga hukm etmoqchi bo'ladi. Biroq bosh me'mor qatl etilsa, uzoq, xatarli yurishdan muzaffar qaytayotgan Sohibqironga atab qurilayotgan masjidi jome' bitmay qolishi mumkin. Sohibqironga katta bir sovg'a qilish ishtiyoqi bilan to'lib toshgan Bibixonim bosh me'morga yuzidagi hijob ustidan bir bo'sa berishga ko'nadi. Me'mor o'pgan joy esa qorayib qoladi. Bu voqea saroyda katta mish-mishlarga aylanib ketadi. Natijada me'mor bitib qolgan jome' masjidining peshtoqidan o'zini pastga otib halok bo'ladi.

Drama asosidagi folklor materiali bevosita mana shu rivoyatdan iborat. Aslida Sohibqironning sevimli, oqila rafiqasi Suluvko'z obrazining prototipi Saroymulkxonim bo'lib, Amir Temur Ankuriya jangidagi g'alabasi paytida ov qilib yurgan chog'ida Suluvko'zning xos kanizi Saragul chopar qiyofasida Sohibqiron huzuriga boradi. U, birinchidan, Sohibqironga mish-mishlarni yetkazish orqali Suluvko'zning begunohligini ma'lum qilish, ikkinchidan, Amir Temurning saroyboni, o'z sevgilisi Qalqonbek bilan diydorlashishni ko'zlaydi. Saragulning xabarni eshitgan Sohibqiron shayx Nuriddinni Samarqandga yuboradi. Shu bilan birga u oxirgi hukmni o'zi qilajagini shayxga tayinlab yuboradi. O'z qilgan aybiga iqror bo'lgan Suluvko'z esa Amir Temur Samarqandga qaytgan paytda o'zini ko'shkdan tashlab halok bo'ladi. Suluvko'zning bunday fojiali o'limi dramada o'zini to'la oqlaydi. Chunki, birinchidan, Suluvko'z bilan me'mor o'rtasidagi voqea haqida saroyda har xil mish-mishlar tarqalib ketgan edi. Suluvko'z o'zini Amir Temur qoshida hech qanday yo'l bilan oqlay olmas edi. Shu bois u o'limni ma'qul ko'rdi. Ikkinchidan, Amir Temur uning gunohidan o'tgan taqdirda ham Suluvko'z yuzidagi dog'ni hech nima bilan oqlay olmas edi. Bu tamg'a esa o'zi bilan Amir Temur o'rtasida faqat qon bilan yuviladigan gunoh edi.

Demak, O.Yoqubov dramasidagi yetakchi konflikt Suluvko'z voqeasi bilan bog'liq bo'lib, dramaturg ko'pgina tarixiy faktlarga o'ta aniqlik bilan yondashmaydi. Masalan, Amir Temur va Yildirim Boyazid haqidagi barcha tarixiy manbalarga ko'ra mag'lub bo'lgan Sultonni bandi holida Sohibqiron huzuriga olib keladilar. O.Yoqubov dramasida esa sulton Boyazid izhori ixlos qilish niyatida Sohibqiron qarorgohiga keladi.

Sulton Boyazid va Amir Temur o'rtasidagi tarixiy uchrashuvga nisbatan dramadagi tasvir mos kelmaydi. Biroq bunday nomutanosiblik dramada o'zini oqlagan. Chunki bu uchrashuvdagi Sohibqiron bilan Boyazid o'rtasida bo'lib o'tgan muloqot vositasida Amir Temurning butun hayoti davomida olib borgan kurashlari, to'kilgan qonlarning sabablari ochib beriladi; ko'p vaqtlar qonxo'r, talonchi deb tamg'a bosilgan Sohibqironning nomi oqlanadi.

Ma'lum bo'ladiki, aniq folkloriy talqinga ega bo'lgan asarda tarixiy materialni istagancha erkinlikda qo'llashning imkoni ko'p ekan va bunda har qanday talqin, har qanday tasvir tarixiy drama talablariga mos kelaverar ekan.

Tarixiy manbalardan ma'lumki, to'y-tantanalar, xorijiy elchilarni qabul qilish Sohibqironning Koniguldagi bog'ida bo'lib o'tadi. A.Oripov bu tantanalarning bir qismini Registon maydoniga ko'chiradi, ya'ni uning asarida Sohibqiron nabiralariga shu maydonda oq fotiha beradi va mamlakatdagi adolatli boshqaruvga xilof ish qilganlarni shu maydonda elning ko'zi oldida jazoga buyuradi. Bu bilan dramaturg Amir Temurning hukmdor sifatidagi eng buyuk fazilati – adolatli amir ekanligini namoyish etadi. Biroq adib tarixiy voqealar mohiyatini berishda tarixiy manbalar doirasidan chiqib ketmaydi. U Bibixonimga Konigilga borib to'yga hozirlik ko'rishni buyuradi. Bu bilan dramaturg asosiy to'y-tantanalar Registonda emas, balki Konigilda bo'lib o'tganligiga ham ishora qiladi.

A.Oripov hamda O.Yoqubov dramalarini qiyosiy o'rganish shuni ko'rsatadiki, har ikki ijodkor ham Amir Temur hayotining eng muhim davrlarini drama janrining talablari doirasida aks ettirishga to'la erishganlar. Natijada A.Oripov dramasida Amir Temur yirik markazlashgan davlat boshlig'i, o'tkir harbiy strategiya va taktika nazariyotchisi, din va millat rahnamosi, mohir diplomat, g'amxo'r oila boshlig'i, talabchan va qattiqqo'l ota, mehribon bobo, insof va adolat homiysi qiyofasida namoyon bo'ladi. O.Yoqubov dramasida esa u otashin, sadoqatli oshiq, yirik davlat arbobi, iste'dodli lashkarboshi kabi xislatlar sohibi sifatida tasvirlangan.

Xulosa qilib aytganda, ikkala drama ham istiqlol davri o'zbek dramaturgiyasida Amir Temur obrazining badiiy inkishofi nuqtayi nazaridan alohida qimmatga ega deyishga to'la asosimiz bor.

---

[1] A.Oripov. Sohibqiron. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1996. 86-bet.
[2] B.Sarimsoqov. Folklorizmlar topologiyasiga doir // "O'zbek tili va adabiyoti", 1980. 4-son. 44–54-betlar.

Dilfuza ZARIPOVA,
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti mustaqil izlanuvchisi

"HAR SO'ZNI ANDISHA BILA BOSHLAG'IL..."

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari – pand-nasihat, o'git, ta'lim-tarbiya va axloq haqidagi aql va hikmat darsligi. Muallif o'z asarida davr o'rtaga tashlagan barcha masalalarga, jumladan, ijtimoiy munosabat, jamiyat a'zolari o'rtasidagi aloqa, axloq va odob to'g'risida hayotiy tajribalarga asoslangan holda bayon qiladi. Asarda oddiy avomdan tortib eng oliy mansabdor-elig xonlar, xoqonlar – barcha tabaqa va toifalar, ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi o'zaro munosabat, muomala, axloq normalari qanday bo'lishi kerakligi haqida fikr yuritilgan. Biz quyida "Qutadg'u bilig" asaridagi til odobi haqidagi qarashlarni g'oyaviy va badiiy jihatdan tahlil qilamiz:

Uqushqa biligke bu tilmechi til,
Yaruttachi erni yoriq tilni bil[1].
Uquvga, bilimga tilmoch – bu til,
Kishini ro'shnolikka chiqargan ravon til deb bilgin.

Ushbu misralarda tanosib va qaytarish san'ati qo'llangan. "Shoirning mantiqan o'zaro bog'liq va bir-birini taqozo etadigan so'zlardan foydalanishi tanosib deyiladi"[2].

Uquv, bilim so'zlari tanosib san'atini yuzaga keltirgan. "Mumtoz she'riyatda bayt misralarning uchtadan qismi ajratilgan. Birinchi misraning boshlanishi – ***sadr***, oxiri – ***aruz***, ikkinchi misraning boshi – ***ibtido*** va oxiri – **zarb** yoki **ajuz**, misralarning o'rta qismi **hashv** deyilgan:

Sadr hashv aruz,
Ibtido hashv ajuz (zarb).

Qaytarish san'ati baytdagi mazkur o'rinlardan biridagi so'zning yana boshqa bir o'rinda takrorlanishiga asoslanadi. Qaytarishning asl nomi radd-ul ajuz, ulas-sadr yoki radd-ul ajuz min-as-sadr bo'lib, sadrdagi so'zni ajuzda takrorlash, qaytarish ma'nolarini beradi. Zero, "rad" arabcha "qaytish" degan ma'noni bildiradi."[3]

Bu misralarda "til" so'zining takrorlanishi radd-ul aruz ulal-hashvni yuzaga keltirgan.

Til arslan turur ker eshikde yatur,
Aya evlug arsiq bashinni yeyur.
Til qafasda yotgan arslon kabidir,
Ey, qafasdagi vahshiy boshingni yeydi, –

misralarida tashbeh (*arslon kabi) va nido (ey) san'ati qo'llangan.*

Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" ("Haqiqat sovg'alari") asarida o'zidan oldingi didaktik adabiyot an'analari izchil va ijodiy davom ettirilgan. Asarda ma'rifat g'oyalari tashviqi yetakchi o'rin tutadi. Biz quyida "Hibbat ul-haqoyiq" asaridagi til odobi haqidagi qarashlarni g'oyaviy va badiiy tahlil qilamiz:

Tiling bekta tutgil, tishing sinmasin,
Qoli chiqsa bekta tishingni siyur.
Tilingni tiyib yur, tishing sinmasin,
Tilingni tiymasang, tishing sindirar.

Bu yerda tanosib san'ati qo'llangan (*til, tish),* radd ul hashv ulal hashv – *tish.*

Sonip so'zlagan er so'zi sog'i,
O'kush yangshag'on **til** ay olmas **yog'i.**
O'ylab so'zlaganning so'zi haqiqat,
Yomon til o'zingga dushman beshafqat.

Bu yerda o'rinsiz ko'p vaysagan til yovga o'xshatiladi – tashbeh san'ati qo'llangan.

O'kush so'zlaganda o'kungan telim,
Tilin beklaganda o'kungan qani.
Tiliga erk berish keltirar o'kinch,
Tilini tiyganning xotirjam dili.

Bu yerda takrir san'ati qo'llangan (o'kush).

Shu davrning ajoyib fors adabiyoti namunalaridan biri "Qobusnoma"dir. Bu asar nasihatnoma tarzida yozilgan bo'lib, otaning o'g'liga qilgan pand-nasihatidan iboratdir. Ma'lumki, "Qobusnoma" 44 bobdan iborat bo'lib, adibning til odobi haqidagi qarashlari asarning "Suxandonlik bila baland martabali bo'lmoq zikrida" deb nomlangan yettinchi bobi va "Anushirvon pandlarini yod olmoq zikrida" deb nomlangan sakkizinchi bobida tavsif etilgan.

Asarda til haqida jumlada shunday deyiladi:

".....so'z ham to'rt navdur: biri, ***bilinmayturg'on va aytilmayturg'on***; ikkinchisi, ***aytilaturg'on va bilinaturg'on;*** uchinchisi, **ham *bilinaturg'on va ham bilishga zaruratsiz, ammo aytsa bo'laturg'on;*** to'rtinchisi, ***bilinaturg'on va aytilmayturg'on***. Ammo aytulmayturg'on va bilinmayturg'on undoq so'zdirki, dunyoning salohi unga bog'liqdir. Ul so'zdin aytguvchiga ham eshituvchiga ham ko'p naf yetar. Ammo bilinaturg'on biroq aytilmayturg'on undoq so'zdirkim, bir muhtasham odamning aybi senga ma'lum bo'lar. Lekin aql tariqidin xayolga kelsang, uni aytmoq besharmlikdur. Chunki aytsang, ul muhtashamning qahri yo u do'stning ozori senda hosil bo'lur, yoxud o'z boshingga ulug' sho'rish va g'avg'o paydo qilursan. Shul vajdin ham bul so'z bilinaturg'on, ammo aytilmayturg'on so'zdir. Bu so'zlarning yaxshirog'i ham **bilinaturg'on va aytilaturg'on so'zdur**".[4]

Biz quyida "Qutadg'u bilig", "Hibat ul-haqoyiq", "Qobusnoma" asarlaridagi til odobi haqidagi qarashlarni quyidagi jadval asosida qiyoslaymiz:

"Qutadg'u bilig"	"Hibat ul-haqoyiq"	"Qobusnoma"	O'xshashliklar	O'ziga xoslik
Tilning fazilati, foyda-zararlari haqi-da (3- bob)	Tilni tiyish va odob-axloq haqida (2-bob)	"Suxandonlik bila baland martabali bo'lmoq zikrida" (7-bob) va "Anushirvon pandlarini yod olmoq zikrida" (8-bob)	Didaktik ruh ustunligi	"Qutadg'u bilig" va "Hibat ul-haqoyiq"da til odobi bo'yicha maxsus bob ajratil-gan "Qobusnoma" da esa bunday fikrlar 7–8-boblarda aytib o'tilgan. Bu asarda pand-nasihatlar hi-koyatlar bilan asos-lab berilgan
So'zingga ehtiyot bo'l, boshing ketma-sin, Tilingga ehtiyot bo'l, tishing sinmasin	Tilingni tiyib yur, tishing sinmasin, Tilingni tiymasang, tishing sindirar	Har so'zni andisha bila boshlag'il, toki aytg'on so'zing-din pushaymon bo'lmag'aysan	"Qutadg'u bilig" va "Hibat ul-haqoyiq" asarida tanosib san'ati qo'llangan	"Qutadg'u bilig"da tarse' san'ati qo'llan-gan
Mendan senga ku-mush, oltin qolsa, Ularni sen bu so'zga teng tutmagin. Kumushni ishga sol-sang, tugaydi. So'zimni ishga tutsang, sen uchun kumush qozonadi	Yolg'on – sassiq piyoz, to'g'ri so'z – asal, Piyoz yeb sasima, bol ye har mahal. Yolg'on so'z – dard bo'lsa, to'g'ri so'z davo, Bu haqda shun-day deb to'qilgan masal	…sovuq so'z bir tux-umdur, undan dush-manlik hosil bo'lur.	"Qutadg'u bilig"da so'z oltin, kumushga, "Hibat ul-haqoyiq"da esa to'g'ri so'z – asal, davoga, yolg'on so'z esa sarimsoq piyoz, dardga qiyos-lanadi. "Qobusnoma"da yomon so'z – sovuq so'z tuxumga o'xsha-tiladi	"Qutadg'u bilig"-da tanosib, "Hibat ul-haqoyiq"da esa tazod, tashbeh san'atlari qo'llangan
Tug'ilgan o'ladi, Ko'r, nom-nishonsiz qoladi, So'zingni ezgu so'zla, o'zing abad o'lmagaysan	To'g'ri bo'l, to'g'ri yur, to'g'ri nom qozon, To'g'ri desin seni har bitta inson. To'g'rilik to'nin kiy, egrilikni qo'y, To'g'rilik to'nidan huzur topar jon	Agar xalq sening haqingda yaxshi so'z aytarin tilasang, xalq haqida yaxshi so'z aytg'il. Agar tiling uzun bo'lmog'in tilasang, qo'lingni qisqa qilg'il. Agar qadrli bo'lmoq tilasang, xalqning qadrini bilg'il	Uchala asarda ham to'g'ri bo'lib yashash va ezgu nom qoldirish haqida fikr aytilgan. "Qutadg'u bilig" va "Hibat ul-haqoyiq" asarida tazod san'ati qo'llangan	"Hibat ul- haqoyiq" asarida tazod, mukarrar, husni ta'lil san'ati qo'llangan

Qiyosni shu tarzda davom ettirish mumkin. Bu uchala asar turkiy xalqlarning tarixi, tili, ularning diniy, ijtimoiy-madaniy hayoti, adabiy an'analari va dunyoqarashlarini bilishda bebaho yodgorliklar qatorida turadi. Asarlardagi hikmatli so'zlar, pand va o'gitlar jamiyatimizdagi salbiy illatlarni, noqisliklarni, insonlar orasida uchraydigan ma'naviy qashshoqlikni bartaraf etishga yordam ko'rsatishi shubhasizdir.

[1] Yusuf Xos Hojib. "Qutadg'u bilig" (Nashrga tayyorlovchi Q.Kadrimov). – Toshkent, 1970. 85-bet.
[2] B.To'xliyev. Adabiyot. (Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik). – Toshkent, 2002. 274-bet.
[3] Арабско-русский словарь. Составитель Х.К.Баранов. Изд. 4, в двух книгах, I, 1970. – С. 369.
[4] O'sha manba.

Qo'chqor SIDDIQOV,
Jizzax viloyati Xalq ta'limi xodimlarini
qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy
markazi katta o'qituvchisi

MUMTOZ ADABIYOT XAZINASINING TILLA KALITI

XIV–XIX asrlar O'rta Osiyo xalqlari ibtidoiy maktablarida o'qitilgan darsliklar arab, fors, turkiy tillarda bo'lgan. Ibtidoiy maktab ko'rgan bola Hofiz, Sa'diy, Navoiy, Fuzuliy tillarini birday tushungan.

Biroq 1917-yilgi inqilobdan keyin respublikalarda maktab dasturiga rus tili majburiy kiritildi. Bora-bora mumtoz adabiyot namunalarini tushunishda muammo paydo bo'ldi. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari yuzlab nuqsonlar bilan nashr bo'laverdi, deyarli o'qilmadi yoki nomigagina o'qildi.

Hozir esa sho'ro davrida boshlangan tabdilchilikkina tuzuk davom etmoqda. Asliyatda o'qish muammoligicha turibdi. O'zbek mumtoz adabiyotining o'n asrlik adabiy xazinasidan bahramand bo'layotganlar ko'p emas. Chunki oliy filologik ta'lim talabaga o'zbek mumtoz adabiyotini yetarli saviyada o'rgatmaydi. Oliy ta'lim dasturida mumtoz adabiyot mavzusiga oz soat ajratilgan. Sohaga aloqasi yo'q fanlarga ajratilgan soatlar: "Soliq" faniga 76 soat, "Iqtisodiyot nazariyasi"ga 60 soat, "Dasturlash asoslari"ga 194 soat, "Dinshunoslik"ka 64 soat, "Matematika"ga 68 soat. Dars soatlarining joriy taqsimoti talabaga adabiyotchi bo'lish imkonini berishi dargumon.

Biz Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi xodimlari xorijiy va mumtoz adabiyot lug'atini o'rgatish muammosini o'rganib chiqdik. O'rta umumta'lim maktab o'qituvchisi mumtoz adabiyot lug'atini tegishlicha bilmaydi. Sababi, birinchidan, u oliy ta'limda o'rgatilmagan, ikkinchidan, o'qituvchida "Mumtoz adabiyot lug'ati" yo'q. Shuning uchun u adabiyot o'qituvchisi bo'laturib, mumtoz adabiyot namunalarini o'qimaydi.

Yaqinda "Akademnashr" nashriyotida chop etilgan "Mumtoz asarlar lug'ati" kitobining tuzuvchilari Erkin Rahmonov, Vahob Rahmonov va Mamlakat Latipovalar mumtoz asarlar lug'atini o'rganishning unumli usulini taklif qilishgan. Unga ko'ra "Mumtoz asarlar lug'ati"ni qo'lga olgan o'quvchi kitobni ilmiy asar singari boshidan oxirigacha o'qib chiqishi kerak. 542 sahifaga jamlangan 7–8 mingta so'zni kitobxon aytaylik bir haftadan o'n kungacha o'qib chiqsa, lug'atning asosiy qismi uning yodida qoladi. Ana shu ajoyib imkoniyat chet tilni o'rganuvchida yo'q, mumtoz adabiyotni o'rganuvchida bor. Izohtalab so'z ushbu lug'atda gap yoki bayt tarkibida keladi: Chunonchi **"burch"** so'ziga murojaat etaylik:

1. Burchak, go'sha:

Bir oqshom yotib kemaning burchig'a,
O'qib "Valohavl" suv mavjiga. (Xiromiy)
Bu imoratning to'rt burchida to'rt minordek burjlar qo'porubturlar. ("Boburnoma")

2. Og'izning bir cheti. Og'iz miyig'i:

Boyo'g'lining og'zini bir burchidan chiqar. ("Zarbulmasal")

3. Qarz:

Burch etib-u sarf etib itlof ila,
Barchani aylab talaf isrof ila. ("Hayrat ul-abror")

Ushbu materiallar o'qilganda lug'attalab so'z gap tarkibida kelgani uchun darhol o'quvchi xotirasiga izohi bilan joylanadi. So'zni takrorlab yodlash singari unumsiz jarayon bunda ortiqchadir.

Mazkur yangi lug'at o'zining bir necha xususiyati bilan diqqatga sazovordir. Birinchidan, lug'attalab so'zni izohlashda ma'nodoshlari ko'proq keltirilgan (bu ham o'quvchi so'z boyligini oshiradi, masalan: razm – urush, jang, olishuv, kurash (373-bet)). Ikkinchidan, lug'at berilayotgan so'zning tushuncha-ma'nolari ko'proq berilgan. Chunonchi, "Mumtoz asarlar lug'ati"dan "ravon" so'zining sakkizta ma'nosini o'qiymiz:

1. Tez:

O'z mulkingizga azm etingiz,
Jon keraklik esa ravon ketingiz. ("Sab'ai sayyor")

2. Darhol:

Bu farni hodii baxt etgach irshod,
Ravon shahzoda otin qo'ydi "Farhod". ("Farhod va Shirin")

3. Jo'natmoq:

Har ne ish bo'lg'oni bayon etti,
Shoh Nu'mon sori ravon etti. ("Sab'ai sayyor")

4. Yuruvchi:

Ey sarvi ravon, nadur xayoling?
Jon o'rtadi va'dai visoling. (Navoiy)

5. Oquvchi (obi ravon – oqarsuv).

Ishq shartidan emas sirri muhabbat bo'lsa fosh,
Qo'rqaman qo'zdan sirishkimni ravon aylay desam.
(Muqimiy)

6. Jon:

Ravon baxsh aylar o'lgan elga zahri furqating birla
Labi la'ling suyikim obi hayvondek zilol ermish.
(Munis)

7. Qimmatbaho:

Zolni anjum kabi siymi ravon,
Zoli falakdek qilibon navjavon. ("Hayrat ul-abror")

8. Puxta, mukammal:

Mir Sayyid Hasan Abivardiy Iroqda 6–7 yil qolib, arabiy tilni ravon qilib, Xurosonga keldi.
("Majolis un-nafois")

Misollardan ko'rinadiki, "Mumtoz asarlar lug'ati" o'rta umumta'lim maktabi, akademik litsey va kollejlar dasturi va darsliklari asosida yozilgan.

Uchinchidan, diniy, tarixiy, adabiy dalillar keltirilib so'zlar sharhlangan.

Chunonchi, bodraftor – 1. "Ayyor Samak" nomli xalq

kitobi timsollaridan biri, mashhur izquvar. 2. Shamolday tez yuradigan.

"Hoji kesal" o'g'li Bodraftor,
Dog'ulikka, pand berur Kamakka. ("Ahli rasta" she'ri)

To'rtinchidan, lug'at tuzuvchilar bir qancha so'zlarni asl-sahih holiga qaytarishga uringanlar va lug'atlarda xato berilayotgan so'zlarning to'g'ri shaklini qayd etish payida bo'lganlar, chunonchi, *ihtishom-ehtishom, ihtimom-ehtimom, xo'b-xub*. Hatto ayrim so'zlarni matnshunoslik nuqtayi nazaridan isloh qilib, misol sifatida olganlar. Masalan, o'ttiz yildan buyon quyidagi baytda "birranglik" so'zi "beranglik" tarzida nashr etib kelingan edi:

Birranglik – bir tusli, sidirg'alik, sobitlik.

Faqr aro birranglik dushvor erur behad valek, xirqada tikmak erur oson qizil, soriq yashil. (Navoiy)

Umuman olganda "Mumtoz asarlar lug'ati" bugungi ta'lim taraqqiyoti zamonida nafaqat maktab o'quvchisi, o'qituvchisi, akademik litsey, kasb-hunar kollej o'quvchilari, balki adabiyot ta'limiga ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilari, universitet va pedogogika institutlari talaba va professor-o'qituvchilari uchun ham zarur qo'llanmadir.

Ra'no YAXYOYEVA,
Sirdaryo viloyati Xovos tumanidagi
10-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

MUTOLAA KUNDALIGI QANDAY TUTILADI?

O'qish – eng yaxshi ta'lim. O'qishsiz haqiqiy bilim yo'q. U tafakkurni chuqurlashtiradi. Yaxshi, qiziqarli kitob ko'p bilim beradi, ko'p va yaxshi fikrlarni uyg'otadi. Goho odam yaxshi bir kitobni o'qib tugatganida ruhiyatida o'zgarish yuz berganini, hayotga boshqa ko'z bilan qaray boshlaganini his etadi. Yaxshi kitob o'qigan odam boshqa aqlli inson bilan suhbatlashgandek bo'ladi, u olijanob maslahatlar beradi, bizning jonli do'stimizga aylanadi. Yaxshi kitobni o'qish bilan odam o'zini yanada kuchli, bilimli, nomus va oriyatli sezadi.

"Taraqqiy etgan xorijiy mamlakatlarda – kitobxonlik fan darajasiga ko'tarilgan. Kitobxonlik kitobni targ'ib qilishgina emas, balki kitob o'qishni, o'qiladigan kitobni tanlay olishni, mag'zini chaqishni, ya'ni kitob yordamida o'zini anglashni o'rgatish hamdir", – deb yozadi yozuvchi Xudoyberdi To'xtaboyev.

Badiiy asar inson ruhiyatiga ta'sir qilib, uni ezgulik sari boshlaydi. Buni his qilgan bobolarimiz o'z farzandlarini kitobga oshno qilib tarbiyalashgan. Kitob mutolaasi o'quvchi fikrini yanada charxlaydi, miyani quvvatlantiradi, Vatanga muhabbat tuyg'ularini tarbiyalaydi. Kutubxonalarda milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz haqidagi buyuk ajdodlarimizning badiiy, ilmiy, tarbiyaviy asarlari saqlanib kelinmoqda. Hozirgi zamon o'qituvchisi o'quvchilarni ko'proq kutubxonalarga jalb qilib, badiiy adabiyotlar o'qitib, ularga kitob qalbni yorituvchi nur ekanligini anglatishi, o'qish, o'qiganlarini aytib berish, munosabat bildirish orqali nutq madaniyatini o'stirish mumkinligini uqtirishi lozim. O'qituvchi o'quvchilarning qiziqishlariga qarab kitob tanlay olishi, mustaqil o'qib borishini nazorat qilishi, bu borada ularning maslahatgo'yi, sirdosh do'stiga aylanishi lozim. Chunki bugungi axborot oqimi ularning qiziqishini boshqa, foydasiz ermaklar tomon burib yuborishi mumkin. Shuning uchun o'qituvchi o'quvchining darsda o'zlashtirgan bilimlaridan tashqari qo'shimcha adabiyotlarni mustaqil mutolaa qilish jarayoni monitoringini ham muntazam olib borishi kerak. O'quvchilardan mustaqil o'qib o'rgangan kitoblarining ro'yxatini yozib borishni talab qilish, buning uchun ularning shaxsiy kundalik daftar tutishini yo'lga qo'yish yaxshi natija beradi. O'qituvchi bu kundalik daftarni ham muntazam baholab boradi. Undagi baholar uchun bola ota-onalar homiyligida olingan sovg'alar – yangi kitoblar bilan rag'batlantirib borilsa, nur ustiga nur bo'ladi. Baholash va rag'batlantirishda xolislik juda muhim. Shu bois baholash mezonlari puxta ishlab chiqilishi kerak.

O'quvchilarda kitobga mehr uyg'otish uchun ota-onalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirib borish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-onalar majlisida kitobxonlik yuzasidan suhbat olib borish, kitoblar ko'rgazmasini tashkil etish, ota-onalardan so'rovnomalar olish mumkin.

O'quvchilarni badiiy adabiyotga qiziqtirish, nozik didli kitobxonni tarbiyalashda badiiy matn tahlilining o'rni beqiyos. Muhokama chog'ida badiiy asarni o'qish, tushunish va tushuntirish, tahlil qilish kompetensiyalari rivojlantiriladi. Badiiy asar o'quvchilarga turli davrdagi hayotiy voqealar, insonlararo munosabatlar bilan tanishish imkoniyatini beradi. Badiiy asar mazmuni, tuzilishi va hajmiga qarab turli metod, usul va texnologiyalarning tanlanishi uning g'oyaviy-badiiy mazmunini ochishda, o'quvchilarning mustaqil xulosa chiqarishida muhim omil sanaladi. O'yinli ta'lim usullari o'quvchilarning darsga qiziqishlarini kuchaytiradi, muammoni hal qilishga faol harakatlantiradi. Hatto sust o'zlashtiruvchi o'quvchilarni ham o'z fikrlarini erkin bayon etish va himoya qilishga undaydi. Sinf o'quvchilarining yakdil bo'lib ishlashi ular o'rtasida o'zaro hurmat va bir-birini qo'llab-quvvatlash munosabatlarini tarbiyalaydi. Xullas, hozirgi kun davr talabiga mos ravishda o'qituvchi o'z ustida muntazam mustaqil ishlash, kitobga qiziqtirish bo'yicha yangi-yangi metodlarni yaratishni o'zining asosiy maqsadlaridan biri sifatida belgilab olishi lozim.

Usmonjon QOSIMOV,
Jizzax davlat pedagogika instituti dotsenti

TARIXIY HAQIQAT VA BADIIY TALQIN

Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor va Tog'ay Murod ijodi va estetik qarashlari adabiyotshunoslikning muhim muammolaridan bo'lgan tarixiylik va badiiy haqiqat mutanosibligi masalasini ham o'rganishga asos va manba bo'la oladi. Istiqlol tufayli yurtimiz tarixini haqqoniy o'rganish va yoritish imkoni tug'ildi. Jumladan, Prezidentimiz farmoni bilan 2019-yildan o'z faoliyatini boshlagan "O'zbekiston tarixi" telekanali faoliyati ham ana shu ezgu maqsadga qaratilgan. Sobiq sho'ro davrida ijtimoiy-siyosiy hayotimizda bo'lgani singari mafkura, tarix, adabiyot va san'at sohalarida ham ko'plab jiddiy xato va chalkashliklarga yo'l qo'yilganligi endilikda butun murakkabligi va fojiasi bilan ayon bo'lmoqda.

Atoqli adibimiz Abdulla Qodiriyning 1922-yili o'ziga xos jasorat bilan yozgan Mochalov haqidagi felyetoni ham adibning qanchalar haqgo'y va millat qayg'usini aks ettirgan realist yozuvchi ekanligini yaqqol namoyon etadi: "O'tib ketdi o'shal davrlaring: eski shahar ko'chalarida muborak vujuding ko'rinib qolsa, homilador xotinlar bola tashlar, yig'loq bolalar yig'idan to'xtar, dag'dag'ayi zolimoningni totig'on benavolar dir-dir qaltirar edilar. Qo'lingda qamchin, belingda oshpichoq, shopdak murtingning ostidag'i sassiq og'zingdan qizingni... onangni... diningni, ota-bobongni... degan zikr oliylar doim favvora urar edi".[1]

Xalqimiz boshidan kechirgan bu fojia badiiy adabiyotda ham o'z aksini topganligini ta'kidlash zarur. Chunonchi, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asari xotimasida shunday deyiladi: "1277-yilning kuz kezlarida bo'lsa kerak, Yusufbek hoji Qanoatshohdan xat oldi. Qanoatshoh Avliyootadan shunday deb yozar edi: "O'g'lingiz Otabek yana bizning kishi bilan qo'shinda edi. Avliyoota ustidagi chor askarlari bilan to'qnashuvimizda birinchi safimizni shu ikki yigit oldi va urushda qahramonona shahid bo'lishdi".

Asar boshida Rossiyadagi ba'zi ijobiy tartib va o'zgarishlarga xayrixohlik bilan qaragan Otabekdek ilg'or dunyoqarashli va komil insonning taqdiri bunday yakunlanishi bejiz emas edi. Ya'ni o'z asarlarida ortiqcha tafsilotlarga o'rin bermaydigan Qodiriy, aslida, mana shu epizod orqali ham tarixiy haqiqatni ifodalashga muvaffaq bo'lgan. Hijriy 1277-sana milodiy 1860-yilga to'g'ri keladi. Bundan ma'lum bo'ladiki, Otabek kabi minglab yigitlarimiz vatanimiz himoyasi yo'lida chor askarlari bilan Toshkent yaqinida bo'lgan muqaddas janglarda halok bo'lganligi ham Rossiya imperiyasining Turkistonda amalga oshirgan vaxshiylarcha xunrezligining rad etib bo'lmas dalilidir. Nihoyat, Otabekning yolg'iz farzandi Yodgorbek qismati va undan qolgan ikki o'g'ilning bittasi bu kunda (sovet davrida) Marg'ilonning mas'ul ishchilaridan bo'lib, "Ikkinchisi Farg'ona bosmachilari orasida ekan"ligi haqidagi muxtasar bayon ham o'quvchini chuqur o'yga toldiradi. Balki bu o'lkamizda Oktabr inqilobidan keyin ham davom etgan taloto'plar, bosqinchilik va zo'ravonlik siyosatiga qarshi xalq qalbida uyg'ongan haqli norozilik va mungli dardga ishora ekanligini sezgir o'quvchi qalban his etadi.

Chorizm istilosidan keyin barcha mehnatkash xalq rus general-gubernatori, shahar hokimi va to'ralarga qullarcha itoat etib, o'z yurtida begonalardek yashaganligi va aks holda turli jazolarga duchor qilinganligi Abdulla Qahhor asarlarida ham haqqoniy aks ettirilgan. Jumladan, yozuvchining hanuzgacha adabiyotshunoslarimiz diqqat-e'tiboridan chetda qolib kelgan "Tomoshabog'" hikoyasi ana shu achchiq haqiqatni mohirona tasvirlagani bilan alohida ajralib turadi. 1935-yilda yozilgan bu hikoyaga quyidagi mashhur satrlar epigraf qilib olingan:

Ey bus-butun ayolati vayron o'lon Vatan,
Har go'shasi zamonada zindon o'lon Vatan.

Bu dardli satrlar hikoyada tasvirlangan voqea zamiridagi katta fojianing mohiyatini ochishga yordam beradi. Asarda hikoya qilinishicha, qadoqchi Hamroqul cholning tobi qochib, uyiga borishga ham majoli kelmay qoladi. Shunda usta Kulol degan keksa bir tanishi ko'rib qolib, uni o'zi qorovullik qiladigan "Romanovskiy" bog'iga olib kiradi. Qayrag'och soyasiga o'tqazib, unga suv keltiradi. Hamroqul suvni ichib, biroz o'ziga keladi. (Darvoqe, Toshkentning qoq markazida ilgarigi Inqilob xiyoboni yonidagi ko'chalardan biri yaqingacha ham Romanovskiy deb atalar edi. Mustaqilligimizdan so'ng bu nomlar o'zgartirildi va endilikda Amir Temur haykali o'rnatilib, temuriylar tarixi muzeyi barpo etildi).

Shu payt qayerdandir kelib qolgan ofitser bu ikki mo'ysafidni tepib, kaltaklay ketadi. Bu ham yetmaganday, mirshabni chaqiradi. Ikki mirshab Usta kulol bilan Hamroqul cholni butxonaning narigi tomonidagi mirshabxonaga qamab qo'yadi. Kutilmagan bu voqeaning tafsilotini hech kim aniq bilmaydi. Nihoyat, bir haftadan so'ng "Turkiston o'lkasi" gazetasida bu ikki bechora cholning "gunohi" ma'lum qilinadi: "O'tgan 23-sentabrda mazkur shaharda Russiya dahasidagi

Romanovskiy bog'ida ham shu qabilda beadablik sodir bo'lgan. Chunonchi, sartiyalardan biri o'zlariga sohiblik qilib turgan Rusiya to'ralarining istirohatgohlariga kirgan, ya'ni nihoyatda beadablik qilgan".[2]

Hikoyani o'qib chiqqan har bir esli-hushli odam hayratga tushadi: keksa, betob bir chol o'z shahridagi bog'ga kirib ozgina salqinlasa, bir qultum suv ichsa – buning nimasi "nihoyatda beadablik" ekan? Kishi o'z yurtida begona bo'lib, o'z shahrining tomoshabog'iga kirolmasa, bundan ortiq nohaqlik, bundan og'irroq fojea bo'larmikan?

Hikoyada ofitser bilan mirshablar ham odam-ku, zora rahmi kelib qo'yvorishsa, degan umidda ularga yalinib, ergashib borayotgan kampiriga Usta kulol shunday deydi: "Yig'lama! Men bir turmadan ikkinchi turmaga o'tayotibman, nega yig'laysan?". Jabrdiyda cholning bu so'zlari Rossiya imperiyasining arzandalari bo'lmish rus harbiylarining o'lkamizda o'rnatgan g'oratkor va zo'ravonlik siyosatiga berilgan odilona ta'rif, xalq dilidagi adolatli hukm edi. Rossiya tarkibidagi Turkiston ham mashhur rus adibi Gersen iborasi bilan aytganda, "xalqlar turmasiga aylangandi". Dilni ezuvchi bu lavha "madaniy" istilochilarning o'lkamizdagi yurgizgan hukmronlik siyosatidan, xalqqa o'tkazgan zulmi va zug'umidan bir nishona.

Qodiriy va Cho'lpon, Qahhor va Tog'ay Murod kabi millatparvar adiblarimiz ijodi xalqimiz boshidan kechirgan fojialarni unutmaslikka, milliy uyg'onish va tiklanishdan milliy taraqqiyot sari yuksalib borayotgan bugungi O'zbekistonimizni va uning mustaqilligini buyuk ajdodlarimizday qadrlashga va unga sadoqat bilan xizmat qilishga undaydi.

[1] Abdulla Qodiriy. G'irvonlik Mallavoy. – Toshkent, 1987. 357-bet.
[2] Abdulla Qahhor. Asarlar.1-t. – Toshkent,1967. 68-bet.

Umida RASULOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti

QISSALARDA BADIIY OBRAZ MOHIYATI

Insoniyat ilm-u ma'rifat yog'dusida shariflik matlabiga noil bo'ladi. Bu xayrli xizmat ustoz zimmasiga buyuk mas'uliyatni yuklaydi.

Yillar mobaynida ta'lim, tarbiya o'rgatgan insonning halol, mashaqqatli mehnatini qadrlagan ilm-u tolib uni umri davomida unutmaydi. Ezgu maqsad yo'lida zahmat, riyozat chekkan ziyolilar doim jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shganlar. Badiiy adabiyotda, jumladan, qissalarda o'qituvchi, ustoz obrazi muayyan vazifani bajaradi. Ularning maslagi, tajribasi, sof vijdoni adiblar tomonidan teran yoritilgan.

Chingiz Aytmatovning "Birinchi muallim" hamda Luqmon Bo'rixonning "Sirli muallim" qissalari mohiyatiga nigoh tashlansa, mushtarak jihatlar ayonlashadi. Ch.Aytmatovning "Birinchi muallim" qissasida Duyshen ismli yigit ovuldagi bolalarga sidqidildan tahsil beradi. Ilm-u ma'rifatdan mosuvo ota-onalarni to'g'ri tashviq etadi, maktab binosini yolg'iz tiklaydi, Qish qahratonida suv kechib bolalarni yo'lning quruq yeriga o'tkazishi, sovuq sinfxonani isitib, darslarni astoydil o'tishi, o'quvchilar irodasini mustahkamlashga erishishi obrazning mohiyatini belgilaydi. O'n besh yoshli sag'ir Oltinoyni zolim erkak jaholatidan qutqargan muallim og'ir tan jarohatiga qaramay yovuzlikka barham beradi. Muhimi, qarindoshdan ko'rilmagan oqibat, adolat ustoz tomonidan ro'yobga chiqadi. Qissada kishilar o'rtasidagi savodsizlik, jaholatga qarshi ma'rifat masalasi ko'ndalang qo'yiladi. Asarda muallimning olijanob, fidoyi fe'l-atvori boshqa qahramonlar e'tirofidan ham ayonlashib boradi. Ustoz Duyshen shogirdi Oltinoy bilan tepalikka terak novdasini o'tqazadi. Yillar suroni terakka salobat bag'ishlab, kishida ishonch, qat'iyat, matonat tuyg'usini uyg'otadi. "Ko'cha-kuyda nima ko'p – daraxt ko'p, lekin bu teraklar o'zi boshqa bir olam, qandaydir xosiyatli, tili borday. Goh sohilga kelib urilgan erka to'lqinday eshitilar-eshitilmas guvillashib qo'yadi, goh jim o'ylanib qolib, sog'ina-sog'ina yuragi qon bo'lganday, allanimalarni eslab xo'rsinib, yulqingan shamol bulut haydab, yomg'ir haydab, butoqlarini egib yuborganda, teraklar bir-biridan madad olib, sindirib bo'psan, deganday battar o'jarlik qilib, zarda bilan to'lg'anib qo'yishadi. To'rt tomoni ochiq baland tepada turishganidan bular doimo shamol

o'qiga to'g'ri kelib havoning har bir o'yiniga javob qaytarib turishgan"[1].

Adib inson siyratidagi po'rtanalarni nabotot ramzlari orqali ifodalaydi. Adl terak olisdan haybat-u savlati, turli hodisotga dadil isyoni ila ulug'vorlik kasb etadi. Muallimdan ilk saboq olgan yoshlar ulg'ayib, turli sohalarda yutuqlarga erishadi. Aslida ular ustozga tashakkur bildirib, zahmatkash odamni e'zozlashi darkor. Muallim o'zgalar manfaati uchun jonini fido etib, kamtarona turmush kechirsa-da, uning olijanobligi ishonch, beminnat yaxshiligi adolat hikmatidan voqif qiladi.



"Badiiy obraz – ijodkor shuuri, estetik ideali, dunyoqarashi, maqsadi va g'oyasi orqali sintezlashgan voqelikning, inson ruhiyatining muhim qirralarini muayyan narsa, tuyg'u va kechinmalar timsolida alohida betakrorlikda umumlashtirilgan, estetik qimmatga molik in'ikosidan iborat"[2].

Luqmon Bo'rixonning "Sirli muallim" qissasida maktab jamoasiga ironik munosabat bildiriladi. Qishloq ta'lim maskanlaridagi jarayon bosqichma-bosqich ochib berilgan. Muallim dunyoqarashi, kasbiga mas'uliyat masalasi muallif hayotiy kuzatishlari asnosida rivojlantiriladi. Qissaga Abdulla Oripovning "*Muallim haqida so'zim ushbudir, Muallim kamolot ichra ko'zgudir*" misrasi epigraf qilib olingan. Adib sharafli kasb egalari hayotini ko'zguda aks ettirish borasida mozaika usulini qo'llaydi. Turli iqror maktublari asar poetikasini to'yintirib boradi. Ulardagi manzaralar jamlanib, yaxlit tasavvurni ro'yobga chiqaradi. Voqealar rivojida inson tabiatidagi fazilat-u illatlar asta-sekin fosh bo'ladi. Kundalik turmushga yangi holat, vaziyatning kirib borishi qahramonlarni o'zini taftish etishga majbur qiladi. Adib ustoz obraziga chizgilar tortishda noodatiy lavhalarni matn poetikasiga singdirib yuboradi. Asarda fidoyi yosh yigitning sirli tashrifi ertak, afsonadagi mujda keltiruvchi ezgulik kuchlarini yodga solishi sujet voqealarini jonlantiradi. Yosh muallimning fidoyiligi dangasa, mas'uliyatsiz kimsalarga xush kelmaydi. Qissada muallifning o'tkir kinoyasi zamirida achchiq haqiqat bo'y ko'rsatadi. Ma'lumki, asar qahramonlariga tanlangan ism ham muayyan poetik mazmunga ega. Nosir badiiy obrazlarga nom berishda mavqeyi, fe'l-atvoriga monand jihatlarga ahamiyat qaratadi. Maorif mudiri Erkaboyev, maktab rahbari Qalqonov jamoadagi muhitni fosh qilmaslikka, muammoni imkon darajasida hal qilishga, buyruqni vaqtida bajarishga moslashgan obrazlar. Ularning "labbaygo'y"lik tutumi bir qancha epizodda asoslab ko'rsatiladi. Bu jamoaga chin ma'noda Najot G'aybulla zarur edi. Najot ustoz-u shogird qismatiga loqayd bo'lmagani bois muammoni tez hamda samarali hal etadi.

"Uning aft-angorida, ust-boshida, ish faoliyatida allanechuk begonalik bor edi. Ana shu begonalik bizni hurkitib turardi."[3].

Muallif qahramon badiiy portreti vositasida kitobxon qiziqishini orttiradi. Uning suratidan tiynatiga qadar o'zgaligi odatiy me'yor, ko'nikmaga nomuvofiq edi. Boisi yigitni begona deb qabul qilgan pedagoglar loqaydlik, beparvolik iskanjasidan xalos bo'lishni xohlamasdi. Biroq endi jamoa ilmdan yiroqligini, farzandlar kelajagiga raxna solayotganini tushunib yetishga majbur bo'ladi. Darsliklarning direktor xonasida saqlanishi, jihozlangan geografiya xonasining zarur tashriflar uchungina ochilishi singari firibgarliklar oqibatida ilm-u marifat jarayoni sustlashadi. Shoyim Bo'tayevning "Sho'rodan qolgan odamlar" qissasida ham ziyoli obrazi bor. O'spirinlar o'g'rilik sabab sudda javobgarlikka tortilganda o'qituvchi ularning xatosi, aybini kechirishni so'rab: "Bu bolalarning gunohlaridan o'tishlaringizni so'rayman. Ularning o'zlariyam bu qilg'ilikni ikkinchi qilmaymiz, deb o'ylanib o'tirishibti",[4] – deydi.

Ustoz halokat yoqasidagi yigitlarga madad qo'lini cho'zarkan, atrofdagilar istehzosiga sabab bo'ladi. U bemehr, notavon amakidan farqli o'laroq mudom azob chekayotgan, aybini tushungan bolalar holatini idrok etishga qodirligini namoyon etadi. O'zgalar tashvishidan, yoshlar baxtsizligidan bezovta qalb adashganlarga ezgulik yo'lini ko'rsatishga intilsa-da, barcha harakatlari zoye ketadi.

Inson borki, ko'nglida muqaddas tuyg'u, oliy intilish mavjud. Hayotga mazmun bag'ishlash, umrni xayrli ishlarga safarbar aylash chin farog'at sanaladi. Ijodkorlar o'z asarlarida muallim, ustoz obrazlari vositasida odamzodga ma'rifat hidoyatini ulashuvchi shaxslarni sharaflaydilar.

---

[1] Ch.Aytmatov. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978. 43-bet.
[2] B.Sarimsoqov. Badiiylik asoslari va mezonlari. – Toshkent, 2004. 22-bet.
[3] L.Bo'rixon. Titrayotgan tog'. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot uyi, 2018. 234-bet.
[4] Sh.Bo'tayev. Hayot. – Toshkent: Sharq, 2000. 355-bet.

Sherzod NORMO'MINOV,
Samarqand davlat universiteti o'qituvchisi

SO'Z TURKUMLARIDAGI YADRO VA PERIFERIAL QISMLAR VA ULARNI SHAKLLANTIRUVCHI ASOSLAR

Annotatsiya. *Maqolada so'z turkumlaridagi yadro va periferiya tushunchalari va ularni shakllantiruvchi vositalarning struktur, semantik, funksional vazifalari tahlil etilgan. Shuningdek, so'z turkumida yadrodan periferiyaga, periferiyadan so'z turkumlarining markaziy qismiga siljishi kabi jarayonlarga munosabat bildirilgan.*

Kalit so'zlar: *so'z turkumlari, yadro va periferiya, o'zgaruvchanlik, leksika, leksema, variantlilik, nutqiy chastota, yadroviy qatlam.*

Аннотация. *В статье проанализированы понятия ядра и периферии в части речи, формирующие их структурные, семантические и функциональные функции. Также рассмотрен процесс перехода ядра к периферии, от периферии к центру части речи.*

Ключевые слова: *части речи, ядро и периферия, изменяемость, лексика, лексема, вариантность, речевая частота, состав ядра.*

Annotation. *The article analyzes the concepts of the nucleus and periphery of parts of speech that form their structural, semantic and functional functions. Also, the process of transition of the nucleus to the periphery, from the periphery to the centre of the part of speech is considered.*

Key words: *parts of speech, nucleus and periphery, changeability, vocabulary, lexeme, variability, frequency of speech, composition of the core.*

So'z turkumlarining tabiatini tushunish, had-hududi va chegaralarini farqlash uchun ularni grammatik-leksik yadro hamda periferiya kabi qismlarga ajratish lozim. [5: 111] So'z turkumlari paradigmasi yoki alohida olingan so'z turkumlarini yadro va periferiyaga ajratish esa tilning yuqori darajada uyushgan va undan kam bo'lmagan tarqoq sohalardan iborat murakkab tuzilma ekanligini ko'rsatadi. O'zgaruvchanlik va variantlilik xususiyati tilda har doim ham til qoidalari o'rnatgan qat'iy mezonlarga mos kelmaydigan va so'z turkumlarining asosiy xususiyatlarini o'zida aks ettirmaydigan birliklarni vujudga keltiradi. V.Matezius o'z vaqtida o'rinli qayd etganidek, "tilda shakldan tashqarida funksiya, funksiya esa shaklsiz mavjud bo'la olmaydi... shakl va funksiya ma'lum bir hodisaning tez-tez kesishib turadigan ikki tarafidir". [4: 201]

Til leksikoni va uni tashkil etuvchi so'z turkumlarida yadro va periferiya qismlarining mavjudligi til universaliyalaridan biridir. Yadro va periferial qismlarning vazifalarini aniqlash, ularni tasniflash tamoyillarini belgilash, o'zaro aloqa va ta'siri tabiatini ochib berish juda ko'p yondosh til hodisalarining mohiyati, sodir bo'lish mexanizmini anglash va tushuntirib berishga yordam beradi. Shu kabi yadro va periferiya tushunchalari leksikon va uning asosiy arsenalini tashuvchi so'z turkumlari bilan bog'liq holda inson tafakkuri va tushuncha apparatining muhim qismlarini tashkil etadi, zero, inson tafakkuri ham hamisha birinchi darajali, doimiy semantik qiymatga ega birliklar va variativ tushunchalarni farqlashga ehtiyoj sezadi hamda nutqiy jarayonni ana shu farqlov asosiga quradi.

So'z turkumlarining yadro va periferial qismlari haqida so'z ketganda V.V.Vinogradovning yadroviy qismlar tilning "asosiy lug'at zaxirasini tashkil etishi" haqidagi fikrini eslash o'rinli. Olimning fikricha, ushbu lug'aviy fond "tilga yangi so'zlarni hosil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi va til lug'at tarkibi boyib borishining bosh va asosiy moddiy va struktural asosidir". [2: 47] Bu fikrga shubha keltirmagan holda shuni qayd etish kerakki, V.V.Vinogradovdan keyin til leksikoni va so'z turkumlari tarkibidagi bunday so'zlar qatlamini ajratib ko'rsatish uchun ekstralingvistik usullarga murojaat qilindi. Jumladan, nutqda qo'llanish chastotasi yuqori bo'lgan so'zlarni yadroviy leksika deb ko'rsatishga urinishni shunday baholash mumkin. Ammo nutqiy chastotasi yuqori bo'lgan har qanday so'zni yadroviy qatlamga oid leksika deb tushunish hamisha ham to'g'ri bo'lavermaydi.

So'z turkumlarini tasniflash va ta'riflash, jumladan, yadro-periferiya kabi tarkibiy qismlarga ajratishda funksional semantik va funksional-sintaktik yo'ldan borilmas ekan, ularning lisoniy tabiati, struktur-semantik tuzilishining muhim qirralari to'la ochilmay qolaveradi.

So'z turkumlari tilning leksema (so'z) darajasidagi yadro (markaz) va periferiyadan (chekka qism) iborat maxsus tuzilmasi bo'lib, markazda turkumni shakllantiradigan leksik-semantik kuchli belgilarni o'zida tashigan elementlarning to'planishi, chekka qismlarda esa bu belgilarning ozayishi va kuchsizlanishini kuzatish mumkin. Haqiqatan ham, tilning har bir sathi va qismida yadroviy, tipik, asosiy hamda periferial (ikkinchi darajali) unsurlarni farqlash lozim.

Yadro-periferiya munosabati struktur, semantik va funksional aspektlarda namoyon bo'ladi. Struktur aspektda yadro-periferiya munosabatlari so'z yasash va so'z birikmalarini shakllantirishning asosiy va periferial (asosiy bo'lmagan) usullari va qoliplar; kategorial-semantik aspektda esa yadroda – tipik, chekkada oraliq shakl va mazmunlar; funksional planda esa markazda – ko'p qo'llanuvchi, periferiyada – kam qo'llanuvchi shakllar tushuniladi. [3: 26]

So'z turkumlari paradigmasi yoki alohida olingan so'z turkumlarining yadro va periferial qismlarini tashkil etuvchi birliklarni umumiy semantik integral (umumlashtiruvchi, birlashtiruvchi) belgi birlashtirib turgan bo'lsa-da, ularni farqlaydigan xususiyatlar xususiy

semantik belgilardir. Umumiy va xususiy belgilarning oppozitiv qatori aslida yadroviy va periferial qismlarni farqlash asosida turadi. [1: 130] Masalan, o'zbek tili so'z turkumlari paradigmasida semantik jihatdan belgini anglatuvchi uchta so'z turkumlari mavjud: sifat, son va ravish. Ular umumiy semantik xususiyatlari bilan bir-biriga yaqinlashsa va umumlashtiruvchi belgi mavjud bo'lsa-da, sifat otning turg'un belgilarini, son uning miqdoriy belgilarini, ravish esa otning oppozitiv qatori bo'lgan fe'lning dinamik belgisini ifodalashi bilan bir-biridan farqlanadi. Belgi anglatish umumiy xususiyat bo'lgani uchun jonli kommunikativ jarayonda ularning bir-birlarining funksiyasini bajara olishiga yo'l ochadi, bu bilan so'z turkumlari paradigmasida bu uch a'zoning ko'chishgacha bo'lgan o'zaro aloqasi ko'rilsa, alohida so'z turkumida yadrodan periferiyaga, periferiyadan so'z turkumlarining markaziy qismiga siljishi kuzatilishi mumkin.

ravish	son
sifat	ot / fe'l

Periferiya so'z turkumlari paradigmasi va alohida olingan so'z turkumlari doirasida boshqa so'z turkumlariga xos xususiyatlarga ega jihatlarni ifodalovchi yoki bir nechta so'z turkumlariga xos xususiyatlar kesishma natijalarini ifodalay boshlaydi.

So'z turkumlaridagi yadroviy va periferial qismlarga ajralish ana shu jarayonning leksik-semantik sathda namoyon bo'lishidir, ya'ni so'z turkumlari tilning leksik va semantik sathlarida birday mavjud bo'lgan va grammatik xususiyatlarini funksional vazifasi tufayli shakllantirgan leksemalarning leksik-grammatik guruhlari bo'lib, ular yagona kategorial ma'no, umumiy funksional vazifaga egaligi bilan turkumlarga ajralsa-da, bu jarayon turkumlarga ajralish bilan tugamaydi. So'z turkumlari paradigmasi a'zolarining tildagi maqomi hamda funksional-semantik xususiyatlariga ko'ra paradigmaning markazi va periferial qismlaridan joy olgan turkumlarning mavjudligi bilan birga bu holatning alohida olingan so'z turkumlari tarkibidagi yadroviy va periferial qismlarga ajralishi, yadroning bir markazli va ko'p markazli ekanligi, periferial qismning ham yaqin periferiya va olis periferiya kabi qismlarga ajralishi kabi hollarda moddiy yoki ideal tizimlarga atomistik ta'limotga ko'ra yondashuvning juda ko'p qirralari namoyon bo'ladi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Praga tilshunoslik maktabi gullab-yashnagan XX asrning boshi va o'rtalaridan hozirga qadar til sathlari va birliklarini yadro va periferiya qismlariga ajratish bo'yicha lingvistika fanida yagona fikrga kelinmagan. Jumladan, rus tilshunosi R.M.Gaysina bu xususida tilshunoslikda uch xil nuqtayi nazar ustuvor ekanligini ta'kidlab o'tadi. Birinchi yondashuvda so'z turkumlari paradigmasidagi so'z turkumlari va alohida olingan so'z turkumlaridagi so'zlarning kategorial ma'nosi va semantik-funksional xususiyatlari e'tiborga olinadi, jumladan, *"stol"* va *"sut"* kabi aniq va predmetlikni ifodalaydigan so'zlar ot turkumi yadrosiga, *"baxt", "sevgi"* kabi mavhum tushuncha anglatadigan so'zlar esa periferiyaga "joylashtiriladi".

Ikkinchi yondashuvga ko'ra esa yadroviylik va periferiallik u yoki bu so'z turkumlariga mos bo'lgan grammatik kategoriyalarning xususiyatlariga ko'ra belgilanadi. Bu holda morfologik shakllarning to'laqonli ekanligi va ular tashiydigan semantik ma'nolarning yaqqol ifoda etilganligi jihatidan yadroviy qismga egalik, kelishik, ko'plik kategoriyalariga ega bo'lgan ot va zamon, shaxs-son, mayl kabi grammatik kategoriyalarga ega fe'l turkumi joylashishi, bu so'z turkumlari ichida esa ana shu grammatik kategoriyalarda yaqqol turlanadigan yoki tuslanadigan ot va fe'llar yadro qismidan joy olishi tabiiy.

Uchinchi yondashuvda esa ham so'z turkumlari paradigmasi, ham alohida so'z turkumlarining yadro qismida u yoki bu so'z turkumiga xos bo'lgan, barcha differensial belgilarni (semantik, morfologik, sintaktik) o'zida jamlagan so'z turkumlari yoki so'zlarni joylashtirish ko'zda tutilgan. Bu holda yana ot, fe'l paradigma markazida, barcha mustaqil so'z turkumlaridagi muhim differensial belgilarni tashiydigan so'zlar yadroda va bir yoki undan ortiq belgilarni tashimaydigan so'zlar periferiyada joylashishi tendensiyasi mavjud.

Ko'rinadiki, tilshunoslik fanida til sathlari va so'z turkumlari paradigmasida yadroviy va periferial qismlarni ajratish masalasida yagona to'xtamga kelinmagan. So'z turkumlarining har biri a'zosi ichidagi turkumning asosiy semantik, morfologik, sintaktik va yasalish usuliga to'la mos keluvchi birliklar o'sha so'z turkumining yadrosini tashkil etadi. Bu belgilardan ba'zilari (ko'pincha bittasi), neytrallashgan yoki yo'qolgan birliklar esa periferiyadan o'rin egallaydi. Neytrallashtiruvchi belgi, aytish kerakki, so'zni o'zi mansub bo'lgan turkum tarkibidan "chiqarib yuborish"ga asos bo'lolmaydi, u, to'g'rirog'i, so'zni ushbu turkumga xos yoki begona ekanligi masalasida betaraf turadi, u endi periferiyaga mansubiyatning belgisi kabi hukm suradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Griesbach, Heinz. Kleines Lexikon zur deutschen Grammatik. Deutsch als Fremdsprache. – München: Iudicum, 1993. – S. 130.
2. Виноградов В.В. Об основном словарном фонде и его словообразующей роли в истории языка // Виноградов В.В. Избранные труды: Лексикология и лексикография. – Москва: Наука, 1977. – С. 168.
3. Гак В.Г. Теоретическая грамматика французского языка. – Москва: Добросвет, 2000. – С. 260.
4. Матезиус В. Пражский лингвистический кружок. – Москва: Прогресс, 1967. – С. 201.
5. J.D.Eltazarov. O'zbek tilida so'z turkumlari paradigmasidagi o'zaro aloqa va ko'chish hollari. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006. 168-bet.

Gulchehra G'ANIYEVA,
Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy universiteti

MODAL SO'ZLAR ORQALI PRAGMATIK BAHONING IFODALANISHI

Annotatsiya. *Maqolada modal so'zlar orqali voqelikka salbiy yoki ijobiy munosabat, uzatilayotgan axborotning haqiqiyligiga so'zlovchining ishonchini belgilovchi bahoning ifodalanishi va bunday vaziyatda modal so'zlar pragmalingvistikaning tekshirish obyekti hisoblanishi xususida so'z yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *modal so'zlari, ishonchlilik kategoriyasi, kommunikativ-pragmatik funksiya, pragmatika.*

Аннотация. *В статье рассматривается негативное или позитивное отношение к реальности через модальные слова, выражение оценки уверенности говорящего в подлинности передаваемой информации; в этом случае модальные слова являются объектом прагмалингвистики.*

Ключевые слова: *модальные слова, категория достоверности, коммуникативно-прагматическая функция, прагматика.*

Annotation. *The article addresses the negative or positive attitude to the reality through modal words, the expression of assessment of the speaker's confidence in the authenticity of the information being transmitted, and the modal words in this case being the object of pragmatic linguistics.*

Keywords: *modal words, reliability category, communicative-pragmatic function, pragmatics.*

Modal so'zlarning so'zlovchi munosabatini aks ettirishi ular pragmalingvistikaning tahlil obyekti ekanligidan dalolat beradi. Shuningdek, modal so'zlarning dialogik nutqda tushirib qoldirilgan kesim vazifasini ado etishi va buning natijasida nutq vaziyati bilan bog'liq propozitsiyani ifodalashi nafaqat semantik-sintaktik, balki pragmalingvistik aspektga ham oid muammo sanaladi. Bu jihatdan modal so'zlarning pragmatik vazifasi doirasini quyidagicha belgilash mumkin:

1) nutq egasining baho munosabatini ifoda etish;

2) ellipsisga uchragan gap yoki uning kesimi signalizatori vazifasini ado etish;

3) presuppozitsiya signalizatori vazifasida qo'llanish.

Modal so'zlar munosabatni ifodalovchi so'zlar bo'lgani bois nutq egasi, ko'pincha, bu so'zlar orqali voqelikka salbiy yoki ijobiy baho ham beradi. Bunday vaziyatda modal so'zlar pragmalingvistikaning tekshirish obyekti hisoblanadi. E.E.Kordining fikricha, uzatilayotgan axborotning haqiqiyligiga so'zlovchining ishonchini belgilovchi bahoning ifoda vositalaridan biri modal so'zlardir.[1] Biroq modal so'zlar nafaqat so'zlovchining ishonchi, balki gumoni, taajjubi kabilarni ham ifodalaydi. S.Boymirzayeva ham axborotning ishonchli yoki ishonchsizligini aks ettiruvchi epistemik modallikning ifoda vositalari qatoriga performativlar bilan birga modal so'zlarni ham kiritadi. Uning fikricha, modal so'zlar ham xuddi performativlar kabi axborotning ishonchlilik darajasini belgilash vositasi sanaladi, ammo ularning tarkibida baho subyekti o'z ifodasini topmaydi.[2]

Modal so'zlar nutq egasining pragmatik maqsadi talabi bilan uning voqelikka nisbatan salbiy yoki ijobiy bahosini ham aks ettirishi jihatidan ahamiyatga ega. Modal so'zlar orqali ifodalangan baho nutq egasining voqelikka bergan bahosi hisoblanadi. S.Boymirzayevaning qayd etishicha, "baho obyektning ahamiyatli tomoni, qiymatini belgilash faoliyati jarayonidir. Ushbu jarayon subyekt tomonidan bajarilib, uning asosida ma'lum bir namuna yotadi hamda obyektga shu namuna doirasida ijobiy yoki salbiy sifat – baho beriladi"[3].

Darhaqiqat, modal so'zlar subyektiv munosabatni ifodalaydi. Ammo ular orqali ifodalangan munosabat va nutq egasi tomonidan voqelikka nisbatan bildirilgan baho o'zaro farqlanadi. Modal so'zlar nutq egasining salbiy yoki ijobiy bahosini ifodalashga yo'naltirilganda pragmatik qiymatga ega bo'ladi. T.Murodning "Ot kishnagan oqshom" qissasidan olingan quyidagi misollarga e'tibor qaratamiz:

1. – Xo'sh, nima bo'pti? Ma'lum gap-ku! ***Albatta,*** *otga suv beradi-da, bo'lmasa benzin berarmidi?*

2. – ***Albatta,*** *rahbarlarga ishonaman. Rahbarlar yolg'on gapirmaydi.*

Birinchi gapning umumiy mazmuni orqali nutq egasining aytilgan fikrga salbiy bahosi anglashiladi. Matn bilan bog'liq holda *albatta* modal so'zi ham salbiy munosabatni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Keyingi gapning umumiy mazmuni orqali nutq egasining ijobiy bahosi anglashiladi. Bu o'rinda *albatta* modal so'zi ham ijobiy munosabatni ifodalashga qaratiladi. Kontekstsiz *albatta* modal so'zining subyektiv baho ifodasidagi o'rni sezilmaydi.

Demak, modal so'zlar orqali ifodalangan salbiy yoki ijobiy baho nutq vaziyati yoki kontekstsiz anglashilmaydi. Nutq vaziyati, kontekstsiz modal so'zlarga yuklangan bunday subyektiv bahoni anglash qiyinlashadi.

Ingliz va rus tillarida ham modal so'zlarga nutq egasining voqelikka salbiy yoki ijobiy munosabatini aks ettirish vazifasi yuklanganda ular pragmatik ahamiyatli birlikka aylanadi.

Ingliz tilshunosligida modal so'zlarga *certainly, of course, surely, really, perhaps, maybe, probably, possibly, fortunately, unfortunately, luckily, unluckily* kabi modal munosabatlarni ifodalovchi birliklar kiritiladi. Ushbu modal so'zlar ishonch, ishonchsizlik, taxmin, xohish kabi grammatik ma'nolarni ifodalaydi. Masalan, "*Certainly, you cannot interfere*" (*Albatta, siz aralasha olmaysiz*) gapida qo'llangan *certainly* modal so'zi nutq egasining voqelikka nisbatan subyektiv munosabati – ishonchini aks ettirgan. Quyidagi misollarga e'tibor qaratamiz:

1. **Perhaps**, you are right (Balki, haqdirsiz).
2. **Unfortunately**, the weather was bad (Afsuski, havo yomon edi).
3. **I, really**, don't know what's to be done (Men, haqiqatan, nima qilishni bilmayman).
4. **Maybe**, Mary is ill (Ehtimol, Meri kasaldir).
5. **No doubt**, he will come later (Aminmanki, u kechroq keladi).
6. **Of course**, I understand it (Albatta, tushunaman).

Shunisi xarakterliki, modal so'zlar orqali ifodalangan subyektiv munosabat nafaqat nutq egasiga, balki nutqiy muloqotning boshqa ishtirokchilariga ham tegishli bo'lishi mumkin. Masalan:

– Shunday qilib, Donoxonga hamla qilgan sariq Dev bilan olishsam maylimi? – so'rayman qalpoqchamdan.
*– Olish, **albatta**, olish.*
– Yordam berasanmi?
– Berganda qandoq. (X.To'xtaboyev, "Sariq devni minib")

Ushbu parchada qo'llangan *albatta* modal so'zi retsipiyentning so'zlovchi fikriga bo'lgan ijobiy munosabatini aks ettirgan. Retsipiyent, ya'ni "sehrli qalpoqcha" bolaning Donoxonga hamla qilgan dev bilan olishuvini shunchaki ma'qullash bilan chegaralanmay, bu olishuvga ijobiy ma'noda xayrixoh ekanligini bildiradi. Matnda aks etgan bu turdagi munosabat keyingi dialogik qatorlarda yanada yorqin aks etgan.

Ayrim modal so'zlar orqali nutq egasining voqelikka nisbatan emotsional bahosi ifodalanadi. Masalan:

1. Но на данном мероприятии никто так не делал, и мы с подругой, **конечно**, тоже.
2. *В этом году, **наверное**, увижу снег только в морозилке.*
3. ***Может быть**, у него получилось бы создать свой театр.*
4. *Она посмотрела на оставшееся в банке молоко – **действительно**, оно прокисло.*
5. ***Должно быть**, это было нелегко – отказаться от всего ради счастья семьи.*
6. ***Само собой**, мне не хотелось выходить на улицу по такой погоде.*

Van Sinsin rus tilidagi *конечно* so'zini undov so'z hisoblaydi. U "*Не знаю, – ответил я. – Разве? – **Конечно**! – оживился Будяев*" (A.Volos) gapida qo'llangan *конечно* so'zini modal xarakterdagi javobni ifodalovchi, bo'lakka bo'linmaydigan gapni shakllantiruvchi undov so'z sifatida talqin etgan.[4] Bizningcha, modal munosabatni ifodalovchi *конечно* so'zini modal so'zlar sirasiga kiritish maqsadga muvofiq.

Nutq jarayonida modal so'zlar yashirin ifodalangan axborot (presuppozitsiya)ga nisbatan so'zlovchining subyektiv munosabatini anglatishi ham mumkin. Masalan:

– Shuncha yerdan bizning so'k oshimizni ichgali kelisharmidi? Uch-to'rt kun turishadi. Durustroq bir narsa qilib qo'ymasak bo'ladimi? – dedi.
Ular ikkovi ham uyg'onganday bo'ldilar:
*– **Albatta, albatta**! – deyishdi ikkalasi.* (Cho'lpon, "Kecha va kunduz")

Ushbu parchada qo'llangan "*Albatta, albatta!*" modal so'zlari gapda yashirin ifodalangan axborotni ma'qullash vazifasini bajargan. Ya'ni dialogik nutqdagi *"Durustroq bir narsa qilib qo'ymasak bo'ladimi?"* ritorik so'roq gapi orqali yashirin ifodalangan *"Durustroq bir narsa qilib qo'yishimiz kerak"* presuppozitsiyasiga modal so'zlar yordamida munosabat bildirilgan. Modal so'zlar gapda o'z grammatik ma'nosi asosida presuppozitsiyani shakllantiradi. Bu xususiyat o'zbek tilidagi *ayniqsa, asosan, jumladan, shuningdek, avvalo;* ingliz tilidagi *especially, for example*; rus tilidagi *действительно, само сабой, конечно* modal so'zlarida yorqin namoyon bo'ladi.

O'zbek tilidagi *ayniqsa* modal so'zi o'zi bog'lanib kelgan so'z bildirgan shaxs yoki narsani alohida qayd etadi.[5] Mazkur xususiyati asosida *ayniqsa* modal so'zi gapda *"ajratib, chegaralab ko'rsatish va umumga qo'shish"* grammatik ma'nosini ifodalaydi. *Ayniqsa* modal so'zi ayni shu grammatik ma'nosi asosida gapda presuppozitsiyani hosil qiladi. Masalan, *"Shu qish, ayniqsa, qattiq kelgan edi"* (A.Qodiriy, "Mehrobdan chayon") gapida modal so'z orqali *"Qish doim qattiq keladi"* presuppozitsiyasi ham ifodalangan.

Xullas, o'zbek, ingliz, rus tillarida modal so'zlar turli ifoda birliklariga ega bo'lsa-da, subyektiv munosabat bilan bog'liq modal ma'nolarni ifodalashiga ko'ra umumiylikka ega. Nutqda ayrim modal so'zlarning gap tarkibida presuppozitsiyaga ishora qilib, uni semantik jihatdan murakkablashtirishi kuzatiladi. Bunday vaziyatda modal so'zlarning pragmatik vazifasi namoyon bo'ladi. Modal so'zlarga xos bu vazifalarning reallashuvi har qanday holatda ham kontekst, nutq vaziyatini taqozo etadi.

---

[1] Корди Е.Е. Модальные и каузативные глаголы в современном французском языке. – Ленинград.: Наука, 1988. – С. 13.
[2] S.Boymirzayeva. O'zbek tili matnning kommunikativ-pragmatik mazmunini shakllantiruvchi kategoriyalar: Filol. fan. d-ri ... diss. – Toshkent, 2010. 157-bet.
[3] S.Boymirzayeva. Baho faoliyati va uning matnda ifodalanishi // Xorijiy filologiya, 2008. 2-son. 10–21-betlar.
[4] Ван Синсинь. Междометия и звукоподруния русского языка в функциональной соотнесении с китайскими. Белгород 2016.
[5] O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. 80000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi / E.Begmatov, A.Madvaliyev, N.Mahkamov, T.Mirzayev va boshqalar. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. 1-jild. 57-bet.

Feruza ATABEKOVA,
Jizzax politexnika instituti
Xorijiy tillar kafedrasi o'qituvchisi

TIL REALIYALARINING IJTIMOIY-MADANIY XUSUSIYATLARI

Ma'lumki, tilshunoslikda tilning lug'aviy boyligini ma'lum bir tizim sifatida o'rganish va ilmiy jihatdan tasniflash usullari mavjud. Til leksikasining faol qo'llaniladigan va aynan milliy xususiyat (kolorit)ga ega bo'lgan guruhini tasavvur etish, aniqlash, tasniflashga doir muammolarni hal etish muhim ahamiyat kasb etadi. So'zlarning mazkur guruhi dunyo tillarining lug'aviy boyligi sifatida mavjud va o'zlariga xos ma'no anglatuvchi jihatlari bilan farqlanadi. O'ziga xos so'zlar guruhi ingliz va o'zbek tillarida maxsus lug'aviy tarkib so'zlari maqomida *lingvomamlakatshunoslik* (tili o'rganilayotgan mamlakat) leksikasi deb ataladi va ular, asosan, til realiyalariga xos tushunchalarni ifodalaydi. Shuningdek, mazkur soha lug'aviy birliklari tarkibidan onomastik leksika (toponimlar va antroponimlar), frazeologizmlar va idiomalar ham joy olgan.

Ushbu soha lug'aviy birliklarini lingvistik va ijtimoiy-madaniy aspektlarda ingliz va o'zbek tillari materialida qiyosiy tadqiq etish orqali ularning semantikasidagi milliylikka xos belgilar aniqlanadi va shu asnoda "o'ziniki" va "o'zganiki (begona)" degan tushunchalar paydo bo'ladi. Masalan, til birliklari vositasida ingliz madaniyatiga xos tushunchaning o'zbek o'quvchisi tasavvurida paydo bo'lishida idrok etilayotgan tushunchaga nisbatan qiyoslash jarayoni kechadi *(cross-culture influence)*. Lingvomamlakatshunoslik fani tili o'rganilayotgan xalqning moddiy va ma'naviy madaniyatini namoyish etishda talabalarning faol ishtiroki va ushbu xalq mentalitetiga xos xususiyatlarni teran anglab olishlarini ta'minlaydi. Mazkur fanning nazariy jihati, bir tomondan, til o'rgatishning bir yo'nalishi hisoblansa, ikkinchi tomondan, tili o'rganilayotgan mamlakat haqidagi ma'lumotlarni taqdim etadi.

Butun bir yaxlitlikdagi til tizimi, til va nutq me'yorlari tilning milliy-madaniy xususiyatlarini aks ettiradi. Bu esa tilning kumulyativ funksiyasi orqali ro'yobga chiqadi. *Kumulyativ funksiya* til birliklarining barchasiga xos bo'lsa-da, lekin leksika sohasida yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi va bu, ko'pincha, frazeologizmlar hamda aforizmlar qo'llanilishida kuzatiladi.

Milliy-madaniy xususiyatni o'zida aniq ifoda eta oladigan maxsus lug'aviy tarkib birliklari qatori quyidagicha belgilanadi:

realiyalar – faqat bir madaniyatga xos bo'lgan va o'zga madaniyatda uchramaydigan narsalar yoki hodisalarning nomlarini atovchi so'zlar;

konnotativ leksika – asosiy ma'no jihatlari mos keluvchi, biroq madaniy-tarixiy tasavvurda farqlanuvchi so'zlar;

milliylikka xos leksika – qiyoslanayotgan madaniyatga o'z analoglariga ega bo'lgan narsa va predmetlarni anglatuvchi, biroq funksiyasi, shakli va narsa (predmet) larni atashda farqlanuvchi so'zlar.

Realiyalarga xos tushunchalarni anglatuvchi lug'aviy birliklar ijtimoiy-madaniy turmushning barcha jabhalarini qamrab olgan. Realiyalar tildagi boshqa so'zlar bilan qiyoslanganda, bir tomondan, uning predmetga xos mazmun jihati hamda u anglatgan predmet, tushuncha va hodisaning mamlakat va xalq hayoti bilan uzviy aloqadorligi bilan boshqa tomondan, tarixan ma'lum davrning bir bo'lagi sifatida namoyon bo'lishi bilan farqlanadi. Shunga ko'ra realiya bu – o'ziga xos milliy kolorit (bo'yoq)dir.

Kolorit deganda muayyan davr, shaxsga oid yoxud biror narsaning o'ziga xos belgi va xususiyatlari majmuasi tushuniladi. Aynan kolorit orqali milliy bo'yoqqa ega bo'lgan realiya hosil qilinadi. Kolorit so'zning alohida bo'yog'i bo'lib, unga xos referent vositasida anglashilgan predmet ma'lum bir xalq, aniq bir mamlakat, hudud yoxud muayyan tarixiy davrga taalluqli ekanligi ko'zga tashlanadi.

Turli xil jamiyatda bir-biriga o'xshash realiyalar o'z ma'no nozikliklari bilan farqlanadi. Xalqning turmush tarzi, ijtimoiy muhit, an'analar va urf-odatlar, ma'naviy-ma'rifiy va diniy qarashlar tilning leksik tizimida o'z in'ikosini topadi. Bu jarayon turli tillarda qay yo'sinda voqe bo'lishi dunyoni milliy ko'z bilan idrok etish tajribasidan kelib chiqadi. Bu haqida nemis tilshunos olimi Vilgelm fon Gumboldt: *"Tillarning xilma-xilligi faqat tovushlarning xilma-xilligi emas, balki har bir millatdagi dunyoni ko'rishning o'ziga xosligi natijasidir"*, – deya o'z fikrini bildiradi.

Frazeologizmlar va idiomalar ham milliy-madaniy xususiyatlarni ifodalovchi til birliklari sifatida lingvomamlakatshunoslik fanining tadqiqot obyekti deb e'tirof etilishi bejiz emas. Mazkur soha doirasida frazeologizmlarni o'rganish tili o'rganilayotgan xalq tarixi, madaniyati va turmush tarzi haqidagi faktik ma'lumotlarga ega bo'lish imkonini beradi. Frazeologizmlar ijtimoiy-madaniy qarashlardan kelib chiqqan holda talqin etilganda ulardagi milliy-madaniy semani aniqlashda an'anaviy va ijtimoiy-tarixiy assotsiatsiyalarga tayanishga to'g'ri keladi. Mazkur assotsiatsiyalar yordamida ayrim yondosh tushunchalarni anglash orqali ularning milliy o'ziga xosligi, ya'ni til sohibining "o'zligi"ni anglash mumkin bo'ladi. Masalan, **ingliz tilida** *a horse* – ot leksemasi bilan quyidagi frazeologizmlarni uchratish mumkin:

beat (or flog) a dead horse – hal etilgan masala yuzasidan behudaga bahslashmoq;

from the horse's mouth – ma'lumotning ishonchli manbadan olinganligini tasdiqlamoq;

hold one's horse – bo'ysundirmoq, jilovini tortib qo'ymoq;

horse round – vaqtni bekorga o'tkazmoq;

horse of another (or a different) color – butunlay boshqa masala, ish yoxud mavzu haqida;

on one's high horse – o'zgalarga past nazar bilan qaramoq, takabburlik qilmoq;

o'zbek tilida: *ot mindirmoq* – ot sovg'a qilmoq; *ot-day bo'lib ketmoq* – sog'aymoq, kasallikni unutib yubormoq; *otdan tushsa ham, egardan tushmaydi* – ilgarigi mavqe yoki martabasidan tushgandan keyin ham takabburligini tashlamaydigan odam; *otni qamchilamoq* – zudlik bilan, fursatni qo'ldan bermay harakat qilmoq; *ot talab, tuya qumlab* – katta qiyinchiliklar bilan, zo'rg'a, arang; *otliqqa (ham) yo'q* – hech qayerda yo'q, sira topib bo'lmaydi va hokazo. Shuningdek, *otlanmoq* fe'li bilan *jini (yoki ajinasi) otlanmoq, jini qo'zg'amoq* – ta'biga, ko'ngliga yoqmagan ish yoki gapdan jahli chiqmoq; jig'ibiyron bo'lmoq.

Ko'rinib turibdiki, madaniyatlarda to'qnash kelgan *"ot"* zoosemizmiga oid frazeologizmlar ingliz tilidagiga nisbatan o'zbek tilida miqdor jihatidan ko'proq va turli ijtimoiy-madaniy kontekstlarda qo'llanilishi bilan farq qiladi.

Til realiyalarining leksik-semantik xususiyatlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Realiyalar lingvomamlakatshunoslikda keng iste'molda bo'lishiga qaramay, realiya tushunchasini ifodalovchi leksik birliklarning lingvistik va ijtimoiy-madaniy tadqiqi har tomonlama bahs-munozarali mavzu hisoblanadi. Realiya tushunchasini madaniyatning moddiy ashyolari sifatida faqat geografik keng tarqalganlik, madaniy-genetik, biror xalq madaniyatiga xoslik va milliylik nuqtayi nazaridan chegaralangan holda tasniflash orqali o'rganish to'liq asosga ega emas.

Realiyalarni madaniyatning alohida o'ziga xos qismi sifatida tarixan jamiyatning iqtisodiy negizida moddiy va ma'naviy boyliklarning jamlanishi va milliy til ishtirokidagi madaniy-genetik jihatidan mushtarak deb hisoblash joiz. Shubhasiz, V.G.Kostomarov tomonidan realiyalarga berilgan ushbu ta'rif ularni tasniflash va chegaralash masalalariga aniqlash kiritishga xizmat qiladi.

Realiyalarga xos tushunchalarni ifodalovchi til vositalarini lingvistik nuqtayi nazardan tavsiflashdan asosiy maqsad realiyalarni obyektiv borliqdagi o'zga predmet va hodisalar deb qaramasdan, aksincha, obyektiv borliqning referentlari va o'ziga xos qismlari sifatida fikrlash predmeti bilan til iborasining o'zaro munosabatda ongimizda aks etishini o'rgatishdan iborat.

Umuman olganda, qiyoslanayotgan tillardagi obyektiv realiyalarga xos leksikani ijtimoiy-madaniy aspektda tahlil etishda ularning semantik strukturasidagi referentlarga xos yagona (unikal) hamda umumiylik (universaliya)dan iborat jihatlarni his etish, anglash va farqlash talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. E.Begmatov. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. – Toshkent: Fan, 1985.
2. Вайсбурд М.Р. Реалии как элемент страноведения // Русский язык за рубежом, 1972. №3. – С. 98–100.
3. Sh.Safarov. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006.
4. Томахин Г.Д. Реалии в культуре и языке // Иностр. яз. в школе, 1981, №1. – С. 64–69.
5. Ястребова О.И. Методика работы над лексикой, обозначающей советские реалии, в процессе чтения общественно-политической литературы: Автореф. дис. …канд. пед.наук. – Москва, 1990. – С. 22.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent, 2008.
7. Webster's New World Dictionary, 1989.

Umida NOSIROVA,
Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

SO'Z POETIKASI PRAGMATIKANING TADQIQOT OBYEKTI SIFATIDA

Har qanday adabiy asarning mohiyatini xolis baholash uchun, eng avvalo, uning lisoniy tarkibiga e'tibor qaratiladi. Tilda har bir unsurning o'z vazifasi, ma'no doirasi, boshqa unsurlar, birliklar bilan bog'lanish qonuniyatlari mavjud. Ana shu qonuniyatlardan mukammal boxabar bo'lgan shoirgina o'zining badiiy didi, so'z sezgisi va mahorati bilan go'zal, jozibali va betakror satrlar yarata oladi.

She'riyatda so'z umumiy matn tarkibidagi bir unsur bo'lib, so'zlar misraga, misralar bandga, band she'rning umumiy to'qimasiga joylashib, mazmuniy butunlikni tashkil etadi. So'zsiz, ekspressivlikni ifodalovchi fonetik, morfologik, sintaktik vositalar ishtirokisiz obyektiv borliqdagi narsa-predmetlar, hodisalarni aniq tasvirlash mumkin emas. She'riyat esa oddiy so'zni ham janrning lisoniy libosiga o'rab ko'rsatadi. So'zning ifoda shakllari poetik ruh bilan to'yinadi, poetik libos bilan ko'zga tashlanadi. She'riy matnda muallif o'z ichki maqsadini nutqda bayon qilish uchun har qanday lisoniy vositaga poetik bo'yoq bera oladi. Lisoniy vosita tushuncha-

si ostida, *birinchidan*, har qanday sath birligi nazarda tutilsa, *ikkinchidan,* turli funksional uslublarga xos ifoda shakllari shoirning mahorati tufayli badiiy-uslubiy jihatdan to'yinadi. Shoir nazarda tutgan pragmatik ma'no imkoniyatlari kengayadi. Kitobxon uchun esa poetik ifodalar orqali berilgan tagma'noni ko'rish osonlashadi. She'riy matnda muallifning intensional niyati va kontekst talabi bilan so'zning ma'no strukturasi kengayadi va tagma'no ifodalash uchun xizmat qila boshlaydi. Shuning uchun ham nazmiy kontekstda tagma'no birinchi planga ko'tariladi. Masalan:

1. *Xo'ragimni, mayli, to'kis-but qiling,*
Kahrabo yuzimni naq yoqut qiling,
***Jahondan ko'z yumsam**, sharobg'a yuvib,*
Tok zangidan menga bir tobut qiling. (Umar Xayyom)
2. *Qaro yerga qo'yib bosh*
*Bir qizgina **uxlaydi.***
Ko'zlariga to'lib yosh
*Hur qizgina **uxlaydi.*** (M.Yusuf, "Uyqudagi qiz")
3. *Tuzalmaydi dardim mening,*
***O'lsam** kerak.*
Tuproq bilan og'a-ini
Bo'lsam kerak. (M.Yusuf, "Mening dardim")

Yuqorida berilgan she'rlarda *"vafot etmoq"* tushunchasi 1-she'rda *"ko'z yumsam"*, 2-she'rda *"uxlaydi"*, 3-she'rda *"o'lsam"* va *"Tuproq bilan og'a-ini bo'lsam kerak"* jumlalari bilan ifodalangan. Aslida *ko'z yummoq, uxlaydi, tuproq bilan og'a-ini bo'lish* ifoda shakllari semantik jihatdan *"vafot etmoq"* so'zidan tubdan farq qilsa-da, muallif tomonidan qo'llangan turli ma'nodagi leksik birliklar she'rning ta'sir kuchini oshirgan. Ta'kidlash lozimki, badiiy til o'z imkoniyatlarini, eng avvalo, yozuvchining so'z qo'llash mahorati tufayli namoyon qiladi. So'z qo'llashning san'at darajasida ekanligini baholash, eng avvalo, so'z, uning ma'nosi va bu ma'noning tuzilishini aniq tasavvur etish, anglash bilan bog'liq. Shuning uchun ham she'riy nutqdagi badiiy so'z boshqa so'zlar bilan sintagmatik munosabatga kirishar ekan, turli uslubiy bo'yoqlar, she'riy janrga xos nozik ma'no ottenkalarining o'zaro munosabati pragmatik ma'noni shakllantirish uchun xizmat qiladi.

She'riy kontekstda badiiy bo'yoq olgan, turli rang-barang ma'no ifodasi uchun xizmat qiladigan lug'aviy birliklar ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi, kontrast holatlarni yuzaga keltiradi, sujet mukammalligi uchun xizmat qiladi, tagma'no ifodasi birinchi planga chiqadi. Masalan, Ulug'bek Hamdamning "Yomg'ir yog'ar" she'rida:

Yomg'ir yog'ar, men-chi, tinaman!
Yomg'ir yog'ar, yashagim kelmas.
Yomg'ir yog'ar, esdan chiqar tan,
Yomg'ir yog'ar, qayg'u ham abas, –

satrlarida "yomg'ir yog'ar" birikmasi har bir misra boshida anafora tarzida bir xil takrorlanib kelgan bo'lsa-da, uni o'qigan kitobxon har bir misradagi *"yomg'ir yog'ar"* birikmasi zamirida turli xil mazmun yashiringanligini ilg'ab oladi:

– ***birinchi bandning birinchi misrasida*** yomg'irning yog'ish harakatiga lirik qahramon harakatining "men-chi, tinaman!" tarzida qarama-qarshi qo'yilishi hayotdagi turli xil illatlar, nohaqliklar oldida lirik qahramonning ojiz ekanligini ko'rsatadi. *Men* – kishilik olmoshi bilan *-chi* so'roq yuklamasi hamda *"tinaman!"* so'zining undov, xitob bilan aytilishi "yomg'irga" qarshi turolmagan lirik qahramonning ichki tug'yonini anglatadi. Bu ichki tug'yon, norozilik nutqiy aktni yuzaga keltiradi;

– ***ikkinchi misrada*** birinchi misradagi holat junbushga keladi. *"yomg'ir yog'ar"* birikmasi orqali ifodalangan illatlar, nohaqliklarning haddan ziyod ko'pligidan lirik qahramon *"yashagim kelmas"*, deb faryod chekadi. Bunda e'tiroz nutqiy akti yuzaga chiqadi;

– ***uchinchi misrada*** *"yomg'ir yog'ar"* birikmasi zamirida hayotdagi illatlar, nohaqliklar lirik qahramonni o'zini unutish, misrada ifodalanganidek, *"esdan chiqar tan"*darajasiga olib keladi;

– ***to'rtinchi misra*** – *"Yomg'ir yog'ar, qayg'u ham abas"* (**qayg'u** – boshga tushgan ruhiy azob, g'am, musibat; ***abas*** – *behuda, foydasiz*)da lirik qahramon hayotdagi nohaqliklar oldida ruhiy azob, g'am chekish foydasizligini anglab yetadi.

So'zlar kontekstda o'zining funksional qo'llanish o'rnini o'zgartirishi bilan atash semasi o'rnida so'zlovchining konkret munosabatini bayon qiluvchi ifoda ma'nosi birinchi darajali mavqeni egallaydi. Bunda so'zning "lug'aviy" ma'nosi ifodalanmishning mazmunini aniqlash uchun xizmat qilsa, kontekstual ma'nosi material ifodalagan belgining biror maqsadga yo'naltirilganligini bildirib keladi.

Binobarin, fikrning semantik-sintaktik qurilishi umumiy holda muallifning kognitiv bilimi va kommunikativ maqsadlarini o'z ichiga oluvchi pragmatik tajribasini aks ettiradi. She'riy matnda shoirning qabul qiluvchi uchun muhim bo'lgan ma'lumotni uzatishi, qabul qiluvchiga yetkazishi til birliklarida namoyon bo'lsa, axborotni qabul qiluvchining qay tarzda qabul qilishi va unga bo'lgan munosabati poetik pragmatikani yuzaga keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jaloliddin Rumiy. Fihi ma fihi. / Islom tasavvufi manbalari. – Toshkent: O'qituvchi, 2005. 186–191-betlar.
2. Abdurahmon Jomiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
3. Блок А. Записные книги. – Москва: Художественная литература, 1965.
4. Вандриес Ж. Язык. – Москва, 1937.
5. E.Begmatov, A.Madvaliyev.O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti.
7. To'ra Sulaymon. She'rlar. oriftolib.uz.htm

Gulnoza AHMEDOVA,
Toshkent pediatriya tibbiyot instituti
O'zbek, rus va lotin tillari kafedrasi
katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari nomzodi

NUTQIY MULOQOT MADANIYATINI O'RGATISHNING LINGVODIDAKTIK ASOSLARI

Nutqiy muloqot turli ta'lim bosqichlarida farqli lingvodidaktik asoslarda kechadi. S.I.Lvovaning ma'ruzachi nutqiga nisbatan aytgan fikrlarini dialogik nutqqa ko'chiradigan bo'lsak, teng saviyadagi suhbatdoshlar darslarda o'rganilayotgan til hodisalari hajmida gapirsa, katta yoshdagilar bilan so'zlashganda farqli til hodisalaridan foydalanishlariga to'g'ri keladi. O'zaro so'zlashayotganlar, odatda, biror masala atrofida fikr almashadilar. Bir-biriga savol berib, javob qaytarayotgan o'quvchilar mavzudan chetga chiqmaslikka harakat qilishlari, uni yodda tutishlari kerakki, bu narsa ikki tomonning bir-birini anglashi, shunga tayyorgarlik ko'rishida muhim rol o'ynaydi. S.I.Lvovaning ta'kidlashicha, "Suhbatdoshni qiziqtiradigan narsalar haqida savol berish, javobda shunga loyiq faktlar keltirish kerak. O'z suhbatdoshining qiziqishini nazarda tutish, unga e'tiborli bo'lish, samimiylik bilan muomala qilish, ichki madaniyatini namoyon etish lozim". E'tiborlilikni so'z bilan bildirib turishga doir ("Yaxshi", "Zo'r", "Qoyil!") etiketlar turli xalqlarda farqlanadi. Muloqot chog'ida buni qandaydir yo'l bilan hisobga olishni o'rgatish kerak. Suhbatdoshiga e'tiborlilikni ifodalovchi birliklarni gapirib turish ham muomala odobini egallaganlik, ya'ni madaniyatlilik belgisi sanalishi tabiiy. Muloqotning bu kabi tashkiliy omillari o'ziga xos vositalar, so'z shakllari, nutqiy qoliplar asosida amalga oshiriladi.

Fikr almashinuv jarayonida aytilayotgan gaplarga befarq kishi bilan suhbat davomli bo'lmasligi aniq. Binobarin, u o'zi kutgan yangi ma'lumotga ham ega bo'la olmaydi. Tashkiliy omillarning bir qismi suhbatdoshlarni axborot almashinuviga da'vat etmasa, boshqa bir qismi shunga yaqinlashadi. So'zlovchining o'z suhbatdoshiga bo'lgan e'tibori uning diqqatini tortish, salomlashish, tanishish, xayrlashish, kechirim so'rash, minnatdorchilik bildirish, tabriklash, taklif, iltimos, ma'qullash, norozilik, maslahat berish, kompliment tashlash (gap otish) kabi luqmalarida namoyon bo'ladi. Qiyoslang: *Afv eting, valine'mat! Befarosat iningizni afv eting. Ofarin!* (O.Yoqubov). Bunday hollarda so'zlovchining ovoz ohangi o'ziga xos bo'lib, u muayyan vaziyatdan kelib chiqqan holda *rasmiy, norasmiy, betaraf (neytral), familyar, dabdabali* kabi shakllarda bo'lishi mumkin. Yana qiyoslang: *Mayli, ular bilan o'zimiz gaplashib olamiz, – dedi Kartashov kulib.* (S.Zunnunova)

Luqmalardan ba'zilari *odatdagi doimiy* (masalan: *Iltimos. Bir savob ish qilgin. Rahmat*), ba'zilari esa *doimiy bo'lmagan individual* (masalan: Qani, qani-qani, xo'sh-xo'sh) hisoblanadi. Mazkur nutqiy vositalarning emotsional bo'yog'i o'quvchilarga ona tili orqali yaxshi tanish.

Tilshunos olima S.Xoldorovaning fikricha, takrorlar luqmalarni birlashtiradi. Masalan:

– *Kimga yozaman?*
– *Kimga?*

Takroriy luqmalar dialogik birlik sirasiga kiritilmaydi. Bunday luqmalar tinglovchining so'zlovchi fikriga munosabatini ifodalaydi. Masalan:

– *U darsga kech qolibdi.*
– *U darsga kech qolibdimi?*

Ushbu ikki luqma birinchisining ikkinchisida shakliy o'zgargan holatini ifoda etadi, lekin u yangi sintaktik birlik emas. Ba'zan bunday takrorlar suhbatdosh aytgan fikrni tasdiqlash, ba'zida esa unga aniqlik kiritish yoki qo'shimcha qilish mazmunida bo'ladi, ya'ni suhbatdoshning luqmasi aynan emas, qisman o'zgartirilgan holda takrorlanadi.

Savol va javoblar shaklidagi luqmalarning sintaktik qurilishi yoritilgan nomzodlik dissertatsiyasida A.Hazratqulov to'liqsiz gaplar haqida gapirib, shunday xulosa qiladi: *"Dialogik nutqda to'liqsiz gapning bitta shakli bor: kontekstual to'liqsiz gap".*

Metodist olim R.O.Nabiyevaning e'tiborini tortgan narsa shu bo'ldiki, dialog-bahs ba'zan suhbatdoshlardan birining nimanidir tushuntirib berishi yoki suhbatdoshi bilan biron narsa haqida tortishishi tarzida kechganda, u ishlatadigan luqma, ko'pincha, monologik nutq shaklini ifoda etadi, ya'ni aksariyat holatlarda biri ikkinchisining gapini ilib olib, o'z fikrlarini bildirishga o'tib ketmaydi. Bunda dialogik luqma bir gapdan emas, bir necha gapdan tuziladi, lekin to'lig'icha monologik nutqqa aylana olmaydi.

Dialogik nutq, ko'pincha, shunday izchillikda tuziladiki, undagi luqmalardan biri tayanch, ya'ni suhbatni davom ettirishga yo'naltirilgan xarakterda bo'lib, ikkinchisi unga javob reaksiyasini bildiradi.

Xullas, muloqot kommunikativ jarayonga nisbatan boy. U o'quvchilaring axborot almashinuv jarayoni bilangina emas, balki amaliy harakatlar asosida o'zaro bir-birini tushunish, tarbiyalash elementlari bilan bog'liq holda olib boriladi.

Ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablarning o'zbek tili darsliklari tahlil qilinganda, ularda berilayotgan qolip-gaplar (ko'p miqdorda) aksariyat topshiriqlarning asosini qamrab olganligi quvonarli hol, lekin ularning tahlili bu imkoniyatlarning ko'pidan foydalanilmay qolayotganligini ko'rsatdi. O'zbek tilini o'qitish jarayoni,

dars bosqichida har bir ish turini maqsadga muvofiq tashkil etish uchun ana shu maqsad o'quvchiga ma'lum bo'lishi, ana shu maqsadga erishish sari aniq mo'ljal bilan ish olib borish kerak.

Umuman, o'quvchilarning o'zbek tilidagi nutqiy muloqot madaniyatini shakllantirish ham kichik-kichik maqsadlarga mos bilim, malaka va ko'nikmalar ko'rinishidagi parametrlar sifatida oldindan belgilab chiqilishi kerak. Masalan, dialogdagi luqmalar mazmuni ham alohida birliklarni tashkil etadi. Nutqiy muloqot faqat savol-javoblardangina iborat emas, albatta: suhbatdoshni eshitish, javobdan so'ng aks savol berish, savolni rad etish, suhbatdoshning savoliga aks savol bilan murojaat etish, uni biror ish-harakatga undash, taklif qilish kabi turli shakllar va mazmunda o'tadi. Bunda turfa leksik va grammatik vositalar, qolip-gaplardan foydalaniladi.

Nutqiy muloqotga kirishish, nutq madaniyatiga rioya etish uchun muayyan bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lish talab etiladi. Bunday ma'lumotlar nutqiy muloqotni o'rgatishga doir ish usullari, mashq turlari, ularning miqdori va takrorlanuvchanligini bashorat qilish, belgilash, ta'lim jarayonini tashxislab borish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Набиева Р.О. Обучение ситуативному диалогу в речевом общении на занятиях по русскому языку в 5–6-х классах таджикской школы. Дис. … канд. пед. наук. – Ташкент, 1998.
2. Плещенко Т.П., Федотова Н.В., Чечет Р.Г. Стилистика и культура речи: Учебное пособие / Под ред. Шубы. – Минск: Тетра Системс, 2001. – 544 с.
3. Хазраткулов А. Диалогическая речь в современном узбекском литературном языке. Автореф. дис. ...канд.филол. наук. – Самарканд, 1966. – 20 с.
4. Халдарова М.С. Семантико-структурные особенности диалогической речи в современном узбекском языке. Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Ташкент, 1974. – С. 19.

Feruzaxon KARIMOVA,
O'zRFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori
instituti ilmiy xodimi

DIALOGIK NUTQNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Dialogning paydo bo'lishi insoniyatga nutq berilgan davrdan boshlangan bo'lsa-da, uning termin sifatida qo'llanilishi qadimgi antik davrlarga to'g'ri keladi. Yunon faylasuflarining ommani o'ziga jalb etuvchi nutqlari dastlab dialogik shaklda bo'lgan. Tarixda ritorika va omma oldida chiqish bilan shug'ullanuvchi maxsus va'zxonlik musobaqalari uyushtirilgani barchamizga ma'lum. Ushbu jarayonda jonli savol-javob tariqasida nozik ma'noli va ayyorona dialoglardan oqilona foydalanilib maqsadga erishilgan. Ommani o'z ortidan ergashtirish vositasi sifatida qizg'in monologik va dialogik nutqlar qo'llangan. Birinchi bo'lib dialog terminining qo'llanilishi Eley maktabi namoyandasi Zenon nomi bilan bog'lanadi. U dastlab dialog shakli orqali falsafiy masalalarni bayon qilgan. Undan ilhomlangan Platon, Suqrot va Aristotellar ham falsafiy dialoglar yozganlar. Keyinroq mashhur notiq Sitseron o'zining "Orator" nomli dialogi bilan shuhrat qozongan va bu janrning keng yoyilishiga o'zining munosib hissasini qo'shgan.

O'zbek tili tarixida esa ilk dialogik shakldagi bahslar, tortishuvlar munozara janrini vujudga keltirdiki, bu janrning til xususiyatlari va badiiy qimmati hanuzgacha saqlanib kelmoqda. M.Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asaridagi "Qish va Yoz munozarasi", Yusuf Amiriyning "Chog'ir va bang" asari, Yaqiniyning "O'q va Yoy munozarasi" kabilar shular jumlasidan. [2: 5]

A.Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonidagi mashhur Farhod va Xisrav dialogidagi teran mazmun va zukko hozirjavoblik daho shoirning xalqimiz tabiati va badiiyatiga ko'chirgan ulkan iste'dodidan darak beruvchi hamda o'zbek tilining serjilo qirralarini namoyish eta olgan lison namunasidir:

Dedi: Qaydin sen, ey majnuni gumroh?
Dedi: Majnun vatandin qayda ogoh?

Dedi: Nedur senga olamda pesha?
Dedi: Ishq ichra majnunlik hamisha.

Dedikim, ishq o'tidin de fasona?
Dedi: Kuymay kishi topmas nishona.

Dedikim, kuymakingni ayla ma'lum.
Dedi: Andin erur shoh ahli mahrum.

Dedi: Qay chog'din o'lding ishq aro mast,
Dedi: Ruh ermas erdi tanga payvast.

Zamonaviy tilshunoslikda dialogik nutq butun bir amaldagi nutqiy harakatlar birligi sifatida tadqiq etiladi va undagi ishtirokchilarning ruhiy holati hamda aqliy olami mushtarakligi, nutq so'zlanayotgan vaziyat, ohang, imo-ishora kabi tildan tashqari holatlar ta'siri ham hisobga olingan holda tahlil etiladi. Shu bilan birga dialoglarni xarakterlovchi belgilardan biri shakliy va mazmuniy siqiqlik bo'lib, kuzatishlardan ma'lum bo'ladiki, suhbatdoshlarning o'zaro bir-birlarini yaxshi bilishlari, olam haqidagi bilimlarining umumiy foni suhbatning verbal tomoni qisqarishiga olib keladi. Kinetik ifodalanishlar oldinga qarab siljiy boradi.

Misol:

– Sulton aka? – do'rildoq tovush telefon trubkasini zirillatib yubordi.

"Abdulla! Qayerdan bildi? Obbo!"

– Salom, – dedi dovdirab.

– Sulton aka, o'zingizmisiz? – Bu safar jiyanining ovozi hiyla ishonchli eshitildi.

– O'zim, Abdullajon.

– E, yashang-e! Shunaqa bo'ladimi! Ayting, bizning gunohimiz ne? (X.Sultonov, "Ajoyib kunlarning birida")

Mazkur suhbat ishtirokchilarining qarindoshlik, qadrdonlik, hurmat kabi milliy belgilariga ko'ra dialog qisqa ifodalanishga ega bo'ldi. Keltirilgan belgilarsiz dialogning to'liq verbal ifodasi quyidagicha bo'lishi mumkin edi:

– Allo.
– Allo.
– Assalomu alaykum.
– Assalomu alaykum. Sulton aka kerak edi, sizmisiz?
– Menman. Siz kimsiz?
– Abdullaman.
– Qachon keldingiz?
– Kecha keldim.
– Nega xabar bermadingiz?
– O'zim.
– Xafa bo'ldim. Yashang-e, shunaqayam bo'ladimi! Ayting, bizning gunohimiz ne?

Misolda tog'a-jiyan his-tuyg'ulari muloqot jarayonining ixcham tus olishiga qanchalik sabab bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Qarindoshlik belgilarigina emas, ruhiy yaqinlik sabab ham ular nutqidagi shakliy ifodalanishlar qisqarib, mazmuniy jihatdan oldinga chiqmoqda.

Yana bir misol:

Yuzi shishinqiragan, ko'zlari ich-ichiga cho'kkan, ko'ylak-shimi g'ijim bir kimsa, Ramazon!

– Ha?! – dedim hovliqib, tahlika bilan.

– Keldim.

– Qanday? Hali, hali... vaqt bor-ku?!

Birinchi suhbatdoshning (Ramazonning do'sti) jumlasi "Ha?!" so'roq-taajjub ma'nosidagi so'z-gapdan iborat. Mazmunan (ishtirokchilarning oldingi umumiy bilimlariga ko'ra) "Sen nima qilyapsan bu yerda?" yoki "Qamoqda eding-ku?!" gapiga hamohang, mazmunan shunga teng. Savol bu tarzda qo'yilmay, yuqorida nutqiy vaziyat (suhbatdoshlarning umumiy ruhiy-ijtimoiy holati haqidagi belgilar) berilganligi uchun savol beruvchi niyatini birgina "Ha" so'z-gapi bilan ifodalayapti. Chunki ushbu nutqiy vaziyatda bu so'z-gapning kommunikativ qimmati yetarli. Boshqacha aytganda, "Ha"ning ichida "Sen nima qilyapsan bu yerda? Qamoqda eding-ku?!" gaplari mavjud. Bunday yopiq holdagi mazmunni mantiqshunos va tilshunos G.P.Grays "imlikatura" termini bilan atagan edi [1: 219–220]. Implitsit (yashirin) tarzda ifodalanish eksplitsit (ochiq) tarzdagi ifodalanishga qarama-qarshi qo'yiladi. Imlitsit ifodalanishlar dialog jumlalariga siqiqlik bilan birgalikda tafakkurdagi harakatlanishni jalb etadi, ma'noni chaqishga xohish va ishtiyoqni uyg'otadi. Tinglovchini hushyor va e'tiborli qiladi. Bu dialogning jonliligi va hayotiyligini ta'minlaydi. Implikatura inglizcha "bog'lanish", "aloqa" ma'nolarini anglatadi. Bu jarayon muloqotda ishtirokchilar uchun oldindan ma'lum bo'lgan umumiy bilimlar orqali keladigan ma'noga ishorani anglatadi. Ko'pincha bunday yashirin, ishoraviy suhbat jarayoni ma'lum bir guruhdagi, umumiy ish faoliyatidagi, bir-biriga o'zaro majburiy-ixtiyoriy bog'lanishi bor suhbatdoshlar orasida kechadi. Ularni umumiy "ssenariy"da mushtarak bog'lab turuvchi maqsadlar birlashtiradi. Shu o'rinda dialoglardagi birgalik, umumiy maqsad uchun harakat qiluvchi shaxslarning nutqiy qadamlari umumiy yo'l orqali manzilga intilayotgan yo'lovchilarni ko'z oldimizga keltiradi. Har bir "yo'lovchi"ning alohida va umumiy maqsadlari mavjud bo'lib, ular muloqot jarayonida yanada oydinlashib boradi. Umumiylik tamoyiliga bo'ysunish ishtirokchiga aylanish sharti bo'lib xizmat qiladi. Dono xalqimiz tili bilan aytganda: "Biz bir kemadamiz", degan naqlni eslatadi. Ishtirokchilarning aqliy va ruhiy yakdilligi "manzil"ni yaqinlashtiradi, yangi "manzillar"ga yo'l ochadi. Aksincha holatlarda muvaffaqiyatsiz muloqot yuzaga keladi. Insonlar bir-biridan uzoqlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Грайс Г.П. Логика и речевое общение. НЗЛ. Вып. XVI. – Москва: Прогресс, 1985.
2. Muborak maktublar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987.
3. www//http//hrono/ru/biograf/bio_z/zenoneleat/php

Intizor ABDIRIMOVA,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

TA'LIM TIZIMIDA KLASTERNING O'RNI

Jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlar nafaqat sanoat, qishloq xo'jaligi, balki ta'lim sohasini ham qamrab olmoqda. Mamlakat taraqqiyoti bevosita o'sha millat va jamiyat a'zolarining yuksak intellektual salohiyati, vatanparvarlik tuyg'usi hamda ta'lim-tarbiyaga berilgan e'tibor bilan chambarchas bog'liq. Demak, qayerdaki yuksalishni ko'rsak, buning zamirida o'sha davlatdagi o'qitish, ta'limga ajratilgan ma'naviy, iqtisodiy e'tibor turishini anglash qiyin emas.

XX asrga kelib yangi soha – yangiliklar kiritish haqidagi fan paydo bo'ldi. Bu fan doirasida moddiy ishlab chiqarish sohasiga texnik yangiliklar kiritish qonuniyatlari o'rganila boshlandi. Yangiliklar kiritish haqidagi fan faoliyati yangicha ta'lim tizimiga o'tish yo'lidagi harakatlar bilan asoslanadi. Shunga ko'ra yangi bilimlarga ehtiyoj yangilik, innovatsiya, innovatsion xizmat ko'rsatish g'oyalarini tatbiq etishga qaratilgan ehtiyojdan kelib chiqqan. Mamlakatimizda yuz berayotgan tub o'zgarishlar jamiyat hayotining barcha sohalarini yangicha innovatsion yondashuvlar asosida qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. Istiqlol yillarida ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida qator samarali ishlar amalga oshirildi, biroq ta'lim muassasalari bir-biridan uzilgan holda yagona maqsadga erishish usullarini aniq belgilay olmaganliklari, ular o'rtasidagi integratsiya, mantiqiy davomiylik ko'p ham inobatga olinmaganligi natijasida "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"dagi talablar to'liq bajarilmadi.

Shundan kelib chiqqan holda bugungi kunda ta'lim tizimidagi muammolar va ularni hal qilishda pedagogik ta'lim innovatsion klasteri tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq. Ta'lim klasterining maqsadi ta'lim va ilmiy jarayonlarni takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, ta'lim berish, o'quv adabiyotlarini yaratish, pedagogik kadrlar ilmiy salohiyatini oshirish, ta'lim va tarbiya uzviyligi bilan bog'liq umumiy yo'nalishlarda faoliyat olib boradi.

Pedagogik ta'lim klasteri – muayyan geografik hududning raqobatbardosh pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida bir-biri bilan uzviy aloqadagi teng huquqli alohida subyektlar, texnologiyalar va inson resurslarining integratsiyalashuvini kuchaytiruvchi mexanizm. Klaster tizimi subyektlari bir-birlarini qo'llab-quvvatlagan holda yagona maqsad atrofida birlashadi. Ta'lim klasterini shakllantirish esa viloyat, shahar, tumanlar kesimida yagona aloqa-axborot almashuv, aniq maqsadga yo'naltirilgan yo'l xaritasi asosida faoliyat olib borishdir. Masalan, ona tili va adabiyot fanini o'qitishda umumta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimidagi soha mutaxassislarini o'zaro hamkorlikda fan dasturlari, darsliklar mazmuni, ta'lim standartlari va boshqa jihatlarni uyg'unlashtirish asosida yetuk kadrlarga bo'lgan talabni qondirishda faol ishtirok etishga yo'naltirishdan iborat.

Ijtimoiy jarayonlarning yuksak dinamikasi, ulkan axborot oqimi va kundalik hayotning texnologiyalashuvi sharoitida zamonaviy insonning asosiy belgilaridan biri uning bilim, malaka va ko'nikmalarini amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir. Buning uchun davlatimizda yetishib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi, ta'lim sifati muhim o'rin egallaydi. Yosh avlodning ta'lim-tarbiyasiga e'tibor qaratish davlat rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham 2017–2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi ishlab chiqildi. Eng avvalo, maktabgacha ta'lim muassasalarini moddiy-texnik bazasini tubdan yangilash, zamonaviy tipdagi maktabgacha ta'lim muassasalarini tashkil qilish, tarbiyaga yangicha yondashuv konsepsiyalari ishlab chiqish bosh maqsad qilib qo'yildi.

Ona tili va adabiyot fani misolida ta'lim tizimiga klasterni joriy etish tamoyillari sifatida quyidagilarni tavsiya etish mumkin:

– umumta'lim maktablaridagi ona tili va adabiyot fanlariga doir o'quv dasturlarini o'rganib, pedagogika oliygohlari o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishidagi namunaviy fan dasturlari hamda o'quv rejalarini takomillashtirish yuzasidan takliflar berish;

– iqtisodiy tarmoqlar muammolari yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib boruvchi ilmiy tekshirish institutlarining amaliy va fundamental loyihalari bilan tanishish va olingan ma'lumotlar asosida pedagogika oliygohlari o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishidagi namunaviy fan dasturlari, o'quv rejalarini takomillashtirish yuzasidan takliflar berish;

– ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari o'rtasida mediaforum tashkil qilish.

Bunday yaqin hamkorlik bir maqsaddagi ta'lim obyekti va subyektlari faoliyatida ijobiy samara beradi. Ta'lim sifati oshadi, darslik va majmualardagi har xilliklarga barham beriladi. Ilmiy-amaliy seminarlar, mediaforumlar natijasida umumta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim orasidagi ilmiy va ma'naviy masofa yaqinlashadi. Yagona integratsiyalashtirilgan ma'lumotlar bazasi yaratiladi, monitoring qilish osonlashadi, viloyat o'quvchilari va o'qituvchilari haqidagi ma'lumotlarning yakdilligiga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O.Mallayev. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2000.
2. M.A. Mahkamova. Innovatsion texnologiyalar boshqaruvi. Monografiya. – Toshkent: Aloqa, 2011.
3. Г.Б.Болоний, В.Ю.Лыскова. Кластерный подход и его использование в научно-педагогических исследованиях // Вестник ТГУ, Т. 16 вып. 1. 2011.
4. Porter M. Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors, Cambridge, 1980. 454 pages.
5. Шамова Т.И. Кластерный подход к развитию образовательных систем // Взаимодействия образовательных учреждений и институтов социума в обеспечении эффективности, доступности и качества образования региона: Материалы 10-го Международного образовательного форума (Белгород, 24–26 окт. 2006 г.): в 2 ч. / БелГУ, МПГУ, МАНПО; отв. ред. Т.М.Давыденко, Т.И. Шамова. Белгород: Издательство БелГУ, 2006. Ч. 1. – С. 24–29.
6. Шарай Н. Кластерный подход в интеграции. УГ Москва, №15 от 14 апреля 2015 года.

Siroj FAZILOV,
Samarqand viloyati Toyloq tumanidagi
26-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

XALQ OG'ZAKI IJODI VA ZAMONAVIY DOSTONCHILIK

XX asrning ikkinchi yarmida o'zbek dostonchiligida nasr va nazm uyg'unligida yozilgan dostonlar soni ortdi. O'ndan ortiq bunday dostonlar faqat barmoq vaznida yozilgani, asosiy voqealar nasrda, asar qahramonlarining kechinmalari nazmda berilganligi jihatidan ajralib turadi.

Ularda xalq dostonlariga xos an'anaviy motivlar, obrazlar, baxshiyona ohang kuzatiladi. Eng muhimi, xalq dostonlari singari omma madaniy-maishiy turmushi, orzu-istaklari bilan bog'liq voqeliklarni keng ko'lamda badiiy ifoda etish xususiyati davr dostonlarini tark etmadi. Aksincha, uning mavzular qamrovi, obrazlar tizimi yanada kengaydi.

Davr dostonlarida tarixni xalqona tushunish va tushuntirishga, uni jonlantirishga intilish istagi kuchaydi. Shundan kelib chiqib, millatimiz boshidan kechgan va kechayotgan ijtimoiy-siyosiy voqealarning, erk va ozodlik uchun olib borilgan kurashlarning tarixiy mohiyati badiiy bayon etila boshlandi. Natijada dostonda haqiqiy hayot manzaralari bilan shoir qalb kechinmalari, o'tmish xotirasi-yu bugungi voqeligi, kelajak xayoli-yu avlod taqdiri, milliy qadriyatlarimiz, e'tiqodiy qarashlarimiz – barcha-barchasi xuddi xalq eposidagi kabi qomusiy bir tarzda yaxlit poetik tizimga tushirila boshlandi. Faqat bu xalq dostonlarida omma fantaziyasi asosida umumlashtirilsa, davr dostonlarida lirik qahramon dunyoqarashi va kechinmalari orqali bayon etildi.

Jumladan, To'ra Sulaymonning "Qorasoch" dostonida voqelik deyarli boshdan-oyoq nasr va nazm uyg'unligida saj' vositasida aks ettirilgan. Adabiyotimizda ayol sadoqati haqidagi asarlar alohida tizimni tashkil etadi. "Qorasoch" dostonida ham shu g'oya ifoda etilgan. Dostonning bosh qahramoni ruhiy-ma'naviy jihatdan S.Zunnunovaning "Ruh bilan suhbat", Mirtemirning "Surat" asarlaridagi qahramonlarga yaqin. Faqat T.Sulaymon uslubining ohorli jihati voqelikni xalq dostoni usulida bayon etganida namoyon bo'lgan. Bu esa shoirga urush yillarida xalqimizning front orqasida turib ko'rsatgan mehnat qahramonliklarini xalq eposidagi kabi ko'lamdor, batafsil tasvirlashga yo'l ochgan. Unda xalq dostonlariga xos quyidagi jihatlar bo'rtib turadi.

Qahramonning tug'ilishidan boshlab to kamolga yetgungacha kechgan voqealar tizimi (Qorasochning tug'ilishi, voyaga yetishi, o'z muhabbatini topishi, farzandi baxti uchun kurashishi) an'anaviy motivlarda beriladi.

Dostonning nasr qismida voqelik boshdan-oyoq saj' usulida bayon qilingan.

Bu esa xalq dostonlariga xos an'anaviy usuldir. Buni dostonning dastlabki sahifalaridan to so'ngigacha kuzatish mumkin.

Masalan: "Zambarak to'pchilarimiz, nayzali o'qchilarimiz, osmonda uchuvchilarimiz, yerda qiruvchilarimiz dushmanning dodini berib tura bersin. Endi gapni oqtovliklardan – baxshili-botir yurtdan, har mushkulni hamisha yengishga qodir yurtdan, o'ktam bahodir yurtdan, ko'rmagan, bilmagan tamom armonda yurtdan eshiting"[1].

E'tibor berilsa, parchadagi "to'pchilarimiz", "o'qchilarimiz"; "uchuvchilarimiz", "qiruvchilarimiz"; "botir", "qodir", "bahodir" singari ifodalar ichki ohangdorlikni vujudga keltirishdan tashqari epik bayon usuliga ham aylangan.

Asar hajm jihatidan birmuncha salmoqli. Dostonda Qorasochning front orqasida turib turmush o'rtog'i Noryigitga, jangchilarga madad bo'lishi, frontga iqtisodiy yordam qilishi, bitta-yu bitta o'g'lini ham ota, ham ona bo'lib tarbiyalab voyaga yetkazishi voqealari, ayollar va qariyalarning shijoatli mehnati, urushdan keyingi yillardagi hayot oqimi xalq dostonlaridagi kabi keng, nasr va nazm uyg'unligida aks ettirilgan.

Adabiyotshunos G'.Mo'minov "Qorasoch" dostoniga munosabat bildirar ekan, yozadi: "Dostondagi kamchiliklardan biri shundaki, u hozirgi zamon dostonchiligida keng qo'llanuvchi (voqeadan voqea chiqaruvchi va yagona sujetni tashkil etuvchi) epizodlar, situatsiyalarni bir zanjirga tizmoqchi bo'lgan. Lekin asarning umumiy qurilishi, bayon usuli folklordagi traditsion doston uslubida qurilgani uchun negadir o'zini oqlamaydi"[2]. Bunda u Begjon suyuq bilan bog'liq epizodning asardagi umumiy voqealar tizimiga singishmaganligini misol qilib keltiradi. Haqiqatan, mazkur epizod asar sujetidan uzilib qolganday taassurot uyg'otadi. Shu ma'noda G'.Mo'minov mulohazalariga qo'shilish mumkin.

Saj' usuli o'zbek dostonchiligida nazm va nasr uyg'unligida yozilgan dostonlarning nasr qismida uchraydi. Biroq asarda tasvirlangan voqelikning boshidan oxirigacha saj' usulida bayon etilishi To'ra Sulaymon badiiy mahoratining betakror qirrasi sifatida o'zbek dostonchiligi sahifalarini boyitdi.

Erkin Vohidovning "Orzu chashmasi" dostonida *xalq dostonlarining motivlari* qo'llanilganligi kuzatiladi. Bu asardagi voqelikning epik talqinida yaqqol ko'rinadi. Jumladan, Orzu Og'ado'stga bo'lgan ishqini qanday bildirishni bilmay, chashmadan maslahat so'raydi.

Chashma unga sevgi xatini yozib, gulbarg qatiga joylab, suvga oqizishini o'rgatadi. Odatda, xalq dostonchiligidagi epik tasvirga ko'ra qizning o'z sevgisini oshiq yigitga turli ramziy belgilar orqali ayon etishi, uni suv yo'li orqali oshiq yashaydigan manzilga uzatishi motivi an'anaviydir. Bu motiv "Kuntug'mish" dostonida ham uchraydi. Xolbeka Kuntug'mishni tushida yaxshi ko'rib qoladi; suratkashga rasmini chizdirib, o'zi yasatgan tilla sandiqda uni daryoga oqizadi[3]. Ko'rinadiki, mazkur epizodlarda mohiyatan yaqinlik bor. Shoir shu xalqona motivdan ijodiy foydalangan holda zamonaviy voqelikni ishonarli ifoda etishga erishgan.

Oydin Hojiyevaning dostonchilikdagi izlanishlarida o'ziga xos adabiy hodisa bo'lgan "Najot" dostonida ham yuqorida qayd etilgan jihatlar kuzatiladi. Unda "Malikai ayyor" xalq dostoni motivlaridan ijodiy foydalanilgan. "Malikai ayyor" dostonida hikoya qilinishicha, Go'ro'g'li qush ovlashga borganida bir ko'k kaptar paydo bo'ladi-yu atrof birdan yorishib ketadi[4]. Bu Malikai ayyor edi.

O'zga olam vakilining qush ko'rinishida yorug' olamga kirib kelishi motivi asosida insonlarning o'lim, ruhiy olam, o'zga dunyo haqidagi ibtidoiy mifologik tushuncha-qarashlari yotadi. Bunday qarashlar folklor orqali yozma adabiyotga kirib kelgan. Dostonda pari qiz Malikai ayyorning yer osti dunyosidan yorug' olamga kaptar ko'rinishida kelishi motivi aynan shunday tushunchalarning badiiy ifodasidir. Ushbu adabiy-estetik an'anadan xabardor shoira o'z asarida afg'on urushi manzaralarini aks ettirar ekan, unda *murg'i samandar* obrazi orqali janggohlarda halok bo'lgan o'zbek yigitlari ruhi timsoliga ishora qiladi. Shu o'rinda shoiraning folklor va mumtoz adabiyot an'analarini o'zaro omuxtalashtirgani ham seziladi. Binobarin, u "murg'i samandar" timsoli vositasida o'z kelajagini olovda ko'rgan qush timsolida kommunistik mafkura aldovlari ruhida tarbiyalangan minglab o'g'lonlarning o'z o'limini his etgan holda olovli jangga kirganlarini aytishga chog'lanadi.

Shoira yana o'tgan asr 70-yillaridagi "paxta yakkahokimligi" natijasida katta-katta bog'larning, ekin maydonlarining buzib tashlanishi va o'rniga paxta ekilishi voqealarini xalq dostonlariga xos saj' usulida tasvirlaydi: "Xullasi kalom", "otang – paxta", "onang – paxta" *zamon* bo'lib, yosh-u qari paxtaga *andarmon* bo'lib, kelinchaklari rangi *somon* bo'lib, go'daklari *ramaqijon* bo'lib, iligi puch bo'lib *o'saverdi,* ko'zlarini paxtaning gardi *to'saverdi*"[5].

Agar bunda shoira saj' yaratish uchun qo'llagan so'zlar bir qatorga (masalan: *zamon, andarmon, somon, ramaqijon; o'saverdi, to'saverdi)* tizib chiqilguday bo'lsa, ularning faqatgina ohangdoshlik uchun emas, aslida asarda tasvirlanayotgan tarixiy-ijtimoiy hayotni aniq tasavvur qilish uchun kalit so'zlar vazifasida keltirilgani ravshanlashadi. Yoxud boshqa bir o'rinda shoira yana yozadi: "Qayta qurish shamoli esib, umid nihollari kurtak yozib, o'zbek o'zini insonday sezib, tomirlarida bobolari g'ururi sizib, uvishib qolgan qoni qizib, loqaydlik zanjirlarini uzib, o'z yurtimga bek bo'laman deb yurgan zamoni".[6] Parchadagi *esib, yozib, sezib, sizib, qizib, uzib* fe'llarining sajlantirilishi orqali yangi davr shabadalari esayotganda mudroqlikdan uyg'onish, berilgan imkoniyatni sezish, ajdodlarimiz kabi hamisha erkin va ozod bo'lish uchun kurashish, mustabid tuzum zug'umidan qutulish va o'zlikni anglash asosiy maqsadga aylanishi lozimligini uqtirish ko'zda tutilgan.

Xulosa qilib aytganda, xuddi xalq dostonlaridagi kabi bunday asarlarning nasriy qismini bevosita saj' bezab turadi. Bunday asarlar yaratish garchi tipik hodisa darajasiga ko'tarilmagan esa-da, janrning taraqqiyotida folklor, aniqrog'i, xalq dostonlari bilan munosabat saqlanib kelinayotganini ilg'ashga turtki beradi.

---

[1] T. Sulaymon. Qorasoch. – Toshkent: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1965. 8-bet
[2] G'.Mo'minov. O'zbek sovet adabiyoti taraqqiyotida folklorning o'rni. – Toshkent: Fan, 1985. 137-bet.
[3] Orzigul. Ko'p tomlik dostonlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988. 135-bet.
[4] Malikai ayyor. Xalq dostoni. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988. 7-bet.
[5] O.Hojiyeva. Ko'zimning oq-u qorasi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1996. 304-bet.
[6] O'sha asar. 307-bet.

Ravshan NIYAZOV,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti doktoranti

AMERIKA NASRIDA YURIDIK DETEKTIV ROMANCHILIKNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Sud, jinoyatchi, yurist, sudyalarga bo'lgan katta e'tibor Amerika xalqi madaniyatining ajralmas qismiga aylangan. Chunki davlat konstitutsiyasida fuqarolarga katta huquqlar berilgan. Amerikaliklar boshqa insonlar huquq va erkinliklariga raxna solgan insonni, albatta, jazo kutishiga qat'iy ishonadilar. Ular o'z huquq va erkinliklari doimo qonun bilan himoyalanganligini yaxshi biladilar, shu sababli yurist timsoli badiiy adabiyotda fuqarolar huquq va erkinliklarining himoyachisi, ijtimoiy tartibning kafolatchisi sifatida tasvirlanadi.

Amerika adabiyotida yuridik sohaga oid ko'p sonli asarlar yozilgan. XX asrning birinchi yarmida yaratilgan detektiv asarlar Suzen Glaspe, Artur Treyn, Daniyel Hammet, S.Van Dayn, Stanli Gardner, Uiliam Folkner, Volter Van kabi adiblar qalamiga mansub.

Amerika detektiv nasrida huquq tartibot organlari, sud tizimi va inson o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni anglab yetishga yo'naltirilgan muammolar qalamga olingan. XX asrda bir tomondan shaxs va jamiyat, ikkinchi tomondan, fuqaro va sud vakillari hamda boshqa personajlar o'rtasidagi ziddiyatlar shu qadar murakkablashib ketdiki, ular an'anaviy tushunchadagi bitta asar doirasiga sig'may qoldi. Shu boisdan ham Amerika adabiyotida yuridik detektiv asarlarga bo'lgan ehtiyoj kuchaydi. XX asrda detektiv asar shakllari (turlari) quyida ismlari zikr etilgan o'ziga xos tarzda fikrlaydigan mualliflar: U.Folkner, V.Nabokov, X.Borxes, T.Pinchon, J.Bart, D.Bartelmi va boshqalarning ilmiy diqqat-e'tiborida bo'ldi. Aytish joyizki, Aynan AQSh detektiv adabiyoti XX asrda Amerika madaniyatining xarakterini boshqa mamlakatlarda qabul qilinishini ko'p jihatdan belgilab berdi. Bugungi kunda ilmiy texnika va axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida aynan kundalik hayotimizning axloqiy va huquqiy tushunchalari bo'lmish adolat va haqqoniylikning amerikacha adabiy-badiiy modeli butun dunyo madaniy olamida ustunlikka erishdi.

Amerikalik olim H.Heykraftning ta'kidlashicha, detektiv asl izquvar-detektivlar paydo bo'lmaguncha yaratilishi mumkin emas edi, shu boisdan ham, bu janr XIX asrdagina paydo bo'ldi. 1800-yillar boshida Parij va Londonda birinchi tergov bo'limlari tashkil etildi va ularning xodimlari birinchi detektivlarga aylantirildi. Tadqiqotchining ta'kidlashicha, "detektiv" termini Oksford lug'atida 1843-yilda nashr etilgan, balki og'zaki nutqda undan oldinroq qo'llanilgan bo'lishi ham mumkin [1: 161–162]. Shu o'rinda aytish mumkinki, detektiv adabiyotning paydo bo'lishi va rivojlanishi odil sudlov sohasi tizimining qayta tiklanishi bilan bog'liq. H.Heykraftning ta'kidlashicha, detektiv adabiyot inson huquqlari himoyasi bo'lmagan diktator davlatlarda rivojlana olmaydi.

Detektiv demokratiyaning mevasi hisoblanadi va uning g'oyalarini qo'llab-quvvatlaydi, deb ta'kidlashadi N.Bleyk [2: 398 – 405] va A.Boucher [2: 384–390]. Ularning fikricha, aynan shu sababli detektiv asarlar dastlab Amerikada paydo bo'ldi, chunki qadimiy demokratik odatlar uning oliy qonunida mustahkamlangan edi.

Amerikada detektiv janrning taraqqiyot bosqichi ommaning ehtiyojiga qarab o'sib borgan. Detektiv janrni har tomonlama mukammal janr deb aytish qiyin. Unda Agata Kristi, Sidni Sheldon, Jon Grishem kabi ijodkorlarning arzirli asarlari bilan birga juda sayoz asarlar ham uchraydi [3: 458]. Asarni hammaga manzur qilishga bo'lgan intilish, ko'pincha, uning saviyasini tushiradi. Detektiv janr ommalashuv uchun mo'ljallan-

gan. Shuning uchun u saviyasi o'rtadan past kishilar intellektual ehtiyojlarini qanoatlantirishga yetarli. Boshqa tomondan qaralsa, ayrim tadqiqotchilar nuqtayi nazariga ko'ra, aynan ommaviyligi tufayli detektiv janrni yoqlayotgan madaniyatning muayyan mazmunidan jamiyatning eng quyi qatlamlari ham o'zlariga keragini olish imkoniga ega bo'ldi. Bizningcha, keyingi masala hali to'liq va uzil-kesil yechimga ega bo'lmagan murakkab masalalar qatoriga kiradi.

Amerikadagi barcha turdagi detektiv asarlar kitobxonlarning kino sanoatiga qiziqishlaridan yuzaga kelgan. XIX asrning o'rtalarida Amerika shaharlarida istiqomat qiladigan aholi o'zlarini jinoyat olamida yashayotgandek sezardilar. Mahalliy gazetalarda sodir etilgan jinoyatlar soni kamaytirib yozilar, ularda ko'proq yengil detektiv asarlar chop etilardi: "Yiliga eng mashhur nashrlarga 200000 dan qariyb 300000 ga yaqin mushtariy aynan shunday asarlar uchun a'zo bo'lardi" [4: 8]. Bir guruh huquqshunoslar tomonidan Massachutes shtatida aholining quyi qatlamiga detektiv asarlar sotishni taqiqlovchi qonun qabul qilinadi. Garchi ular bir muddat sodir etilayotgan jinoyatlar va politsiya ko'rsatmalarini matbuotda nashr etishning oldini olgan bo'lsalar-da, "yovuzlik hamda jinoyatni ildizi bilan yo'qota olishmadi" [5: 8]. Qolaversa, ayrim politsiyachilar o'z kasbiy tajribalari asosida hikoyalar yarata boshladilar. Shunday qilib, politsiya detektiv esdaliklari paydo bo'ldi hamda shu ruhdagi hikoyalar avvalgidan ko'ra ko'proq nashr etildi. Ayniqsa, juda mashhur bo'lib ketgan material turi maxfiy va yashirin hujjatlar bo'lib, uning janri detektiv janrga juda yaqin edi.

XIX asrda detektiv janrga kitobxonlar qiziqishining sababi Amerika shaharlarining tez suratlarda o'sib, o'zgarib borganligi bilan bog'liq. Shahar aholisi boyib borishi bilan uylarini ijaraga berib, shaharning aksariyat qismini savdo do'konlari va yirik ishlab chiqarish korxonalariga aylantirishga urinishdi. Shuningdek, aholi qanchalik boyib bormasin, avallo, o'zlari himoya qiladigan okrug va shaharlarni politsiya zimmasiga tashlay boshladi. Shunday qilib, politsiya mahkamalari, keyinchalik shaxsiy izquvarlar (detektivlar) shahar hududlarini himoya qilishda yetakchi kuchga aylandilar. Badiiy adabiyotga ham ularning obrazlari kirib keldi.

Amerika yuridik-detektiv janri hamda shu janrda ijod qilgan va ijod qilayotgan adiblarning ijodiy faoliyati haqidagi ma'lumotlarni chuqur o'rganish natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, ilk Amerika detektiv janrining rivojlanishida yozuvchilar kitobxonlar istagan narsa – asarning asosiy qahramonlari kishining rahmini keltiradigan sahnalarning oddiy ishtirokchilari emas, balki izquvarlar bo'lishi kerakligini tushunib yetgach, ular asosiy diqqat-e'tiborlarini detektiv hikoyalar yozishga qaratdilar hamda shu tarzda, jinoiy detektiv asarlarning kitobxonlar orasida ommalashishiga erishdilar.

Yozuvchilar endi xayoliy qahramonlardan ko'ra haqiqiy hayotda uchrashi mumkin bo'lgan personajlar to'g'risida yoza boshladilar. Shunday qilib, hayotiy voqealarga asoslangan detektiv asarlar hamda hayotda uchrab turadigan voqealar ayni kitobxonlar qalbiga tez kirib boradigan asarlarga aylandi.

Xorij adabiyotshunosligida detektiv janri bo'yicha bir qancha tadqiqotlar olib borilgan. Detektiv janrining o'rganilishida katta hissa qo'shgan tanqidchi Hovard Heykraft hisoblanadi. Uning "Rohatlanish uchun qotillik" (Murder for Pleasure, 1941) asari ayni shu janr tarixi haqidagi dastlabki manba hisoblanadi. Adib, bundan tashqari, "Detektiv hikoya san'ati" (The Art of Mystery Story, 1946) nomli birinchi adabiy-tanqidiy antologik asarlar jurnalining muharriri bo'lgan. Bu jurnal olimlari tomonidan olib borilgan ishlar klassikaga aylandi. Ular ko'p sonli Amerika ommaviy madaniyati tadqiqotlarining asosi hisoblanib, aynan shu tadqiqot natijalariga dunyoning yetuk olimlari ham tayanishadi.

Mamlakatimiz adabiyotshunosligida detektiv qisman o'rganilgan, biroq uning badiiyati va nazariy sohalari bo'yicha amalga oshirilgan ishlar yetarli emas. Ayniqsa, detektiv janrida ijod qiladigan adiblarning ijodi yakka tartibda tahlil etilmagan. Shu boisdan mavzusi adolat va haqqoniylikni o'rnatishga qaratilgan ushbu janrdagi asarlar tadqiqi tadqiqotchilar oldidagi muhim vazifalardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Haycraft H. Murder for Pleasure // The Art of Mystery Story: a Collection of Critical Essays. N.Y., 1992. – pp. 161–162.
2. Blake N. The Detective Story – Why? // The Art of Mystery Story: a Collection of Critical Essays. N.Y., 1992. – pp. 398–405; Boucher A. The Ethics of the Mystery Novel // The Art of Mystery Story: a Collection of Critical Essays. N.Y.,1992. – pp. 384–390.
3. Имангулова Л.М. Эволюция детективного жанра // Актуальные вопросы литературоведения и методики преподавания литературы. – Саранск, 2000. – Вып. 1. – С. 138–143.; История литературы США. Т. 2. – Москва: Наследие, 1999. – 458 с.
4. Panek L. The Origin of the American Detective Story. – Jefferson, NC; McFarland, 2006. – pp. 8.
5. Panek L. An Introduction to the Detective Story. – Bowling Green, 1987. – pp. 8.

Muxlisa HAFIZOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti univerisiteti magistranti

ADABIYOTNI O'QITISHDA ADABIY KOMPETENTLILIKNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

Umumta'lim maktablari standartlari asosida tizimli faoliyat yondashuvi yotadi. Unda o'quvchilar yoshi, psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish, o'z-o'zini rivojlantirishni ta'minlash ko'zda tutilgan. Ta'limda kompetensiyaviy yondashuvga doir tadqiqotlarni amalga oshirgan ko'pgina rus olimlari bunday yondashuv umumiy o'rta ta'limda ham yuqori samara berishini ta'kidlab, o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishda uni **uch tur**ga bo'ladilar:

1) metapredmet kompetensiyalar (tayanch kompetensiyalar);
2) predmetlararo kompetensiyalar;
3) predmetga oid kompetensiyalar.

Inson jamiyatda muvaffaqiyatli yashashi uchun ma'lum layoqat, qobiliyat, malakalarga ega bo'lishi, jumladan, o'z fikrini ravon, tushunarli holda og'zaki va yozma bayon qila olish, zaruriy axborotlarni izlab topa olish va undan foydalanish, jamiyatning ijtimoiy-madaniy hayotida faol bo'lish, o'z-o'zini doimiy rivojlantirish kabi layoqatlarga ega bo'lishi kerak. Tayanch kompetensiyalarning eng maqbul varianti Xalqaro pedagogika fanlari akademiyasining akademigi, pedagogika fanlari doktori A.V.Xutorskiy tomonidan ishlab chiqilgan. Unga ko'ra qadr-qimmat, e'tiqod, umummadaniy, o'quv-o'rganish, axborot, kommunikativ, ijtimoiy-mehnat, shaxsni takomillashtirish kabi tayanch kompetensiyalar mavjud.[1]

Yurtimizda jahon standartlari bilan raqobat qila oladigan ta'lim tizimi yo'lga qo'yilgan. Adabiyot darsliklariga kiritilgan yozuvchilarimiz va ularning asarlari yuzasidan berilgan badiiy tahlillar yoshlarimiz ongiga ijobiy ta'sir etishga, ular shuuriga so'z qudratining nimalarga qodir ekanligini singdira bilishga xizmat qilmoqda.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining adabiyot fani bo'yicha ishlab chiqilgan Davlat ta'lim standartida kompetentlilikka alohida e'tibor qaratilgan. Unga ko'ra, o'quvchilar o'qilgan asardan olgan taassurotlarini yorqin ifodalab bera olishni, o'zga inson tuyg'ulari va hissiy kechinmalari xususida fikr yurita olishni, yuksak didli va aqlan barkamol adabiy qahramonlarning xislatlarini ochib bera olishni bilishlari lozim.

Jumladan, umumta'lim maktablari uchun mo'ljallangan 10-sinf darsligida Erkin Vohidovning she'r va qasidalari har bir o'quvchida adabiy kompetensiyani shakllantira oladigan mazmunga ega. Xususan, shoirning "Inson" qasidasi, "Yaxshidir achchiq haqiqat", "O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa", "O'lmas edi balki odamzod" kabi she'rlarida umuminsoniy g'oyalar talqini yaqqol namoyon bo'lgan. Shoirning "Inson" qasidasidagi ushbu sartlarga e'tibor qarataylik:

Sobit-u sayyorada
Inson o'zing, inson o'zing.
Mulki olam ichra bir –
Xoqon o'zing, sulton o'zing...[2]

Ushbu satrlarda bu yorug' olamda yagona ongli mavjudot ham, olamning "xoqon"i va "sulton"i ham inson ekanligi ta'kidlanadi. Demak, bu olamda qanday yo'ldan yurish va qaysi amallarni bajarish yolg'iz insonning o'z qo'lida ekan. Tahlil jarayonida har bir o'quvchi inson tushunchasiga, uning mohiyatiga, ifoda usuliga e'tibor berib, o'zida adabiy kompetensiyani shakllantira oladi. Shoir insonning ulug'ligi va har narsaga qodir ekanligini, yaxshilik ham, yomonlik ham insonning qo'lidan kelishi mumkinligini mohirlik bilan ifodalagan. Shoir o'zining ijodiy tadriji davomida badiiyatning yuksak cho'qqilarini zabt etgan.

Adabiyot darslarida o'quvchilarning mustaqil fikrlash asosida bilim olishlarini ta'minlash va bilim olishga motivatsiya uyg'otishda ta'lim maqsadini to'g'ri belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Adabiyot metodikasi ilmi har bir adabiyot darsi oldiga tarbiyaviy, ta'limiy, yo'naltiruvchi va rivojlantiruvchi maqsadlar qo'yilishi lozimligini ko'zda tutadi. Bu xil maqsadlar to'g'ri belgilab olinsa, dars jarayoni shu asosda tashkil etilsa, o'quvchilarning ma'nan sog'lomlashuvi uchun ulkan imkoniyatlar paydo bo'ladi. O'qituvchi, avvalo, zamonaviy adabiyot darslarini to'g'ri, mustaqil tafakkur va faoliyatga asoslangan holda tashkil qilishning shartlari nimadan iborat ekanini aniqlab olishi zarur.

Umuman, adabiy kompetentlilikni shakllantirish orqali badiiy asarni o'qish va tushuna olish qobiliyati, o'z o'quv doirasini shakllantirish, badiiy asarlarda mujassam etilgan davr va madaniyat, qahramonlar bilan muloqotga kirishish, badiiy asar tilining o'ziga xos xususiyatlarini tushunish, badiiy matn uslublarini farqlash qobiliyatiga ega bo'lish mumkin.

---

[1] N.Sh.Turdiyev, Y.M.Asadov, S.N.Akbarova, D.Sh.Temirov. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari. N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institut: – Toshkent, 2015.19–20-betlar.

[2] B.To'xliyev, B.Karimov, K.Usmonova. Adabiyot. O'rta ta'lim muassasalarining 10-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik-majmua . – Toshkent, 2017. 74–76-betlar.

Снежана КУТЛУЕВА,
учитель средней школы № 21 Гиждуванского района Бухарской области

ВОПРОСИТЕЛЬНЫЕ МЕСТОИМЕНИЯ

Цели:

образовательная – сформировать понятие о вопросительных местоимениях, знания об их основных морфологических и синтаксических особенностях;

развивающая – развивать творческое мышление, умение работать в группах и самостоятельно;

воспитательная – воспитать любовь к чтению художественной литературы, уважение к собеседнику.

Метод и формы работы: частично-поисковый, индивидуальная и работа в группах.

Средства: компьютер, презентация, тесты для каждого ученика, иллюстрации к сказочной повести А.Волкова «Волшебник Изумрудного города».

I. Организационная часть, повторение пройденного материала.

II. Основная часть. Объяснение новой темы

Учитель. Наверное, многие из вас смотрели мультипликационный фильм, а кто-то даже читал сказочную повесть А.Волкова. Вспомните, что произошло с девочкой? Кого Элли встретила в волшебной стране? (Страшилу, Дровосека и Льва). Давайте совершим путешествие в Изумрудный город вместе с Элли и поможем ей на этом нелегком пути. Прежде чем отправиться в путь, возьмем с собой самое необходимое – наши знания. Вам нужно вставить пропущенное слово в правило и запомнить его.

1. Вопросительные местоимения служат для выражения _____ (вопроса).

2. Вопросительные местоимения употребляются _____ (в вопросительных предложениях).

Вспомните, кого первым встретила Элли в волшебной стране (Страшилу). Какая была проблема у него и как мы можем ему помочь?

Давайте выполним следующее задание: запишите вопросы, на которые отвечает имя существительное (кто? что?), имя прилагательное (какой? какая? какое? какие? чей?), имя числительное (сколько?)

– Кого встретили Элли, Страшила и Тотошка в лесу? (Железного Дровосека). Как мы можем помочь ему?



Сейчас вы напишите распределительный диктант, в левую колонку поставите местоимения, в правую – другие вопросительные слова и проверите правильность выполнения задания (индивидуальная работа).

Распределительный диктант: *Откуда? Зачем? Чей? Кто? Как? Когда? Который? Что? Сколько? Почему? Какой? Где? Куда?*

Учитель. Друзья продолжили путь и встретили Трусливого Льва. Нам нужно помочь Льву поверить в себя, для чего вы выполните следующее задание: группа 1 просклоняет местоимения кто? что? группа 2 – чей? группа 3 – сколько?

Творческая работа. Группам раздаются картинки с изображением Страшилы, Железного Дровосека и Трусливого Льва. Учащиеся должны составить и записать вопросы героям повести.

Друзья подошли к Изумрудному городу, но стражники не пускают их внутрь без пароля.

Упражнение № 443 (у доски по два участника от каждой группы, остальные работают в тетрадях):

1. В _____ городе и в _____ году ты родился? 2. _____ уроков будет сегодня? 3. _____ сейчас урок? 4. _____ книги ты любишь? 5. _____ ты будешь делать вечером? 6. _____ ты встретил во дворе?

Гудвин помог Страшиле обрести ум, Железному Дровосеку – сердце, а Трусливому Льву – храбрость.

Впереди у Элли долгая дорога домой на воздушном шаре. Гудвин тоже летит с ней и Тотошкой. Однако места в шаре хватит только троим, а в него пробрался кто-то чужой. Давайте его вычислим.

«Четвертый лишний»

1. Кто, каков, таков, чей.
2. Меня, себя, тебя, его.
3. Свою, собой, себя, о себе.

Учитель. Чтобы наше путешествие не было скучным, вы вставите в предложения вместо точек пропущенные местоимения:

1. … зовут девочку из Канзаса?
2. … попал в волшебную страну вместе с Элли?
3. … увидели Элли с Тотошкой на поле?
4. … мечтает Страшила?
5. … был Дровосек?
6. … нет у Дровосека?

7. … был лев?
8. … хотели попросить о помощи друзья?
9. … помог Гудвин Страшиле, Дровосеку, Льву?
10. … улетели Гудвин, Элли и Тотошка из волшебной страны?

Учитель. Наше путешествие подошло к концу. Мы помогли Элли с Тотошкой, Страшиле, Железному Дровосеку и Льву обрести то, о чем они мечтали.

Уменья, знанья вас не подвели,
Вы все заданья выполнить смогли.
Кто ошибался – это не беда!
Зато смекалка вас не подвела.
Минуты быстро пролетели,
Но повторить мы все успели.
Вот-вот подаст сигнал звонок,
Ребята, всем спасибо за урок!

III. Подведение итогов. Оценивание.

IV. Домашнее задание. Выписать из любой сказки А.С.Пушкина предложения с вопросительными местоимениями.

Малика КУТЛУЮЛОВА,
преподаватель средней школы № 2 поселка Нурабад Ангренского района

Т.ГАИПОВ. СКАЗКА «ОБИЖЕННЫЕ ДВОЙКИ»

Урок подобного типа проводился в 5 «А» впервые. С участниками суда была проведена пояснительная беседа о правилах проведения такого мероприятия, обсуждены роли и реплики. С выбором исполнителей возникли трудности, так как участвовать хотели все. Благодаря этому уроку был раскрыт актерский талант ребят. Поставленная преподавателем цель была достигнута – рассказ Тургунбая Гаипова прочитали все! (урок передан в сокращенном варианте).

Цели:

образовательная – познакомить учащихся со сказкой Тургунбая Гаипова «Обиженные двойки»;

воспитательная – воспитание норм морали, нравственности и честности;

развивающая – развивать умение анализировать поступки героев, память, речь, творческие способности.

Вид урока: урок-суд.

Методы урока: объяснительно-иллюстративный, мозговой штурм, частично-поисковый, диспут, кластер.

Оборудование: нетбук, портрет писателя, иллюстрации к произведению, атрибутика судебного процесса.

I. Организационный момент (приветствие, проверка готовности учащихся к уроку, опрос по домашнему заданию. Мозговой штурм по биографии Тургунбая Гаипова и содержанию сказки «Кадыр-музыкант»).

– Творчество каких писателей и поэтов привлекало Гаипова?

– Расскажите о семье писателя.

– Чему учат сказки Гаипова? Какие из них вам знакомы?

– На каком музыкальном инструменте играл Кадыр?

– О чем говорилось в песнях Кадыра?

– Как звали великого музыканта, где он жил?

– Как относился к музыке хан первого города, который посетил Кадыр? Какие порядки были во втором государстве?

– Кто такой Хафиз, как он выглядел?

– Сколько лет должен был учиться музыке Кадыр у Хафиза?

– Какие советы дал Хафиз Кадыру?

Составление кластера по творчеству Т.Гаипова:

II. Объяснение новой темы. Учащиеся заранее должны были прочитать сказку «Обиженные двойки», распределить роли судьи, обвиняемого, адвоката, прокурора, секретаря, свидетелей.

Судья. Здравствуйте, господа присяжные. Сегодня мы рассматриваем дело учащегося 5 «А» класса Ахмаджана по обвинению в лени, плохой успеваемости, нанесению финансового ущерба государству. Господин прокурор, слово Вам и Вашим свидетелям.

Прокурор. Здравствуйте, господин судья и присяжные заседатели. Я собрал достаточное количество улик и свидетелей для обвинения Ахмаджана. Из-за этого двоечника произошел сбой банковской системы, работы Монетного двора, граждане недополучили зарплаты, пенсии, стипендии, потому что все двойки от обиды сбежали и спрятались в его портфеле.

Приглашается свидетель обвинения.

Свидетель. Я работаю преподавателем математики в школе, где учится Ахмаджан. Он учится плохо, не проявляет интереса к учебе. Я оставлю его на второй год.

Ахмаджан. Я не хочу оставаться на второй гоооооод…, простите меня…, я буду учиться…

Адвокат. Какие отметки у Ахмаджана по математике?

Свидетель. Посмотрите его дневник, кроме двоек, в нем ничего нет (В зале суда неодобрительный гул. Ахмаджан опускает голову еще ниже, плачет).

Судья. Подсудимый, ваши дела плохи. Вам нет оправдания, вам не стыдно?

Ахмаджан. Простите меня, я больше не будууууууу…

Адвокат. Свидетель, если бы Ахмаджан не ленился, он смог бы получать хорошие отметки?

Свидетель. Да, конечно, у всех есть способности.

Вызывается следующий свидетель – отец Ахмаджана.

Судья. Здравствуйте, свидетель, проходите на трибуну и представьтесь. (Свидетель неуверенно проходит на трибуну).

Свидетель. Я отец Ахмаджана, работаю бухгалтером, весь день провожу на работе. Главный виновный тут – я, это из-за моего невнимания к сыну все пострадали. Все двойки – в портфеле Ахмаджана, в моих отчетах ошибки, предприятия несут убытки…, меня едва не уволили с работы! Простите нас!

Прокурор. Что вы предприняли для исправления ситуации?

Исмат-ака. Ахмаджан дал обещание учиться хорошо. Ему самому надоело слышать, что он двоечник. Теперь мы вместе делаем уроки.

Ахмаджан. Я решил исправить двойки. У меня даже появились новые любимые предметы. Правда, у меня остается мало времени на прогулки и футбол. Но я же дал обещание исправиться.

После опроса всех свидетелей в зал приглашается Двойка.

Двойка. Здравствуйте, я – Двойка, давняя знакомая Ахмаджана. Без меня не проходит ни один его день. Я нужная цифра, без меня счет будет неверным. Но лентяи вроде Ахмаджана вызывают ко мне ненависть, меня начинают презирать, отмахиваются, боятся. Разве я заслуживаю такое отношение?

Прокурор. Видите, господа присяжные заседатели, с кем дружен Ахмаджан? Народная мудрость гласит: «Скажи мне, кто твой друг, и я скажу, кто ты». Подсудимый – Вы двоечник и лентяй! (в зале поднимается недовольный шепот).

Адвокат. Двойка, Вы с Ахмаджаном дружны по-прежнему?

Двойка. На этой неделе я ни разу не появилась в его дневнике!

Прокурор. Это еще ничего не доказывает, прошла всего неделя.

Судья объявляет прения сторон.

Прокурор. К сожалению, наш подсудимый сегодня – ученик 5-го класса обвиняется в причинении умышленного вреда в особо крупных размерах нашему государству и плохой успеваемости. А ведь молодежь – будущее страны. Необходимо принимать меры сейчас, пока еще не поздно. За Ахмаджаном надо установить наблюдение. У меня всё, спасибо!

Адвокат. Прошу выслушать меня и принять верное решение, господа присяжные заседатели. Перед вами сидит раскаявшийся ребенок, уже давший обещание исправиться. Нередки случаи, когда двоечники достигают небывалых высот. Возможно, вы видите перед собой будущего Месси или Роналдо, который будет гордо представлять свою страну на мировой арене. Ну, а двойки он, конечно же, вернет, и все получат свои зарплаты, пенсии, стипендии. Прошу дать ему еще один шанс и отпустить из зала суда. У меня всё, господин судья.

Судья. Итак, прения подходят к концу (обращаясь к Ахмаджану). Ахмаджан, тебе есть что сказать в свою защиту?

Ахмаджан. Я буду получать только хорошие отметки, я же дал слово, я не хочу чтобы меня рисовали в стенгазетах. Меня, наверное, сейчас все на свете ненавидят! Извините меня!

Судья. Суд удаляется на совещание, объявляется короткий перерыв.

Судья. Мы выслушали прения сторон, показания свидетелей. Суд постановил вернуть все двойки, дать шанс на исправление подсудимому и освободить в зале суда.

ПРЕПОДАВАНИЕ ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ
LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

Мадинабону АХМЕДОВА,
преподаватель Ташкентского государственного юридического университета

ТВОРЧЕСТВО ЗАХАРА ПРИЛЕПИНА

(рассказы «Карлсон», «Чёрт и другие», «Ничего не будет»)

Цели:

обучающие: познакомить с творчеством и рассказами Захара Прилепина; помочь учащимся понять позицию автора в вопросе о смысле жизни, объяснить понятия «герой» и «образ» в современной русской литературе, ввести элементы сопоставительного анализа;

воспитательные: на конкретном примере воспитывать духовно богатую личность; продолжить формировать умение работать в коллективе и анализировать полученную информацию;

развивающие: развивать умение правильно, красиво и логично излагать свои мысли, пополнять словарный запас; развивать интерес к чтению современной русской литературы, любознательность.

I. Организационный момент.

II. Основная часть.

1. *Вводное слово преподавателя.* Сегодня вы познакомитесь с творчеством Захара Прилепина – яркого представителя современного русского неореализма. Родился в 1975 году. Окончил Нижегородский государственный университет имени Н.И.Лобачевского (ННГУ), пишет рассказы со школьных лет. Первые произведения Прилепина были опубликованы в 2003 году в газете «День литературы», затем в «Литературной газете», «Лимонке», «На краю» и «Генеральной линии», в журналах «Север», «Дружба народов», «Роман-газета», «Новый мир», «Сноб», «Русский пионер», «Русская жизнь», «Аврора».

В современных русских рассказах утвердился жанр с психологическим этюдом, проникнутый подлинной грустью, однако в творчестве З.Прилепина художественный мир представлен двумя формами художественной условности: советской действительностью и современным миром через призму восприятия молодежи. Жизнеподобие, переплетаясь с «книжным» миром молодежи, выражает разные виды и оттенки комического – юмора, сатиры, иронии.

2. *Знакомство с рассказами Захара Прилепина* «Карлсон», «Чёрт и другие», «Ничего не будет» (в ходе анализа и обсуждения студенты рассмотрят следующие вопросы, на основе которых будут работать).

• Как вы думаете почему у рассказов такое название?

• Почему главного героя рассказа зовут Захар? Это одно и то же лицо в каждом рассказе или это сам автор?

• Внутренний мир художественного произведения и главных героев.

• Роль художественного пространства и времени и как они влияют на действия героев рассказа (из каждого рассказа привести пример).

• Сюжет и его структура. Сюжет и фабула (в каждом рассказе).

• Как соотносятся друг с другом понятия сюжет и фабула (в каждом рассказе).

• Как вы думаете, эти рассказы описывают современную Россию? (если да, то почему/нет, то почему?).

3. *Самостоятельная работа* (студенты делятся на малые группы по пять человек, каждая группа получает карточки с заданиями по указанным рассказам).

• Внимательно прочитайте художественный фрагмент текста и определите к какому из трех рассказов он относится.

• Расскажите о своем понимании мысли главного героя Захара.

• Проанализируйте данный текст (из рассказа), выявите в нем смысловые константы.

• Составьте словесный портрет Захара в каждом из трех рассказов, выявите их сходства и различие (если таковые существуют)

• «…мой герой Захар оказался актуален, поскольку он созвучен духу времени…», вы согласны с мнением автора: если да, то почему/если нет, то почему (свои ответы подкрепите примерами из рассказа).

III. Закрепление (преподаватель предлагает заполнить кластер, каждая группа выбирает один из трех рассказов).



IV. Итог урока (выставление оценок и комментирование).

V. Домашнее задание: прочитать рассказы Захара Прилепина «Белый квадрат», «Какой случится день недели», на их основе составить «Диаграмму Венна». Как вы понимаете мысль о том, что «отдельного произведения в литературе не существует», а каждое отдельное произведение «входит в систему литературы, соотносится с нею по жанру и стилю автора…»? Проанализируйте свое понимание этой мысли на основе рассказов Захара Прилепина «Белый квадрат», «Какой случится день недели» и напишите эссе.

Анна ШЕРЕМЕТЬЕВА,
доктор филологических наук, профессор Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

ИНТЕРАКТИВНЫЕ ЛЕКЦИИ ПО СЛОВООБРАЗОВАНИЮ РУССКОГО ЯЗЫКА

К системе высшего профессионального образования предъявляются серьезные требования по подготовке высококвалифицированных кадров.

Современный учебный процесс в силу сложности и комплексности стоящих перед профессиональным образованием задач делает акцент на разработке и внедрении инноваций на всех уровнях. Из всех видов учебной деятельности именно лекция, как правило, ограничивается традиционной формой, хотя и здесь выбор методических приемов безграничен.

Современная лекция – это совместная творческая работа лектора и студента. Современный лектор – это не только хорошо знающий свой предмет профессионал, но и методист-новатор.

Мы предлагаем разработку интерактивного лекционного курса «Современный русский язык. Словообразование» для студентов бакалавриата направлений 5120100 – Филология и обучение языкам (русский язык), 5111300 – Родной язык и литература (русский язык и литература в иноязычных группах) в соответствии с действующей учебной программой. В качестве образца даны три лекционных занятия по наиболее сложным темам курса.

Тема: Виды и функции морфем

Этап вызова – актуализация прежних знаний и подготовка к восприятию нового материала (метод «Кейс-стади»)	
1. Является ли правомерным следующее утверждение? 2. По какому принципу сгруппированы следующие аффиксы?	**Аффиксы** – это корни, суффиксы, префиксы и флексии. А) суффиксы: **-л, -а, -и** (думал, глядя, собери); Б) суффиксы: **-к, -ий, -ник** (подготовка, лисий, лесник); В) префиксы: **-нео, контр-, суб-** (неолит, контригра, субтропический); Г) префиксы: **под-, с-, из-** (подставка, сдать, изгиб).



Тема: Морфемный анализ слова

Этап вызова – актуализация прежних знаний и подготовка к восприятию нового материала (метод «ЗХУ»)		
Знаю	Хочу знать	Узнал
1. Морфемный анализ – разбор слова по составу.	1. Из каких морфем могут состоять слова в русском языке?	1. В русском языке слова состоят из корневых и аффиксальных морфем.
2. Слова состоят из морфем.	2. Все ли морфемы имеют материальное выражение?	2. Не имеют материального выражения нулевые суффиксы и флексии.
3. Радикс – корень (R). Префикс – приставка (Pr). Суффикс (S). Флексия – окончание (f). Постфикс (Post).	3. Может ли одна морфема выполнять несколько функций?	3. Морфемы могут совмещать СО и ФО функции.
	4. Все ли вычленяемые в слове части являются морфемами?	4. Кроме морфем в слове могут вычленяться субморфы и интерфиксы.



Тема: Морфонология русского словообразования

I этап. Лекционное занятие – работа по методу «Инсерт». Внимательно прочитайте текст и дайте собственное определение термину «морфонология».

Морфонология – раздел языкознания, изучающий связи фонологии и морфологии. Это отразилось в самом термине *морфонология*, образовавшемся путем гаплологии из морфо-фонология, т.е. морфологическая фонология (в научной литературе используются также термины *фономорфология, морфофонемика, морфонемика*.

Морфонология исследует особенности использования фонологических средств для выражения грамматических различий. Принято различать морфонологические особенности словообразования (деривации) и формообразования (собственно морфологии), хотя между ними наблюдается определенное сходство.

К основным задачам морфонологии относится установление фонемного состава морфов разных видов, порядка их следования в слове, условий взаимоприспособления морфов, их возможного видоизменения (варьирования) при соединении в структуре слова.

К морфонологическим явлениям относятся:

– *усечение производящей основы* – конец производящей основы отсекается и не входит в состав производного слова (сладкий – слад-ость – усечение -к, кенгуру – кенгур-ёнок – усечение -у);

– *наращение производящей основы* (интерфиксация) – производящая основа расширяется (наращивается) за счет незначимого асемантического элемента – *интерфикса* (шоссе – шоссей-н(ый) – интерфикс -й-, жи(ть) – жилец – интерфикс -л-). Необходимо отличать подобные интерфиксы от интерфиксов–соединительных морфем в структуре сложных слов: тепл-о-воз, земл-е-трясение;

– *наложение* (интерференция) *морфов* – конец одного морфа объединяется с началом другого (розов(ый) – розоват(ый) – вместо розоват(ый), общий элемент –ов; такси – таксист вместо таксиист) общий элемент –и;

– *чередование* (альтернация) *фонем* – при взаимоприспособлении производящей основы и деривационного аффикса на границе морфов или в их составе могут чередоваться фонемы (как гласные, так и согласные): медведь – медвеж-онок (д//ж), день – дн-евн(ой) (е/нуль гласного).

Наиболее частотным в русском словообразовании является чередование согласных, парных по твердости/мягкости: жилой – жилец, реже встречается «обратное» чередование мягких и твердых согласных: кость – косточка;

– *ударение* – в производном слове по отношению к производящему изменяется место ударения: бежать – выбежать, синий – синяк).

II этап. После прочтения текста студентам предлагается заполнить таблицу, вписав в нее известное и неизвестное из текста лекции.

V	+	–	?
–	–	–	Морфонология – ?



Предлагаемые разработки могут использоваться не только преподавателями, которым они помогут структурно выстроить лекционное занятие с использованием интерактивных технологий, но и магистрантам по специальности 5А120102 – Лингвистика

(русский язык) при прохождении педагогической практики. Несомненно, интерактивные технологии активизируют умственную деятельность студенческой аудитории, а разнообразные виды работ сконцентрируют внимание на определенных аспектах темы, вызовут интерес к изучаемому предмету.

Использованная литература

1. Ахмедова Л.Т., Кон О.В. Методика преподавания русского языка. Ташкент, 2013.
2. Ахмедова Л.Т., Лагай Е.А. Современные технологии преподавания русского языка и литературы. Ташкент, 2016.

Равшана ИСАКОВА,
и.о. доцента, заведующая межфакультетской кафедрой Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

ВЛАДЕНИЕ РЕЧЕВЫМ ЭТИКЕТОМ – ПРИОБРЕТЕНИЕ АВТОРИТЕТА, ПОРОЖДАЮЩЕГО ДОВЕРИЕ И УВАЖЕНИЕ

В настоящее время весьма актуальна проблема речевого этикета, так как речь является одной из составных частей профессиональной подготовки специалистов.

Речевой этикет – это система специфических языковых знаков (слов, устойчивых словесных формул) и правил их употребления, принятых в данном обществе в данное время для установления речевого контакта между собеседниками и поддержания дружеских, вежливых, доброжелательных или официальных отношений в соответствии с речевой ситуацией. Речевой этикет – условный язык вежливости, субординации, имеющий свой словарь (систему знаков) и грамматику (правила пристойного речевого поведения в обществе) [1].

Исследование проблем коммуникации, национально-культурной, социально-культурной специфики речевого поведения выдвигает проблемы речевого этикета, актуальные и в плане коммуникативной национально-культурной направленности обучения языку.

Знание правил речевого этикета, их соблюдение позволяют человеку чувствовать себя уверенно и непринужденно, не испытывать неловкости и затруднений в общении [2]. Правилами речевого этикета являются *тактичность* – это этическая норма, требующая от говорящего понимать собеседника, избегать неуместных вопросов, обсуждения неприятных для него тем; *предупредительность* – умение предвидеть возможные вопросы и пожелания собеседника, готовность подробно информировать его по всем существенным для разговора темам; *терпимость* – спокойно относиться к возможным расхождениям во мнениях, избегать резкой критики взглядов собеседника. Следует уважать мнение других людей, стараться понять, почему у них сложилась та или иная точка зрения. С таким качеством характера, как терпимость, тесно связана *выдержанность* – умение спокойно реагировать на неожиданные или нетактичные вопросы и высказывания собеседника; *доброжелательность* необходима как в отношении к собеседнику, так и во всем построении разговора: в его содержании и форме, интонации, подборе слов [3].

Базовые формулы речевого этикета усваиваются в раннем возрасте. С возрастом человек узнает всё больше тонкостей в общении, осваивает различные стили речи и поведения. Умение правильно оценить ситуацию, завести и поддержать разговор с незнакомым человеком, грамотно изложить свои мысли отличает человека высокой культуры, образованного и интеллигентного.

Речевой этикет – это правила о том, как говорить, о чем говорить, где говорить и с кем говорить.

Речевой этикет как национальное явление – неотъемлемый элемент культуры речевого поведения, общения и связан с культурой народа, выполняющего те или иные правила поведения. Многонациональный состав населения нашей республики непосредственно влияет на речевую культуру, накладывает отпечаток на его речевую этикетную компетентность.

